Ключевые слова: Интеллектуальное богатство, Чудо Сингапура, PSLE, TIMMS, PISA, Ценность, Образование, Система личного экзамена

Abstract. This article discusses the education system of Singapore, the world's leading education system, which prefers intellectual wealth over material wealth, and the prospects for its development. on the analysis of factors.

Keywords: Intellectual Wealth, The Miracle of Singapore, PSLE, TIMMS, PISA, Value, Education, Personal Examination System

Kirish. «Bugun hech kimga sir emaski, biz yashayotgan XXI asr – intellektual boylik hukmronlik qiladigan asr. Kimki bu haqiqatni o'z vaqtida anglab olmasa, intellektual bilim, intellektual boylikka intilish har qaysi millat va davlat uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa– bunday davlat jahon taraqqiyoti yo'lidan chetda qolib ketishi muqarrar» [1].

Za'mon falsafasidek yangrayotgan ushbu satrlarni inkor etib bo'lmaydi, tajribalar buni isbotlaydi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan texnika taraqqiyoti davri shuni ko'rsatmoqdaki bugungi kunda mamlakatning rivojlanishi uchun tabiiy resurslar, moddiy boyliklardan ko'ra intellektual boylik omili muhimroq. Tabiiy boyliklarga burkangan davlatning, ushbu moddiy ne'matlarni qayta ishlashga salohiyati yetmasa bu resurslarning samaradorligi o'zini oqlamaydi. Shularning e'tiboridan mamlakatlarning ta'limga bo'lgan ehtiyojlari kundan-kunga ortib bormoqda. Xususan, O'zbekistonimizning uchinchi renessans davridagi taraqqiyot yo'lining maorif (*yangicha maktablar ochish, ta'lim usulini yangilash*) sohasi rivoji bilan baholanishi bejiz emas. Ma'rifatchilikni yangi bosqichga ko'tarish, zamonga xos raqobatbardosh ta'lim tizimini ishlab chiqish bugungi kunimizning bosh maqsadiga aylanmoqda. Bu esa O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847 son farmoni bilan tasdiqlangan

“O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ga ko'ra xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimini o'rganish, tahlil qilish, muvaffaqiyatli jihatlarni o'z ta'lim tizimimizga tatbiq etish istiqbollarini o'rganishni taqazo etmoqda.

Materiallar va usullar. Maqola kichik tadqiqot sifatida mavzu atrofida maqola, ilmiy ish va kitoblarni batafsil o'rganib chiqilgach yozildi. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, prezidenti qarorlari e'tiborga olindi. Singapur ta'limini yoritishda, ta'lim tizimi tarixiga nazar tashlandi, amaldagi ta'lim tizimi tahlil qilindi, erishilgan yutuqlar aniq statistikalar bilan bayon etildi. Eng muhim jihati bo'lgan ta'lim tizimidagi rivojlanish omillari tadqiq qilindi va O'zbekiston ta'lim tizimiga tatbiq etishga taklif etildi.

Natijalar bo'limi

Deyarli tabiiy resurslarga ega bo'lmagan, mustamlakachilik davrlarida Buyuk Britaniya qaramligida bo'lgan, 1965-yil 9-avgustga kelibgina o'z mustaqilligiga ega bo'lgan – Singapur, bugungi zamon falsafasini oldindan idrok etgandek, intellektual boylikka asosiy e'tirborini jalb etdi. Ta'lim tizimida hozirgi kunda erishilgan yutuqlar ushbu mamlakat tizimini o'rganishga majbur etmoqda. Qisqa davrdagi rivojlanish “Singapur mo'jizasi” [2] degan nom bilan atalmoqda. Ushbu mo'jiza mamlakat bosh vaziri(1965-2000),”iqtidorlilar rahnamosi” deb ta'riflangan Li Kuan Yu(1923-2015)ning nomi bilan bevosita bo'g'liq. Li Kuan Yu ilgari surgan tizimning asosi ta'lim va tibbiyot sohasiga tez va jiddiy e'tibor qaratish, korrupsiya illatini parchalash deya baholanadi. Moddiy boylikdan intellektual boylikni ustun baholagan boshqaruvchi va xalqning bugungi kundagi ta'lim tizimi va bu sohada erishilgan yutuqlarning ilmiy asoslariga e'tibor qaratamiz.

Singapurdagi ta'limga oid siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishga, ta'limdagi ilg'or va samardor yo'nalishlarni belgilab berishga ta'lim vazirligi rahbarlik qiladi. Ta'lim vazirligi tomonidan ishlaydigan davlat xizmatchilari bir nechta ittifoqlarga, shu jumladan Singapur o'qituvchilar uyushmasi, Singapur Xitoy o'qituvchilar uyushmasi, Singapur Malay o'qituvchilar uyushmasi va ta'lim bo'yicha mutaxassislar uchun Singapur Tamil o'qituvchilar uyushmasi va nodavlat ta'lim sohasi xodimlari uchun jamoat xodimlarining birlashtirilgan uyushmasi. Ushbu barcha kasaba uyushmalari kasaba uyushmalarining milliy kongressi deb ataladi [3].

Singapurda ta'lim tizimi 3 bosqichdan iborat:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- oliy ta'lim;

Bog'chaga bolalar qabuli 3 yoshdan boshlanadi. Ikki-uch yil davomida ularga ona tili va ingliz tili, o'qish, sanash, kuylash, rasm chizish, raqs tushish kabilar o'rgatiladi. Singapurda davlat tassarrufidagi bog'chalar yo'q. Maktabgacha ta'lim muassasalarining deyarli barchasi xususiy bo'lib, ayrimlarigina diniy tashkilot yoki jamg'armalar tomonidan boshqariladi.

Maktabga bolalar 6 yoshdan qabul qilinadi. Umumiy o'rta ta'lim 3 bosqichda amalga oshiriladi:

- boshlang'ich ta'lim(1-4-sinf);
- o'rta ta'lim(5-6-sinflar);
- universitetoldi ta'lim

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarga ingliz tili, ona tili (xitoy, malay yoki tamil) va matematika fanlari o'rgatiladi. O'quvchilarning tanloviga ko'ra etika, estetika, mehnat, musiqa va jismoniy tarbiya darslari ham o'tiladi, shu bilan birga 3-sinfdan o'quv dasturiga tabiiy-ilmiy fanlar qo'shiladi. Bolalar 4 yillik ta'limdan so'ng o'rta ta'lim(ixtisoslashtirilgan tayyorlov) bosqichiga o'tgach, ona tili, ingliz tili va matematikani o'rganish qobiliyatiga ko'ra guruhlarga ajratiladi. Maktablarda o'quvchilarga shaxsiy imtihon topshirish tizimini ishlab chiqish imkoniyati berilgan. Bu har bir bolaning o'z qobiliyatini yanada yaxshiroq namoyon etishini ta'minlaydi.

Imtihonlar yakunida bolalar iqtidoriga ko'ra ingliz va ona tilidan boshlang'ich, standart hamda yuqori daraja, matematika va tabiiy fanlardan dastlabki va standart darajalardan birini oladi. O'qish so'ngida o'quvchilar bitiruv imtihonini topshiradi va ta'limning keyingi bosqichiga o'tish uchun PSLE (Primary School Leaving Examination) shahodatnomasiga ega bo'ladi [4].

Singapur rasmiylari o'quvchilarning samaradorligi va sog'lig'ini yaxshilash uchun maktab tizimini doimiy ravishda qayta ko'rib chiqadilar va takomillashtiradilar. Masalan, 2017-yilda talabalar akademik qattiqqo'llikdan kelib chiqadigan stress va psixologik muammolar darajasi oshgani haqida xabar berishgan. Bunga javoban ta'lim idoralari talabalar bosimini yumshatish uchun imtihonlarda eng ko'p ball olganlarni ro'yxatga olishni to'xtatdilar. Bundan tashqari, mamlakatda “Kamroq o'rgat, ko'proq o'rgan” strategiyasi joriy etildi, bu o'qituvchilarni ta'lim miqdoriga emas, balki sifatga e'tibor berishga undaydi.

Singapur ta'lim tizimi samaradorligining yana bir muhim omili mamlakatda milliy byudjetning 20 foizi ta'limga sarflanadi. Hukumat yoshlarni jahon bozorida raqobatbardosh etib tarbiyalash uchun yetarli bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish maqsadida ushbu sohaga katta mablag' sarflaydi. Yo'lga qo'yilgan tizimning tartib-intizom, izchillik bilan amalda tatbiq etilganligi bugungi kundagi

ushbu davlatning ta'lim sohasida erishgan muvaffaqiyatlarida namoyon bo'ladi. Jahon mamlakatlari ta'lim rivojini baholab beruvchi xalqaro baholash dasturlari Singapurning ta'lim sohasidagi yetakchi sifatlarini yuzaga chiqardi. Jumladan.

TIMSS – *“Trends in International Mathematics and Science Study”*, ya'ni 4 -va 8-sinf o'quvchilarining matematik va tabiiy-ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ta'limdagi natijalarini xalqaro miqyosda baholaydigan tadqiqotdir. TIMSS-2019 tadqiqotning 7-davriyligida 60 dan ortiq mamlakat va iqtisodiyotlar ishtirok etdi. Ushbu tadqiqotda matematika fani bo'yicha Singapurning 4-sinf o'quvchilari 625 ball, 8-sinf o'quvchilari esa 616 ball bilan 1-o'rindan joy oldilar. Tabiiy-ilmiy yo'nalish bo'yicha Singapurning 4-sinf o'quvchilari eng yuqori natijani 595 ball, 8-sinf o'quvchilari esa 608 ball qayd etib, bu yo'nalishda ham dunyoda yetakchi ekanliklarini yana bir-bora namoyon etdilar [5].

PISA (*inglizcha - Programme for International Student Assessment*) – turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur. PISA 2018 natijalariga ko'ra yuqori intellekt egallari umumiy reytingda 2-o'rinni egalladilar [6].

Xalqaro tadqiqotlar doirasida olingan sinovlar bolalarning mantiqiy fikrlashi hayotiy muammolarga yechim topa olishi kabi jihatlari baholashni asosiy o'ringa qo'yadi. Demak bu borada Singapur bolalari yetakchi. Bu esa mamlakatning rivojlanishi istiqbollari va masalalariga to'laqonli yechim topa oladigan avlodni tarbiyalashga dasturi-amal bo'lib xizmat qiladi.

Munozara bo'limi.

Yuqoridagi topilmalardan foydalangan holda, shuni xulosa qilish mumkinki zamonaviy ta'limda raqobatbardosh bo'lgan Singapur ta'lim tizimining taraqqiyot omillarini tahlil qilgan holda, tizimning ba'zi elementlariga alohida e'tibor qaratishimiz darkor. Singapur ta'lim tizimidagi e'tiborli jihati o'quvchilarning shaxsiy imtixon tizimini ishlab chiqishi. Bunda o'quvchi o'zi qiziqqan fan va sohada o'zini ko'rsata oladi va shu fanning yetuk mutaxassisi, malakali kadri bo'lib shakllanadi degan nuqtai nazar mavjud va bu amalda o'z tasdig'ini topmoqda. Aynan mana shu jihatni O'zbekiston ta'lim tizimiga tatbiq etilganda ta'lim rivojiga salmoqli hissasini qo'shgan bo'lardi. Sinfdan-sinfga o'tish va yakuniy bitiruv imtihonlaridagi majburiy fanlar katalogi o'rniga o'quvchilar o'z qiziqishlari doirasidagi fanlarni tanlab imtihon topshirsalar ularning ta'limga bo'lgan munosabatida ijobiy o'zgarishga hamda sohalar bo'yicha sifatli va malakali kadrlarni ishlab chiqarishda samaradorlikka erishiladi.

Bir sohaning yuksalishida tizim va inson qadriyati tushunchasi yonma-yon keladi. Dunyo havas qilib turgan bu davlatning ta'lim sohasi yuksalishini amaldagi tizimga to'laqonli bog'lash noto'g'ri albatta. Bu borada ushbu millat qadriyatlari, ularning ta'limga bo'lgan munosabatlari, vatanparvarlik jihatlari eng muhim omillaridan biri sifatida oldinga chiqadi. Bir so'z bilan aytganda, maorif sohasi yuksalishi uchun ta'lim beruvchi bilan paralel ravishda ta'lim oluvchi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi–biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. – T.: O'zbekiston
2. Kun.uz Singapur mo'jizasi haqida,/Doston Ahrorov maqolasi
3. Marifat.uz Singapur ta'lim izimi/ Iroda Toshmatova maqolasi
4. Tdi.uz/xalqaro tadqiqotlar.
5. Tdi.uz/Butun dunyoda o'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha PISA tadqiqoti.
6. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847 son farmoni bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”.

QISHLOQ XO'JALIK OLIY O'QUV YURLARIDA KASBIY TERMINOLOGIYANI O'QITISH NAZARIYASI

M.M. Xamidov, katta o'qituvchi, Toshkent davlat agrar universiteti, Toshkent

Annotasiya. Ushbu maqolada qishloq xo'jalik oliy o'quv yurtlarida kasbiy terminologiyani o'qitish nazariyasi ko'rib chiqilgan. Shu bilan bilrga zamonaviy jamiyatda chet tilining ahamiyati katta, chunki ko'plab qishloq xo'jaligi korxonolari xorijiy firma va kompaniyalar bilan hamkorlik qiladi, shuning uchun talabalar kelgusida ishga joylashish va martaba ko'tarilishiga yordam beradigan asosiy bilimlarga ega bo'lishlari kerak.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jalik, talaba, oliy o'quv yurtlari, kasbiy terminologiya, o'qitish nazariyasi, chet tili

Аннотация. В данной статье рассматривается теория преподавания профессиональной терминологии в аграрных вузах. В то же время значение иностранного языка в современном обществе велико, так как многие сельскохозяйственные предприятия сотрудничают с иностранными фирмами и компаниями, поэтому студенты должны иметь базовые знания, которые помогут им в дальнейшем трудоустройстве и продвижении по карьерной лестнице.

Ключевые слова: сельское хозяйство, студент, высшее образование, профессиональная терминология, теория обучения, иностранный язык.

Abstract. This article discusses the theory of teaching professional terminology in agricultural universities. At the same time, the importance of a foreign language in modern society is great, since many agricultural enterprises cooperate with foreign firms and companies, so students must have basic knowledge that will help them in further employment and career advancement.

Key words: agriculture, student, higher education, professional terminology, learning theory, foreign language.

Kirish. Agrar oliy o'quv yurtlari talabalarining chet tilini o'qitish kasbiy yo'naltirilgan bo'lib, ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda talabaning ilgari olingan bilimlarini tuzatuvchi tizimlashtirish amalga oshiriladi (umumiy til suhbat mavzularini, kerakli grammatik materialni takrorlash). Ikkinchi bosqich - professionallashtirish - talabalarni keyingi ishlarga tayyorlashda mutaxassislik bo'yicha matnlar bilan ishlashga o'rgatishni o'z ichiga oladi [1].

Mavzuning dolzarbligi. Chet tilini o'qitish yo'li bilan kasbiylashtirish bosqichida terminologiya fundamental ahamiyatga ega bo'lib, ma'lum bir kasbiy bilim yoki ishlab chiqarish sohasi atamaları yig'indisi bo'lgan ma'lum bir til lug'atining maxsus qatlamidir. Aniq yuqori ixtisoslashgan sohaning atamaları majmui terminologik sohadir. Terminologik sohada bu atama bir ma'noli emas, lekin boshqa sohalarda omonimlarga ega bo'lishi mumkin. Terminologiyani o'rgatish qiyin, chunki lug'atning ushbu qatlami terminologik bo'lmagan lug'atga nisbatan bir oz boshqacha ishlaydi. Kasbiy bilimning ma'lum bir sohasida atama o'ziga xosdir, qoida tariqasida, lug'atning terminologik bo'lmagan qatlamining birliklari kabi ko'p sinonimlarga ega emas, shuningdek, boshqa leksik birliklar bilan muvofiqligi cheklangan. Ko'pincha atamaning tildagi ma'no doirasi ona tilidagi bir xil atamaning ma'no doirasi bilan mos kelmaydi. Bularning barchasini hisobga olgan holda, terminologik lug'atdan foydalanish ko'nikmalari yuqori darajada avtomatlashtirilgan bo'lishi kerak, shundagina talaba o'z fikrini to'g'ri ifodalay oladi va birovning fikrini tushunadi. Tilshunoslik va metodologiyada umumiy atamashunoslikka ham, alohida sohalar terminologiyasiga ham doim katta e'tibor berilgan. Talabalarga terminologik lug'atni o'rgatish uchun ko'plab ishlar bag'ishlangan. So'nggi yillarda qishloq xo'jaligi oliy o'quv yurtlari talabalariga terminologik lug'atni o'rgatish masalasiga katta e'tibor berilmayapti. Qishloq xo'jaligida terminologik lug'atni o'rgatishda tizimli yondashuv yo'q. Ushbu ishda "Qishloq xo'jaligi" mavzusining terminologik lug'atini tematik bo'linishining asosini tegishli mavzu kontekstining proyeksiyasi sifatida funksional terminologik soha tushunchasi tashkil etadi. Maqola muallifi terminologik lug'atni o'qitishning maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqishni taklif qiladi. Bu nazariya so'nggi paytlarda metodologiya va tilshunoslikda juda mashhur bo'ldi.

Birinchi marta atama sun'iy intellekt bo'yicha tadqiqotning kontseptual apparatiga kiritildi [3], bu uni "sterotipik vaziyatlarni ifodalash uchun mo'ljallangan ma'lumotlar tuzilmasi", "minimal zarur tizimli ma'lumotlar" sifatida belgiladi. Xotirada mavjud bo'lgan ramkalarni taqqoslash orqali inson haqiqatining markazida.

Tilshunoslik nazariyalarining turlari:

- sintaktik;
- semantik;
- tematik ramka (steriotipik vaziyatlarni ifodalash);
- hikoya (axborotni uzatish usuli) [3].

Tajriba qismi. Til hamjamiyati tomonidan umumiy ma'noning umumiy kontseptual asoslariga asoslangan til birliklarining sintaktik xatti-harakati ifodalaydi. Ma'ruzachi ma'lumotni tushuntirishi mumkin, ammo ramka xotiradan tegishli stsenariyni chaqirib, vaziyatni ko'rsatishga imkon beradi [3].

Turli tadqiqotchilar tuzilishini turli yo'llar bilan taqdim etdilar. Tugunlar va ular orasidagi bog'lanishlardan iborat tarmoq. Har bir slot kontseptsiyani ifodalaydi. Yuqori darajalarda ramka bilan ifodalangan vaziyatga nisbatan doimo amal qiladigan tushunchalar mavjud. Ular majburiy ramka komponentlari deb ataladi. Va bu shaklda ko'rsatilmagan uyalar strukturaning quyi darajalarini tashkil qiladi va ixtiyoriy komponentlar deb ataladi, ular ham bevosita, ham aniq ko'rsatilishi mumkin. Har bir slot o'z vazifalari bajarishi kerak bo'lgan shartlarni o'rnatishi mumkin (masalan, vazifa - bu shaxs, ma'lum o'lchamdagi ob'ekt). Maqola muallifining fikricha, bu nazariya talabalarga umumiy lug'at va xususan, terminologik lug'atni o'rgatishda qo'llanilishi mumkin. Til hamjamiyati tomonidan umumiy ma'noning umumiy kontseptual asoslariga asoslangan til birliklarining sintaktik xatti-harakati. Ma'ruzachi ma'lumotni tushuntirishi mumkin, ammo ramka xotiradan tegishli stsenariyni chaqirib, vaziyatni ko'rsatishga imkon beradi [3].

Olingan natijalar. Turli tadqiqotchilar ramka tuzilishini turli yo'llar bilan taqdim etdilar. Tugunlar va ular orasidagi bog'lanishlardan iborat tarmoq. Har bir slot kontseptsiyani ifodalaydi. Yuqori darajalarda ramka bilan ifodalangan vaziyatga nisbatan doimo amal qiladigan tushunchalar mavjud. Ular majburiy ramka komponentlari deb ataladi. Va bu shaklda ko'rsatilmagan uyalar strukturaning quyi darajalarini tashkil qiladi va ixtiyoriy komponentlar deb ataladi, ular ham bevosita, ham aniq ko'rsatilishi mumkin. Har bir slot o'z vazifalari bajarishi kerak bo'lgan shartlarni o'rnatishi mumkin (masalan, vazifa - bu shaxs, ma'lum o'lchamdagi ob'ekt). Maqola muallifining fikricha, bu nazariya talabalarga umumiy lug'at va xususan, terminologik lug'atni o'rgatishda qo'llanilishi mumkin.

Olimlar har doim chet tilini o'zlashtirishda chet el lug'atini o'zlashtirishning alohida o'rni borligini ta'kidlab kelishgan. Til o'rganish so'zlarni to'g'ri tushunish va ishlatishga o'rgatish bo'lib, u fikrning predmet mazmuni, nomlash uchun xizmat qiladi. Nutq nutqining ma'no tashuvchisi nutqning rasmiy grammatik jihati emas, balki leksikadir, chunki nutqning mantiqiy va tematik izchilligi aynan leksikada amalga oshiriladi. Leksik jihatni o'rgatishda u lug'at ustida ishlashning uch bosqichini ajratadi:

1. Kirish bosqichi, bu davrda yangi so'zning paydo bo'lishi va uning dastlabki takrorlanishi.
2. Stereotiplashtirish vaziyat bosqichi - bir xil turdagi nutq vaziyatlarida belgilangan chegaralar doirasida dasturiy leksik nutq aloqalarini o'rgatish va yaratish bosqichi.
3. O'zgaruvchan vaziyat bosqichi — dinamik leksik bog'lanishlar hosil qilish bosqichi [5].

Muallif talabalarga lug'atni o'rgatishda quyidagi bosqichlarda foydalanish mumkin, deb hisoblaydi: leksik birliklarni semantikashtirish, leksik birliklarni birlashtirish malakasini rivojlantirish va nutq faoliyatining mahsuldor turlarini o'rgatishda o'rganilgan lug'atdan nutqda erkin foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish. So'zning lug'aviy ma'nosi diqqatni alohida elementlarga qaratish orqali bilim doirasi bilan bog'liq bo'lgan ma'lum bir sahnani bildiradi. Ilgari ma'lum bo'lgan so'zlar kontekstiga yangi so'z kiritish orqali bu so'zning boshqa so'z bilan emas, balki tushuncha bilan assotsiatsiyasini yaratishni ta'minlaydi. Semantizatsiya jarayonida strukturalarning ishtiroki funktsional darajada turli xil ma'nolarni shakllantirish usullarini tushuntirishga yordam beradi va bu nazariyadan keyingi foydalanish istiqbolidir.

Xulosa. Inson tafakkuri uning xotirasida turli xil atamalarning moddiylashtirilgan ulkan to'plamining mavjudligiga asoslanadi, tushunish jarayoni tegishli nazariyani tanlash va uni hozirgi vaziyatga moslashtirish bilan birga keladi va til birliklari buning faqat lingvistik timsolidir. kontseptual tuzilma. Yangi materialni taqdim etish shakli, chunki u lingvistik va ekstralingvistik bilimlarni birlashtiradi. Materialni taqdim etishning bunday usuli talabalarda kognitiv qiziqishni oshiradi. Ba'zi uslubiy ishlanmalarda, masalan, "Everyday English". Lug'at leksik-semantik maydon shaklida taqdim etiladi, bu esa ma'lum darajada. U nafaqat vertikal, balki gorizontall tuzilishga ham ega. Ushbu struktura faqat ma'lum bir tartibda ro'yxatga olinishi mumkin bo'lgan ramkaning tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabatlar bilan tavsiflanadi.

Og'zaki va yozma ravishda o'zlarining batafsil bayonotlarini qurishni o'rganish asosida. Bu usuldan talabalar konferensiyalarida ma'ruzalarni tayyorlash, referatlar va kurs ishlarini tayyorlashda foydalanish mumkin. Talabalar mustaqil ravishda yoki o'qituvchi yordamida ma'lum bir mavzu bo'yicha taqdimot tuzadilar. "Qishloq xo'jaligi atamallari" mavzusi doirasida, masalan, quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: Shuning uchun lug'at o'rgatishda ramkalar nazariyasidan foydalanish qiziqish uyg'otadi va keyingi tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. (amaliy qo'llanma) – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.-455 b.
2. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish (Darslik)-Toshkent: Cho'lpon, 2013.
3. Lutfullayeva D. Mustaqillik davri rasmiy-idoraviy ish uslubi taraqqiyoti. (Monografiya.)-Toshkent, 2020.
4. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2017.
5. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 7-fevraldagi farmoni.
7. Imamova T., Tuxvatulina L. Ish qog'ozlari qanday yoziladi? - Toshkent, 1992
8. Tojiyev Y., Hasanova N., Tojimatov, Yo'ldosheva O. O'zbek nutqi va uslubiyat asoslari. - Toshkent, 1994.
9. <https://lex.uz/docs>
10. <https://sahifa.tj/uzbeksko-russkij.aspx-Uzbekskogo-russkiy-perevodchik>.
11. <https://library.ziyonet.uz/-ta'lim-portali>

UO'K 37.02

JISMONIY TARBIYA VOSITALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH SALOMATLIK GAROVI

I.T. Xasanov, dots., Termiz Davlat universitetining Pedagogika instituti, Termiz

Annotatsiya. Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport sohasida davlatimiz va xukumatimiz tomonidan yaratilgan shart sharoitlar hamda jismoniy tarbiya vositalari orqali ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan sport tadbirlari va uning ahamiyati haqidagi fikrlar atroflicha tahlil etilgan. Jismoniy tarbiya vositalarining inson salomatligidagi o'rni haqidagi ma'lumotlarni olish uchun bu maqola muxim manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Tezkorlikni, epcillikni, egiluvchanlik, kuchni, chidamlilikni mashq, texnika, taktika, metod.

Аннотация. В данной статье приводится подробный анализ условий, созданных государством и правительством в сфере физической культуры и спорта, а также взгляды на значимость спортивно-массовых мероприятий, организуемых в образовательных учреждениях средствами физической культуры. Эта статья является одним из наиболее важных ресурсов для изучения роли физической активности в здоровье человека.

Ключевые слова: Упражнение на ловкость, ловкость, гибкость, силу, выносливость, технику, тактику, метод.

Abstract. This article provides a detailed analysis of the conditions created by the state and the government in the field of physical culture and sports, as well as views on the importance of sports

events organized in educational institutions by means of physical culture. This article is one of the most important resources for studying the role of physical activity in human health.

Keywords: *Exercise for dexterity, dexterity, flexibility, strength, endurance, technique, tactics, method.*

Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, yosh avlod qalbiga va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish, ongini yuksaltirish, dunyoqarashini va bilim doirasini kengaytirish, barkamol inson qilib voyaga yetkazish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ham Respublikamizda ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'limning samaradorligini oshirish borasida juda ko'plab ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi siyosiy va iqtisodiy sohalar bilan bir qatorda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, uni zamon talabi darajasiga ko'tarish uchun O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 8-moddasida: "Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi.

O'zbekiston Respublikasining davlat va jamiyat taraqqiyotida e'tibor qaratilgan barcha sohalar singari jismoniy tarbiya va sportga ham alohida e'tibor qaratildi. Mamlakatimiz yoshlarini ma'nan etuk, aqlan sog'lom, jismonan barkamol va vatan himoyasiga munosib etib tarbiyalash jismoniy tarbiyaning bosh maqsadlaridan etib belgilandi. Jismonan barkamol avlodni tarbiyalash, ularni avvalo jismoniy tarbiya va sportga qiziqtirish hamda targ'ibot ishlarini olib borish buning uchun asosiy vazifalardan biri etib belgilandi. Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonun (1992,2000,2015yy), Bolalar sportini rivojlantirish (2001y) to'g'risidagi, Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish to'g'risida (1997y)gi qarorlarning qabul qilinish va ijrosi aynan shu yo'nalishlarni belgilab qo'ygan edi. So'ngi yillarda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish maqsadida Prezidentimizning 2021-yil 6-apreldagi PF-6199-son qarori bilan Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi negizida Turizm va sport vazirligining tashkil etilganligi fikrimiz isbotidir.

Inson salomatligi va yosh avlodni tarbiyalashda jismoniy mashqlar, mexnat, tegishli kun tartibi va tabiatning tabiiy omillaridan foydalanish yoshlarni jismoniy tarbiyalash vositalari hisoblanadi. Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiyasining asosiy vositasi jismoniy mashqlardir. Jismoniy mashqlar o'quvchi va talabalarda harakat malakalari va ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq vazifalarni xalq etadi, harakat apparatining rivojlanishiga yordam beradi, qon aylanish va modda almashishini yaxshilaydi, nafas olishga ijobiy ta'sir etadi. Ta'lim muassasasidagi jismoniy tarbiyaga oid amaliy ishlarda qo'llaniladigan harakatlar tezkorlikni, ephillikni, egiluvchanlik, kuchni, chidamlilikni rivojlantiradi va kishining yurish, yugurish, sakrash, muvozanat saqlash, uloqtirish, tirmashib chiqish kabi tabiiy harakatlarni to'g'ri bajarish ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Jismoniy mashqlarni to'g'ri qo'llashda mashqlarni tanlash va ularni o'tkazish uslubiyati katta ahamiyatga ega.

Jismoniy mashqlar harakatlariga o'rgatish jarayonining bir qismida ham shuningdek yaxlit jarayonda ham ishtirok etadi. O'yin va musobaqalar tarkibida jismoniy mashqlar mavjud bo'lib, bolalarni jismoniy rivojlanish hamda jismoniy fazilatlarini takomillapggirishni amalga oshiradi. Jismoniy tarbiya mutaxassislari yosh avlodni jismoniy tarbiyalash va jismoniy rivojlantirish mexnatga va hayotga tayyorlash hamda axolini sog'lomlashtirish vazifalarini bajaradilar. Shuning uchun ular o'z soxalarini etuk mutaxassislari va mohir sportchilar bo'lishlari kerak. Ular jismoniy tarbiya jarayonida harakatlarga o'rgatish, harakat malaka va ko'nikmalarni shakllantirish hamda jismoniy mashqlar texnikasiga o'rgatishda o'zlari nazariy va amaliy jihatdan yuksak darajada tayyorgarligi bilan o'rnak bo'lishlari kerak. Shu bilan birga murabbiy mutaxassislar axloqiy va ma'naviy etukligi shug'ullanuvchilarga xar qanday yordamga tayyorligi ularda iroda va ruxiy fazilatlarini tarbiyalashda moxir do'st ekanligi bilan ajralib turishlari kerak.

Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiyani yo'lga qo'yish shakllari orasida darsdan tashqari ishlar shakli katta ahamiyatga egadir. Darsdan tashqari ishlar o'quvchi va talabalar jismoniy

tarbiyasini olib borishda, ularni jismoniy jixatdan har tomonlama rivojlanishlarini yo'lga qo'yish va yoshlar sportini taraqqiy ettirishda, shuningdek umuman ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshilashda yordam bermog'i kerak. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun o'quvchi va talabalar jismoniy tarbiya jamoa to'garaklariga ommaviy ravishda jalb qilinadi, barcha o'quvchi va talabalar bilan jismoniy tarbiya va sportga doir ommaviy tadbirlar o'tkaziladi.

Jismoniy tayyorgarlikni nazorat qilishga tayyorlanish va topshirish ishlari olib boriladi, jismoniy tarbiya bayramlari, sport musobaqalari, o'yinlar, poxodlar, ekskursiyalar o'tkaziladi. Ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalar, ularning ota-onalari va o'qituvchilari o'rtasida jismoniy tarbiya hamda sportni targ'ibot va tashviqot qilishga oid ishlar olib boriladi. Ta'lim muassasasi jismoniy tarbiya va sport jamoasi mmaviy sportning asosiy tashkiliy shaklidir. Jismoniy tarbiya jamoalari o'quvchi va talabalarining xavaskorlik tashkiloti bo'lib, ta'lim muassasasi va jismoniy tarbiya o'qituvchisining raxbarligida ish olib boradi. Jismoniy tarbiya jamoani, agar uning a'zolari kamida 25 o'quvchi yoki talabadan iborat bo'lsa, uyushgan jamoa hisoblamoq lozim.

Jismoniy tarbiya jamoaning hamma o'quv-sport ishlari o'quvchilarning sport turiga qiziqishlarini hisobga olish asosida sport turlari va umumiy jismoniy tayyorgarlik to'garaklarida olib boriladi. To'garaklarda jismoniy tarbiya faoli sport turlaridan xakamlar, jismoniy tarbiya o'qituvchisiga yordam beruvchi jamoatchi instruktorlar tayyorlaydi. Ta'lim muassasasida jismoniy tarbiya jamoasida engil atletika, gimnastika, suzish va sport o'yinlari to'garaklari etakchi to'garaklar bo'lmog'i kerak. Yengil atletika va sport o'yinlarini taraqqiy ettirishga aloxida e'tibor berilmog'i lozim. Ko'pchilik ta'lim muassasalarida gimnastika zallari va tegishli asbob-anjomlar asosida tashkil qilinmog'i darkor. Qanday to'garaklar tashkil etish kerakligi haqidagi masala xar bir ta'lim muassasasining mavjud sharoitini hisobga olgan holda xal qilinmog'i darkor. Sport turlari bo'yicha to'garaklar faoliyati ta'lim muassasasining sharoitlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Sport ishlarini yo'lga qo'yish ishiga ta'lim muassasasi rahbari raxbarlik qilishi katta axamiyatga egadir. Ta'lim muassasasi rahbari bu ishlarni amalga oshirish uchun kerakli sharoit yaratishi, mashg'ulotlar o'tkaziladigan joy bilan ta'minlashi, kerakli asbob-anjom va jixozlar sotib olishi lozim. Sport va ommaviy jismoniy tarbiyani yo'lga qo'yish hamda o'tkazish ishlariga ta'lim muassasa yoshlar tashkilotlarini, gurux raxbarlarini, butun pedagoglar jamoasini va maktab vrachini jalb etish darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947- сонли Фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг билан “Жисмоний тарбия ва спорт вазирлиги” ҳамда “Туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси негизда Туризм ва спорт вазирлигининг ташкил этиш тўғрисида”ги 2021-йил 6-апрелдаги ПФ-6199-сон қарори.

3. Abdullaev A.A., Xonkeldiev SH.H., Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati, darslik, Farg'ona, 2001.

4. Xasanov Ilyos To'ychievich., “Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi” (I-qism) darslik. “KITOB NASHR” Termiz-2021

5. Xasanov Ilyos To'ychievich., “Bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va texnologiyasi” O'quv qo'llanma. “KITOB NASHR” Termiz-2021

UO'K 37.02

BOSHLANG'ICH SINFLAR ONA TILI VA O'QISH DARSLARIDA AXBOROT- RESURSLARI INTEGRATSIYASI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

J.O'. Xurramov, magistrant, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Denov

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim xususan, boshlang'ich ta'limda axborot-resurs integratsiyasi haqida so'z boradi. Mamlakatimizda shu kungacha qator ishlar amalga oshirilgan. Ta'lim jarayonida turli hil mantiqiy tizimlar orqali o'qituvchi va u bilan birgalikda o'quvchilar o'z bilim, qobiliyat va ko'nikmalarini deduksiya, induksiya, sintez, umumlashtirish, konkretlashtirish, taqqoslash shaklida ifodalaydidar. Barcha mantiqiy jarayonlar uslubning mazmun bilan uzviy bog'langan ichki tomonini tashkil qiladi. Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayoni foydalanilayotgan usul, uslub va shakllarining turli tumanligi bilan ajralib turadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangi o'quv rejalari va dasturlariga o'tish

davrida jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi aloqalarni uyg'unlashtirish, atrof-muhitga jiddiy munosabatni o'rnatish va shakllantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: integratsiya, ta'lim, dastur, davr, tekshiruv, umumiy, ifoda

Аннотация. *Эта статья о управленческом образовании, информационном образовании и политике интеграции ресурсов. На сегодняшний день в нашей стране проведен ряд работ. В процессе обучения через различные логические системы учитель и совместно с учащимися формируют у них дедукцию, индукцию, синтез, конкретизацию, определение, обобщение своих знаний, физических и умений. Организует внутренний контроль, который неразрывно связан с содержанием всех логических процессов. В начальной школе процесс обучения характеризуется разнообразием подвижных приемов, стилей и стилей, разнообразием. Большое значение имеют вопросы гармонизации отношений общества и окружающей среды, установления и формирования серьезного отношения к окружающей среде через переход на новые учебные планы и программы, реализуемые в нашей стране.*

Ключевые слова: интеграция, образование, программа, период, операции, общее, выражение

Abstract. *This article is about management education, information education and resource integration policy. To date, a number of works have been carried out in our country. In the process of learning, through various logical systems, the teacher and together with the students form their deduction, induction, synthesis, concretization, definition, generalization of their knowledge, physical and skills. Organizes internal control, which is inextricably linked with the content of all logical processes. In elementary school, the learning process is characterized by a variety of moving methods, styles and styles, and variety. The issues of harmonization of relations between society and the environment, the establishment and formation of a serious attitude to the environment through the transition to new curricula and programs implemented in our country are of great importance.*

Keywords: integration, education, program, period, operations, general, expression

Didaktik olimlarning tekshiruvlarida uslubning amaliy faoliyat bilan bo'lgani genetik tabiati ajratib ko'rsatiladi. N.N.Skatkin, I.Y.Lerner, Aleksyuk Y.K.Babanskiylarning tekshiruvlarida ta'lim uslublariga taalluqdi ikkilamchi tur belgilarining ta'rifi beriladi. Ular uslub-ifoda, mazmun va ta'lim usuli ekanligi isbotlab berishgan. Gegal falsafadagi uslubni mazmun xarakterining shakli sifatida ko'rsatadi. Atrof-muhitga jiddiy munosabatlarning poydevori boshlang'ich sinflarda o'rgatiladi. Shuning uchun iqtisodiy ta'limning natijasi maktab ta'limining birinchi bosqichiga bog'liq. Yangi psixologik-pedagogik tadqiqotlar kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining bilish faoliyatlari cheklanganligi haqida ilgari tushunchalarni ko'rib chiqishga imkon beradi. Bu boshlang'ich iqtisodiy ta'limining barcha tarkibiy qismlarini o'zgartirish va yangilashga asos yaratadi [20; 11-b.].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga javob beradigan va dars talablariga mos keladigan, maqsadni aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasidir. XIX-XX asrlar oralig'ida pedagogikada kichik maktab o'quvchilarining tabiiy muhit bilan tanishtirishning integratsiyalangan kursini yaratish fikri paydo bo'lgan. Bu fikr A.Y.Gerd, D.N.Kaygorodov, A.P.Pavlov nomlari bilan bog'liq bo'lib, ular boshlang'ich maktabga atrof-dagi jonli va jonsiz dunyo hakidagi bo'linmagan kursni kirgizishni talab qilishdi. Integratsiyalashgan ta'lim-tarbiya, fanlararo aloqalarning ayrim jihatlari mashhur pedagoglarning (Y.Komenskiy, D.Lokk, I.Gerbart, M.Pestalotssi, K.Ushinskiy va boshqalar), didaktiklarning (I.D.Zverev, M.A.Danilov, V.N. Maksimova, S.P.Baranova, N.M.Katkina va boshqalar) psixolog olimlarning (E.N.Kabanova, Meller, N.F.Talizina, Y.A.Samarina, G.I.Vergeles), metodist olimlarning (M.R.Lvov, V.G.Goretskiy, N.N.Svetlovskaya, Y.M.Kolyagin, G.N.Pristupova) ishlarida ko'rib chiqilgan. Bir qator ishlar boshlang'ich ta'limdagi fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarga bag'ishlangap. Bu muammolar o'quv fanlarinn integratsiyalashga o'tishning yaqin rivojlanish zonasidir (T.G.Raizayeva, G.N.Akvileva, D.I.Troytap, G.V. Balyukova, N.Y.Velenkin, N.M.Drujnina, T.S.Nazarova, I.K.Blinova, R.G.Matyushova). Boshlang'ich maktab fanlarining integratsion aloqalari kam ishlab chiqilgan, qarama-qarshi ifodalangan. Bu aloqalarning mohiyati haqida olimlar orasida qarama-qarshiliklar ko'p Integratsiya atama va uslubiy nuqtaiy nazardan hodisa sifatida nima ekanligani ko'rib chiqaylik. «Intergratsiya» so'zi lotincha integratio-tiklash, to'ldirish, «integer» butun so'zidan kelib chiqqan. Ikkita tushunchaga egamiz:

1. Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik xolatini bildiruvchi tushuncha va shu xolatga olib boruvchi jarayon.

2. Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yetti yoshidan qabul qilinadi.

«Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik bepul tayyorlash tajriba guruhlarini faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida»gi Nizom bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik bepul tayyorlash tajriba guruhlarini faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi. Tajriba guruhlarini maktabgacha ta'lim muassasalariga bormaydigan bolalarga maktabgacha ta'lim va tarbiya olishda yordam berish, buning uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida tashkil etiladi. Tajriba guruhlarini maktabgacha ta'lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi va quyidagilar ularning asosiy vazifalari hisoblanadi:

bolalar har tomonlama aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy kamol topishi uchun davlat talablariga muvofiq va ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda shart-sharoitlar yaratish;

bolalarning sog'lig'ini muhofaza qilish va mustahkamlash;

bolaning aqliy, shaxsiy va jismoniy kamol topishini ta'minlash;

bolalarni milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish;

o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

bola shaxsining asoslarini shakllantirish, unda bilimga qiziqishni rivojlantirish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi va Milliy markazning asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O'zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etish;

ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish;

ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etish;

ta'lim sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish;

ta'lim sifatini baholash bo'yicha tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;

xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg'or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo'llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish;

o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash [7].

Boshlang'ich sinflarda inobatga olinishi lozim bo'lgan jihatlar:

«Tarbiya» fani orqali o'quvchilarda ma'naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalarni ta'lim mazmuniga keng singdirish;

o'quv fanlari doirasidagi ma'naviy tarbiya indikatorlarini amaliyotga joriy etish, ularni amaliyotda qo'llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq va topshiriqlar bilan boyitish (ma'naviy-axloqiy kompetensiyalar);

muvaffaqiyatga erishishga intilish motivining shaxs ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlanishi;

Integratsiya kursi - o'quv fanlaridan biri bo'lib, fanlararo bilimlarni (integrativ bilimlarni) chuqurlashtirish va oshirish, ularni shakllantirish uchun o'rganiladi. U har xil turlar, usullar, uslublar, fanlararo integratsiya obektlari asosida tuzilgan. Integratsiya kurslarining sinflarga bo'linishini turli asoslarda qilish mumkin:

maqsad va muammolar asosida;
 maktab tabiiy-ilmiy tizimidagi vazifalari asosida;
 qo'shiluvchi fan tarmoqlari asosida;
 integratsiya usullari va yo'llari asosida;
 o'quv rejasidagi o'rni asosida;
 kursni o'rganishga sarflangan vaqt asosida;
 o'quvchilar uchun qiyinlik darajasi asosida va h.k.

Shuni e'tiborga olamizki, bu kurslarning mualliflari odatda o'z oldilariga bir necha maqsad va muammolarni yechish masalasini qo'yadilar, shu sababli kurslar ko'p maqsadli, turli vazifali bo'ladi. Ko'p miqdordagi dasturlar va ularni tadbiq etishga urinishlarni ko'rib chiqib, biz bu kurslar qurilishining asosiy yo'nalishlarini ajratishimiz va ularni mohiyatiga qarab sinflarga bo'lishimiz mumkin.

Integrativ ta'limning sinflarga bo'linishi (klassifikatsiya). Ko'p fanlar integratsiyasi. Ularni yana universal yoki bir necha asosiy tizim kurslarini almashtiruvchi umumiy deb ham atash mumkin. Masalan, o'qish, tabiat, rasm darslarini bitta umumiy darsga birlashtirish.

Odatda, bunday kurslarning mualliflari tabiiy fanlar materiallarini birlashtirib, ularni bir ma'lum tizimga keltirishadi va o'z kurslarini integrativ yoki kompleks (umumiy) deb ataydilar. Ko'rinib turibdiki, boshlang'ich ta'lim tizimidagi tabiiy fanlar materiallarini berishda to'g'ri ketma-ketlikka faqat darslar tuzilishini saqlab qolibgina erishish mumkin. Ba'zi e'tiborli olimlar ta'kidlaydilar, bu an'anaviy maktablarda ham tabiiy fanlarni ketma-ket o'rganish yo'li bilan ham hal qilinmoqda. Bir qator olimlar boshlang'ich ta'limga ham darslarga ajratib o'qitish an'analari tarqalgan deb hisoblaydilar.

Tabiiy fanlarni o'qitishning tizim bo'yicha davom ettirishni bekor qilish va soddalashtirish uchun ko'pgina mualliflar gumanitar sinflar uchun umumlashtirilgan kurslar (darslar) taklif qiladilar. Bularga umumiy tushunchalar beruvchi, bolalarda tabiiy fanlarni o'rganishga qiziqish uyg'otish vazifasini bajaruvchi, tabiat haqida qiziqarli ko'rinishda hikoya qiluvchi boshlang'ich tabiiy fanlar kurslari (masalan, boshlang'ich sinflardagi «Tabiatshunoslik») kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикасининг Таълим тўғрисида Қонуни // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 2-29.
2. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 31-61.
3. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-4947-сон Фармони. 2017 йил 7 февраль.
4. Халқ таълимини бошқариш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5538-сон Фармони. 2018 йил 5 сентябрь.
5. Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5712-сон Фармони. 2019 йил 29 апрель.

УЎК 001.1

МИШЕЛЬ МОНТЕН “ТАЖРИБАЛАР” АСАРИДА “ИНСОНПАРВАРЛИК” ТАРБИЯСИДАГИ ЛЕКСЕМАЛАРНИНГ ПАРАДИГМАТИК ТАҲЛИЛИ Г.Ш. Абсаламова, ассистент, Тошкент давлат аграр университети Самарқанд филиали, Самарқанд

Аннотация. Ушбу мақолада XVI асрда яшаб ижод этган франсуз мутафаккири Мишел Монтен “Тажрибалар” асарида “инсонпарварлик” тарбиясидаги лексемаларнинг парадигматик таҳлили, ўша даврда фойдаланган сўзлари унинг мазмун жиҳатига ва бугунги кунда ҳам долзарблиги аҳамиятига тўхталамиз.

Калит сўзлар: инсонпарварлик, қалб, дўстлик, сеvgи, овқатлантириш, виждон, яхшилик, қувонч, эркинлик.

Аннотация. В данной статье французского мыслителя XVI века Мишеля Монтена «Опыты» основное внимание уделяется парадигматическому анализу лексем в «гуманистическом» образовании, значению слов, которые он использовал в то время, и их актуальности сегодня.

Ключевые слова: человечество, сердце, дружба, любовь, питание, совесть, добро, радость, свобода.

Abstract. In this article, the 16th-century French thinker Michel Monten's "Experiments" focuses on the paradigmatic analysis of lexemes in "humanistic" education, the meaning of the words he used at the time, and their relevance today.

Keywords: humanity, heart, friendship, love, nutrition, conscience, goodness, joy, freedom.

“Тажрибалар” асарида инсонпарварликни улуғловчи лексмаларнинг “Оила ва фарзанд тарбияси”даги муҳим аҳамият касб етувчи сўзларнинг парадигматик қаторини, синонимлик ҳолатларини кўриб чиқамиз.

Humanité женской род оти инсонпарварлик, одамгарчилик, одамийлик, инсонийлик, мурувват каби ўзбек тилида таржималари мавжуд. “Тажрибалар” асарида 19 мартаба ушбу сўз қўлланган.

Фазилат таснифида келаётган навбатдаги *âme*- қалб, кўнгил, женской род оти “Тажрибалар” асарида бирлик шаклида 462 марта, кўплик шаклида 92 марта қўлланилган. Рақамларнинг юқорилиги асарда киши таърифида Монтен одатда фикрлари ва мулоҳазаларида етакчилардан ушбу сўзни қўллагани кўринади. Айтиш мумкинки, у умумий ва универсаллашган “*moi*” менни англатади. Монтенда прогнозлаш ва режалаштириш хатти-ҳаракатнинг энг муҳими қалб фалсафасига қаратилганлигидир. Дастлаб провансал диалектида *anima, arma*; испан ва италян тилларида *alma; anima* кўринишида илк маънолари нафас, шамол, ҳаёт, қалб, руҳ маъносида қўлланган. Бунда биз бу сўзнинг фақат шамол маъносини саклаб қолган юнонча *ánemos* билан ўхшашлигини кўрамиз; анима ва *ánemos* санскрит тилидаги нафас олишга асосланган. Бу моддий объектларга нисбатан қўлланиладиган мавҳум сўзлардан қандай қилиб олинганлигини кўрсатади. Баъзи қадимий матнларда *anema* фақат уч бўғинли сўздир; шеърий ўлчовда эса фақат икки бўғин бўлганлигини исботлайди; бундай имло архаизм бўлиб, лотинча шаклини кўпроқ эслатади. *Amitié*- дўстлик; женской род, от сўз туркумига мансуб. “Тажрибалар” асарида муаллиф бу сўзни 114 марта ишлатган. Бошқа сўз туркумлари билан келишини кузатадиган бўлсак *determinative+nom, verb+prepositions+nom, adjective+nom, nombre+nom, adverb+nom* поғонасида келмоқда. Дўстлик эссеист онгида ихтиёрий мажбурият сифатида нутқида катта аҳамият касб этади. (V.Lugli, Florence, 1935) Монтен жалб қилишни ёқтиради, айниқса унинг дўстлик тажрибасини классик мисоллар қаторига қўшишни яхши кўрганлиги ва бу идеал дўстлик туфайли юзага келган ҳақиқий ҳис-туйғуларни ёзганларидан англаш мумкин. “*Amitié*” сўзи XVI-асрда оддий ижтимоий ёки сиёсий бирлашмалардан тортиб энг яқин дўстликгача, ҳатто аёл ва эркак яқинлигига қадар ҳар қандай ҳамдардлик муносабатларига тегишли бўлган. Тадқиқотимиз жараёнида Монтен “*amitié*” атамасини кўпликда ишлатганда у кўпинча заиф маънода қўллаганлигини, чунки мустаҳкам дўстлик фақат битта мавжудот билан эканлигини кўрсатиб берганини аниқладик.


УЎК 394.2

ДЕҲҚОНЧИЛИК БАЙРАМЛАРИ ХАЛҚИМИЗ ТАФАККУРИНИНГ НОЎБ МЎЪЖИЗАСИ (БУХОРО ВОҲАСИ МИСОЛИДА)

Н.А. Жумаева, катта ўқитувчи, Бухоро Давлат Университети, Бухоро

Аннотация. Мақолада Бухоро воҳаси зироатчиларнинг қадимий-диний культлар билан боғлиқ урф-одат ва маросимлари манбалар ва дала маълумотлари асосида таҳлил этилади.

Калит сўзлар: урф-одат, культ, деҳқончилик, фаришталар, Наврўз байрами, оташпарастлик, ҳосилдорлик, мифология, олов.

Аннотация. В статье анализируются обычаи и традиции земледельцев Бухарского оазиса, связанные с древними религиозными культами на основании источников и полевых данных.

Ключевые слова: обычаи, культ, земледелие, ангелы, праздник Навруз, поклонение огню, урожайность, мифология, огонь.

Abstract. Article deals with the analyses of the traditions and customs of farmers in Bukhara oasis connected to the ancient religious cults based on the sources and field data.

Key words: Tradition, cult, farming, angels, Navruz holiday, fire-worshipping, harvest, mythology, fire

XIX асрнинг охири - XX асрнинг бошларида Бухоро воҳасида ҳосилни янчиш ва хирмон кўтариш билан боғлиқ бир қатор урф-одатлар ва маросимлар ўтказилган. Дала ёзувларининг гувоҳлик беришича, бундай одатлар ва маросимларда халққа хос бўлган энг яхши фазилатлар: бағри кенглик, сахийлик, тантилик, чинакам халқчил ва умуминсоний қадриятлар ўз ифодасини топган. Шунини айтиш керакки, воҳа деҳқонлари дала ишларини асосан, маҳаллий

темирчи усталар ясаган бел, кетмон, капча, ўроқ, шоха каби асбоблар билан амалга оширган. Ғаллани ўришда ўроқнинг роли айниқса катта бўлган. XX асрнинг бошларида ҳар бир оила томорқасидаги буғдой ёки арпани ҳеч кимнинг ёрдамисиз ёки 2-3 оила аъзолари бирлашган ҳолда ўришган[1]. Бой-бадавлат кишилар, яъни катта ер зралари ўримга пул эвазига ташқаридан ёрдамчи ишчи кучи таклиф қилган ёки қишлоқдошларини кўмакка, ҳашарга чақирган.

Воҳа деҳқонлари ўримни тугаллаб, буғдойни янчишга ўтар эканлар, бир неча ирим-сирим, урф-одатларни амалга оширганлар. Хирмон жойда янчиш бошланиши олдидан “Чош кўрди” ёки “чош оши” қилинган. Хирмонда мол сўйилиб, қон чиқарилган. Курбонлик килиш ёхуд Хизр, Бободехқонга атаб ис чиқариш пайкал аъзолари ёки якка шахс оиласи томонидан амалга оширилган[2].

“Чош оши”, “хирмон оши”га хирмонга жой ҳозирлаётганлар (тайёрлаётганлар), оқсоқол, мироб ва бир неча хурматли кексалар таклиф этилган. Шу атрофдан ўтаётган йўловчилар ҳам ошга чакирилган. Таом (шўрва, палов) еб бўлингач, дин пешвоси. мабодо у қатнашмаётган бўлса. оқсоқоллардан бири “Қуръон”дан суралар ўқиб, Оллоҳдан чошга, хирмонга барака тилаган[3].

Янчиш ишлари одатда отлар ёки хўкизлар билан амалга оширилган. Ғалласи кам хўжалик (оилалар) аъзолари буғдойни “кўлғоч”, “калтак “тўқмоқ” ва баъзан эшаклар ёрдамида янчганлар. Хирмон жойда ҳайвонлар воситасида бажариладиган ишлар “хўп” деб аталган.

Хирмон жойдаги янчиш ишлари қисқа муддатлик бўлмаган. Баъзан уч-тўрт кунга чўзилиб кетган. Хирмонлаги деҳқонлар зерикарли оғир ишни кўшиқ айтиб енгишган. Янчиш вақтида “хўп ҳайда”, “майдаё-майда”, “Хўп кўшиқлари”, “Майдагул” сингари оммавий термалар ижро этилган. Кўшиқ матни ва оханги ғалағовчининг фаолиятига боғлиқ бўлган. У хурсанд бўлса, кўшиқлар матни ҳазил-ҳузуддан иборат бўлган. У ишлаб толиққан бўлса, кўшиқ оханги мунгли бўлган. Ғалағовни бошқараётган деҳқон ёз бўйин минг машаққат билан етиштирган буғдойни тезроқ янчиб олиш истагида бўлган:

Сенинг энанг сийирдир, майдаё-майда,
Сени хўпга буюрди, майдаё-майда.
Тошдек туёғинг бугун, майдаё-майда,
Сени хўпга уюрди, майдаё-майда.
Хирмонда бўлиқ буғдой, майдаё-майда,
Барака берсин худой, майдаё-майда.
Ишимизни кўрсатсак, майдаё-майда,
Қозонда қайнайди мой, майдаё-майда.

Бир қатор фольклор материалларига, “янчиқ кўшиқлари” деб аталадиган бундай айтимлар қайсидир жиҳати билан этнографик материалларни тўлдирди. Шу боисдан ҳам биз уларни баъзи ўринларда тўлалигича келтиришга қарор қилдик.

“Майдаё-майда” айтими тожикларда “майдо”[4], кирғизларда эса “оп майда” [5] термини билан ифодаланади. Кексаларнинг хотирлашича, янчиқ кўшиқларидаги илк “майдаё-майда” айтими деҳқончиликнинг пири Бободехқонга бағишланади. Кейинги бандларда эса деҳқон ғалағовга ишнинг унумли-ю сифатли бўлишини уқтиради. Ишлар яхши кетса, ғалағовдаги ҳайвонлар дадил ҳаракат килса, донлар мўл-кўл бўлиб, сомони кам бўлса, шодланишини таъкидлайди:

Бошгинангни сийрак¹ қил, майдаё-майда.
Қадамингни бийрак² қил, майдаё-майда.
Донлар оқсин шовуллаб, майдаё-майда,
Похолини сийрак қил, майдаё-майда.

¹Ўйнатмоқ

²Катта-катта

Янчиш даврида дехқон ўзининг энг яқин кўмакчиси бўлган ҳайвонга умид кўзи билан қараган. Уларнинг бажараётган ишлари энгил эмаслигини англаб, оғир ва шарафли ишни энгиллатса, кишштар ҳавас билан бокишини айтиб, бундай ҳурматга эришиш учун ғайрат билан ишлашга ундайди:

Майда десам ярашсин, майдаё-майда,
Сомон-донга ажрашсин, майдаё-майда.
Товдай ишингни кўриб, майдаё-майда,
Халойиқлар қарашсин, майдаё-майда.

Гоҳида буғдой салгина кам бўлса, донни ажратиш анча қийин бўлган. Дехқондан ҳам, ғалағовдан ҳам кўп меҳнат талаб қилган. Ўшандай пайтда дехқон дон ажралмаслигини ҳайвонларнинг секин ҳаракатидан деб билган ва бундан ранжиб ғалағовга қаттиқ-қаттиқ гапирган:

Майда десам мойбосар, майдаё-майда,
От ўрнини той босар, майдаё-майда.
Сенинг калин терингни, майдаё-майда.
Этик қилиб бой босар, майдаё-майда.

Ғалағовчи айтаётган термаларнинг мотиви алмашилиб турган. У ҳайвонларга гоҳ қаттиқ гапирса, гоҳ уларга илиқ сўз айтиб, муомаласини ўзгартирган:

Туёққинанг тиллаё, майдаё-майда,
Ўри-қирда чиллаё, майдаё-майда.
Бул майдонни дон қилсанг, майдаё-майда,
Ях сув ичар паллаё, майдаё-майда.

Назаримизда, дехқон ҳайвонга мурожаат қилиш жараёнида ўзининг хоҳишлари, истакларини ҳам айтган. Чунки ёз чилласида тепадан иссиқ уриб турганлиги боис сомон устида ғалағов билан бирга ҳаракат қилиш анча мушкул бўлган.

Донлар оқса сирғалиб, майдаё-майда,
Бойлар келса ирғалиб, майдаё-майда.
Пешонангии силаса, майдаё-майда,
Менамас-а сен ғолиб, майдаё-майда.

Демак, бойлар майдондаги ишларнинг натижаси кўпроқ ҳайвонларнинг кучига, ҳаракатига боғлиқ, деб ўйлашган. Бой бува бўлиқ ва сара донларни ўргач, хурсандчилигидан дехқоннинг эмас, ҳайвонларнинг пешонасини силаган. Ғолибга бериладиган бу мукофот тинимсиз меҳнат қилган ғалағовчига гоҳида насиб қилган, гоҳ эса йўқ:

Хизматкорга балли деб, майдаё-майда,
Оғзин мойга қорисин, майдаё-майда.
Дон сомондан ариса, майдаё-майда.
Дехқонбува дорисин, майдаё-майда.
Ўнгарлари судралиб, майдаё-майда.
Чошга белбовлар бўлсин, майдаё-майда.
Эрта туриб қарасак, майдаё-майда,
Донимиз товлар бўлсин, майдаё-майда.

Дехқон далага қадам босар экан, Дехқонбобони тилга олган. Ундан ишга барака тилаган. Қўшда ҳам, она буғдой уруғини сочишда ҳам ундан мадад сўрашган. Биз буғдой янчиш билан боғлиқ кўшиқларни ўқир эканмиз, уларда ҳам Дехқонбобо тимсоли акс этганлигини кўрамиз. Майдон теварагида ишлаётган ва ғалағовни бошқараётган кишилар ўз ҳомийси, яъни меҳнатларига унум кўшувчи пирларига ишонишган. Бободехқон сахар вақти, яъни тангри одамларга ризқ улашадиган пайтда хирмонда ҳозир бўлиб, уни турли ёвузликлардан асрайди, донларнинг сочилиб тупроққа қоришиб кетишига йўл қўймайди деб ўйлашган. Бободехқон тонг сахарда хирмон кўргани келади. Мабодо, яхши назар солса, донлар кўпайиб, похол камаяди. Ҳосилнинг баракаси ошади деб тушунишган. Шу боисдан ҳам меҳнат кўшиқларида Бободехқонни чақириш мотивлари бор.

Атрофга сочилган, тупроққа араллашиб қолган донларни дехқонлар супуриб тўдалашган. Буни зироатчилар “хирмонтаги” деб аташган[6]. Дехқон барчасини йиғиб халтага (қопга)

солгач, чош эгаси ундан бир ховуч буғдой олиб, чош ўрнига сепган. бу “бободехқон ҳаққи” деб номланган. Хирмон тагида қолган тупроқ аралаш буғдойлар қишлоқ имоми ёки эшонга берилган[7].

Мабодо чошдаги буғдой бўлинаётган пайтда бирорта йўловчи чош ёнидан ўтиб колса, “чошга барака” деган. Деҳқон эса унга қарата “умрингизга барака, нондан енг” деб жавоб “қайтарган. Дин пешвоси мўл-кўл дон бергани учун Оллоҳга шукрона айтиб, бободехқон шарафига “Қуръон”дан оятлар ўқиб дуо қилган, ҳамда келгуси йил ҳосилига барака беришни сўраган. Барча кўлини кўтариб омин қилгач, уй-уйларига жўнашган.

Хирмон кўтариш даврида ҳам бир қанча урф-одатларга амал қилинган. Аввало, хирмондаги кишиларнинг яқдиллиги, бамаслаҳат иш тутиши, бир-бирига меҳрибончилиги янчиш жараёнида аматга ошириладиган одатлар, айникса хамминг бир қозон ва дастурхондан биргаликда таом тановул қилиш удумида яққол кўзга ташланади.

Деҳқончилик байрамлари халқимиз тафаккурининг ноёб мўъжизаларидан бири ҳисобланади. Байрамлар негизида деҳқонларнинг янги меҳнат мавсумини бошлаши ва ҳалол меҳнатининг самарасини кўриши билан боғлиқ ишончлари акс этади. Байрамларда кишилар ўртасидаги энг яхши фазилатлар, боболар ҳикматлари, оталар насиҳати, улар мерос қолдирган анъанавий қадриятлар улуғланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Кармышева Б. Х. Об узбекских трудовых крестьянских песнях. - С.73.
2. Богомолова К.А. Следы древнего культа воды у таджиков. - С.114
3. Дала маълумотлари. Жондор тумани, Лоло ҚФЙ. Шоди бобо, 80 ёш.1996.
4. Эҷодиёти даҳанакии аҳоли Кулоб. – Сталинобод, 1956. – С. 165. Намунаи фольклори диёри Рудаки. - Сталинобод, 1958. -Б. 183-185
5. М.И.Богданова. О классификации жанров киргизского фольклора//Тр. Киргизского филиала Академии Наук СССР. Т. 1, в. 1, -Фрунзе, 1943. -С. 150; С.М.Абрамзон, К.И.Антипина, Г.П.Васильева, Е.И.Махова, Д.Сулайманов. Быт колхозников киргизских селений Дархан и Чичкан//Тр. Инст. Этнографии АН СССР, новая серия, т.XV VII. -М, 1958. - С. 293.
6. Дала маълумотлари. Жондор тумани, Лоло ҚФЙ. Шоди бобо, 80 ёш.1996.
7. Дала маълумотлари. Жондор тумани, Лоло ҚФЙ. Шоди бобо, 80 ёш.1996.

УДК 81'373:811.411.21

К ВОПРОСУ О ВОЗНИКНОВЕНИИ РУССКОЙ ШКОЛЫ АРАБИСТИКИ НА ПРИМЕРЕ НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И.Ю.КРАЧКОВСКОГО

З.М. Зайнабидинова, преподаватель, Ферганский государственный университет, Фергана

Annotatsiya. *Maqola akademik I.Yu.Krachkovskiyning ilmiy-tadqiqot faoliyatini yaqindan tahlil qilishga bag'ishlangan. Rus arabshunoslik maktabiga xos xususiyatlar ajratib ko'rsatilgan va tavsiflangan. Muallif akademik Krachkovskiyning nafaqat arabshunoslik, balki qullik filologiyasi rivojiga ham salmoqli hissa qo'shgan ishlarining umumlashtirilgan tavsifini beradi.*

Kalit so'zlar: *arabshunoslik, rus arabshunoslik maktabi, arab-musulmon sivilizatsiyasi, tarjimalar, qo'lyozmalar.*

Аннотация. *Статья посвящена пристальному анализу исследовательской деятельности академика И.Ю.Крачковского. Выделяются и описываются характерные особенности русской школы арабистики. Автор дает обобщенную характеристику о проделанной работе академиком Крачковским которая внесла несущий вклад в развитии не только арабистики, но и арабской филологии.*

Ключевые слова: *арабистика, русская школа арабистики, арабо-мусульманская цивилизация, переводы, рукописи.*

Abstract. *The article is devoted to a close analysis of the research activities of Academician I.Yu.Krachkovsky. The characteristic features of the Russian school of Arabic studies are singled out and described. The author gives a generalized description of the work done by academician Krachkovsky, which made a significant contribution to the development of not only Arabic studies but also slave philology.*

Key words: *Arabic studies, Russian school of Arabic studies, Arab-Muslim civilization, translations, manuscripts.*

Узбекистан является государством, на территории которого еще с древних времен началось развитие науки и культуры. В частности, широкое развитие получили такие науки как астрономия, математика, медицина, химия, история, философия, языковедение, литературоведение, и ремесла - скульптурное мастерство, ткачество, гончарное дело, стеклоделие и др. В настоящее время ученые Узбекистана активно изучают научное наследие, оставленное учеными древности, обогащают науку своими новыми открытиями, внося значительный вклад в развитие мировой науки [1].

По словам президента Узбекистана Ш.М. Мирзиёева решающую роль в прогрессе любого общества играет здоровое и гармоничное развитие молодого поколения, от которого зависит будущее этого общества. Именно поэтому в вопросах расширения и дальнейшего повышения эффективности реформ Узбекистана, делается акцент на энергичную, инициативную, всесторонне развитую, владеющую современными знаниями и навыками молодежь.

Таким образом Узбекистан поставил перед собой великую цель - формирование фундамента нового Ренессанса в нашей стране и с этой целью должны создать среду и условия для воспитания новых Хорезми, Беруни, Ибн Сино, Улугбеков, Навои и Бабуров. Важнейшими факторами в этом историческом процессе, неотъемлемой частью нашей национальной идеи являются развитие образования и воспитания, науки и инноваций, утверждение здорового образа жизни [2].

Немаловажную роль в процессе научных изысканий играет изучение такого научного и образовательного направления как арабистика. Арабистика в Средней Азии имеет свои глубокие истоки, обуславливается она с проникновением ислама в регионы Центральной Азии, со 2 половины 7 века [3].

С этого момента весь Центральноазиатский регион становится частью мусульманской культуры, а ее население активно приобщается к духовным ценностям ислама и достижениям арабо-мусульманской цивилизации. С распространением и укреплением ислама на территории современной Центральной Азии усиливался авторитет арабского языка, как в качестве культового, так и языка науки. Неоценимый вклад в развитии арабистики внес выдающийся востоковед, арабист, исламовед, один из основоположников научной школы русской арабистики академик И.Ю.Крачковский. Он оставил богатейшее творческое наследие, большинство трудов ученого внесли практически равноценный вклад как в филологические, так и исторические науки. Его перу принадлежит более 500 печатных трудов, десятки неопубликованных рукописей, научных докладов, лекций, набросков по арабской поэзии периода «джахилии» [4], средневековой и новоарабской литературе, арабскому литературному языку и его диалектам, истории арабской культуры, ислама, истории отечественного и зарубежного востоковедения, что свидетельствует о многогранном таланте ученого, широте его научных интересов, блестящей эрудиции, редком даровании

Ю. Крачковский родился 4 (16) марта 1883 г. в г. Вильно (Вильнюс) в семье директора Учительского института. Его отец, Юлиан Фомич Крачковский, был деятелем народного просвещения, мать, Анна Анатольевна Пшелко, воспитывала детей. В 1901 г. Крачковский заканчивает в Вильно гимназию с золотой медалью и поступает на факультет восточных языков Санкт-Петербургского университета. В январе 1908 г. И.Ю. Крачковский был командирован на Восток для более глубоких научных изысканий. В течение двух лет он находился на стажировке в Сирии, Ливане, Палестине и Египте. В Ливане на восточном факультете Бейрутского университета он изучал живые арабские диалекты и современную арабскую литературу, а в университетской библиотеке трудился над арабскими рукописями. В 1910 г. И.Ю. Крачковский становится приват-доцентом, а в 1918 – профессором Петроградского, затем Ленинградского университета; 9 ноября 1921 г. – действительным членом Российской Академии наук, затем - действительным членом АН СССР.

С 1922 по 1929 гг. академик Крачковский стоял во главе отделения исторических наук и филологии АН. С 1916 по 1951 г. И.Ю. Крачковский руководил работой Арабского кабинета Азиатского музея (позднее Институт Востока АН СССР). Академик был инициатором

создания и руководителем Ассоциации арабитов СССР (1934–1938). Он также являлся вице-президентом Русского географического общества (1938–1945) и. В 1915 г. он получил степень магистра арабской словесности после успешной защиты диссертации, посвященной творчеству средневекового арабского поэта Абу аль-Фараджа аль-Вава ад-Димашки, написанной преимущественно на редких арабских рукописях.

Благодаря научно исследовательской работе И.Ю.Крачковского значительно расширилась и рукописная база русской арабистики: в 20—30-е годы заметно обогатились собрания Азиатского музея (позднее Института востоковедения АН СССР), в те же годы и позднее возникли новые центры сбора и хранения рукописей в Ташкенте, Казани, Баку, Тбилиси, Махачкале, Душанбе, Самарканде, Ереване. Среди трудов академика большую популярность обрела книга «Над арабскими рукописями. Листки воспоминаний о книгах и людях» [5]. Первый том «Избранных сочинений» открывался знаменитой книгой «Над арабскими рукописями», за которую автор посмертно получил Сталинскую премию, далее шли разделы «Арабистика и вопросы культуры народов СССР» и «Арабское языкознание». Второй том содержал работы по средневековой художественной литературе, третий — по новой литературе, четвертый — по географической литературе, пятый — по истории востоковедения. Шестой том включал, как и первый, три раздела: «Ибн ал-Му‘тазз» (средневековая арабская поэтика), «Описание рукописей» и «Арабская письменность на Северном Кавказе» [6].

Фундаментальные сочинения И.Ю. Крачковского по новоарабской литературе и истории арабской культуры конца XIX – начала XX в., периода так называемой «Нахды» (с араб. яз. – подъем, возрождение), – положили начало исследованиям в данной области на Западе и Востоке. Также, И.Ю. Крачковский вел обширную переписку с прославленными представителями новоарабской литературы – Махмудом Теймуром, Таха Хусейном, Ахмедом Зеки Абу Шади, Амином ар-Рейхани, Михаилом Нуайме, известными филологами – Мухамедом Курд Али, Абд альКадиром аль-Магриби и многими другими. Эпистолярное наследие Игнатия Юлиановича стало важным историческим источником как для осмысления его вклада в развитие науки, так и для выявления характера и направленности тех контактов и связей, которые он устанавливал и поддерживал на протяжении всей своей жизни. Ученый познакомил читателей с творчеством выдающихся арабских писателей – Касима Амина, Таха Хусейна, Амина ар-Рейхани, Махмуда Теймура, сделав перевод их произведений на русский язык. Под редакцией Крачковского увидело свет первое полное русское издание одной из популярнейших в мире книг – «Тысяча и одна ночь». Его исследования по истории арабской художественной литературы содержат большой фактический материал по культурной, а также социальной истории арабских стран [7].

Бесценен вклад И.Ю. Крачковского в исламоведение. Он был одним из авторов первого международного многотомного издания «Энциклопедии ислама» Его комментированный перевод Священной книги мусульман с арабского языка на русский стал неординарным событием в научной жизни страны. И.Ю.Крачковский работал над переводом Корана в течение восьми лет. Перевод Корана был опубликован посмертно в 1963 г. в Москве, затем неоднократно переиздавался, и до сих пор, как отмечают специалисты-исламоведы, конкурирует с появившимися впоследствии переводами, литературно обработанными и подготовленными переводчиками к печати. Благодаря проделанной академиком огромной работе широкой общественности стал доступен один из ценнейших историко-культурных и литературных памятников мирового значения, важный источник раннего периода истории ислама, ознакомление с которым способствует лучшему пониманию обычаев, традиций, образа жизни мусульманских народов. Известный российский востоковед-арабист Е.А. Резван, оценивая эту масштабную работу, неоднократно подчеркнул что по характеру подхода к тексту и филологической точности труд И.Ю. Крачковского превосходит не только русские, но и многие европейские переводы [8].

Подводя итоги нужно отметить, что И.Ю. Крачковский внес весомый вклад в упрочение роли востоковедения и арабистики в современной российской науке; он участвовал во всех

серьезных трудах об Арабском Востоке в 1930-1940-е гг. Научные заслуги И.Ю. Крачковского были высоко оценены. Они отмечены многими правительственными наградами. Его научная деятельность получила признание и зарубежных коллег в странах Востока и Запада.

И.Ю. Крачковский – почетный, член ряда зарубежных академий и востоковедных обществ Сирии, Индии, Германии, Великобритании, Ирландии, США, Бельгии и Польши. Игнатий Юлианович получил признание не только на у себя на родине, но и за рубежом: был избран членом Арабской академии наук в Дамаске, Польского востоковедного общества, Немецкого востоковедного общества, Ассоциации исламских исследований в Бомбее, Иранской академии наук, Королевского Азиатского общества Великобритании и Ирландии, Польской академии наук, Фламандской академии наук, Азиатского института в Нью-Йорке, принимал участие в работе разнообразных международных объединений и комиссий. [9]

Научное наследие академика И.Ю. Крачковского велико по объему и разнообразно по тематике. Большая часть его трудов посвящена истории арабской литературы, художественной и научной; ему принадлежат также работы по арабскому языкознанию, эфиопистике, исламоведению, историографии и палеографии, истории востоковедения, издания и переводы многочисленных исторических и литературных памятников.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. И.А.Каримов. Хорезмская академия Маъмуна. Ташкент: «Шарқ», 2006г.. с. 5.
2. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису («Народное слово» 29 декабря 2020 года)
3. С.А. Тулеубаева «К истории арабистики в казахстане» Арабистика Евразии, № 4, Декабрь 2018.
4. А. А. Долинина «Невольник долга» (Научная биография академика И.Ю.Крачковского)
5. Алексеев В.М. Академик И.Ю. Крачковский. Предисловие и посвящение // Наука о Востоке (Статьи и документы). М., Наука, 1982.
6. Беляев В.М., Винников И.Н. Памяти акад. И.Ю. Крачковского. (16.III.1883 – 24.I.1951) // Палестинский сборник. Вып. I, (63)
7. Резван Е.А. Коран и его мир / Отв. ред.: В.Д. Ушаков. СПб.: Петербургское востоковедение, 2001.
8. Долинина А.А. Игнатий Юлианович Крачковский как исследователь арабской литературы // Народы Азии и Африки. 1985. № 2.
9. В.Малаховская В., В. Малаховский А. К., Савичева Е. М. У истоков российской арабистики: академик Игнатий Юлианович Крачковский // Диалог со временем. 2019. Вып. 68.

УЎК 811.111(038)

ИНГЛИЗ ТИЛИНИНГ ТУРЛИ ХИЛ ИДЕОГРАФИК ЛУҒАТЛАРИНИ АМАЛИЙ ҚЎЛЛАШ ХУСУСИЯТЛАРИ

Д.И. Исроилова, ўқитувчи, Андижон Давлат Тиббиёт Институтини, Андижон

Аннотация. *Идеографик лугатлар мавзуйи гуруҳларга бўлиниб, уларнинг ўзаро боғлиқлигини акс эттирувчи босқичма-босқич иерархик тузилишига эга. Бундай лугатнинг ҳар бир мавзуйи гуруҳи асосий тушунчага эга бўлган асос сўзга, шунингдек, ушбу тушунчага мос келадиган сўзларга эга. Лугат ва сўз бирликлари ўртасидаги бундай кўриниши семантик алоқаларнинг иерархиясини ифода этувчи кўрғазмали қурол ҳисобланади. Ушбу лугатлардан фойдаланган ҳолда лексик-семантик тизимдаги муайян сўзларнинг ўрнини аниқлаш ва белгилаш анча осон бўлади.*

Калит сўзлар: *идеографик лугатлар, идеография, семантик алоқалар, иерархик тузилиши, лексикография.*

Аннотация. *Идеографические словари разделены на тематические группы и имеют ступенчатую иерархическую структуру, отражающую их взаимосвязь. В каждой тематической группе такого словаря есть ключевое слово, имеющее основное понятие, а также слова, соответствующие этому понятию. Такое представление между лексикой и словесными единицами является визуальным средством, выражающим иерархию смысловых связей. Использование этих словарей значительно облегчает поиск и определение конкретных слов в лексико-семантической системе.*

Ключевые слова: *идеографические словари, идеография, смысловые связи, иерархическая структура, лексикография.*

Abstract. *Ideographic dictionaries are divided into thematic groups and have a step-by-step hierarchical structure that reflects their interrelationships. Each thematic group of such a dictionary has a key word that has a basic concept, as well as words that correspond to that concept. Such a view between vocabulary and word units is a visual tool that expresses the hierarchy of semantic connections. Using these dictionaries makes it much easier to locate and define specific words in the lexical-semantic system.*

Keywords: *ideographic dictionaries, ideography, semantic connections, hierarchical structure, lexicography.*

Идеография, шак-шубҳасиз, замонавий лексикографиянинг асосий бўлимларидан бири ҳисобланади. Бу, биринчи навбатда, тилдаги тизимлилик ва оламнинг лисоний манзарасининг ўрганиш нафақат филологлар, балки файласуф ва психологлар томонидан олиб борилган кўплаб илмий тадқиқот ишлари билан ҳам боғлиқдир.

Ушбу фаннинг предмети ҳисобланган идеографик луғатлар бугунги кунда ҳам жуда машҳур. Бу, айниқса, XIX аср бошидан буён шу кунгача мавжуд бўлиб келаётган инглиз лексикографиясига тааллуқлидир. Шуни ҳам таъкидлаш керакки, ушбу йўналишда ўзбек тилшунослигида олиб борилган ва олиб борилаётган илмий тадқиқот ишлари ютуқларга қарамадан, орижий тилшуносликда олиб борилаётган тадқиқот ишларига қараганда анча паст.

Инглиз тилидаги идеографик луғатларнинг энг ёрқин мисоллари сифатида биринчи ва кўп марта қайта нашр этилган Roget's Thesaurus, Oxford Thesaurus ва Longman Essential Activatorларни келтириш мумкин. Юқоридаги қоғоз шаклидаги ноёб луғатлар билан бирга фаол электрон луғатларни ҳам эслатиб ўтиш мақсадга мувофиқдир.

Бу ерда энг мувафакқиятли луғатлардан бири WordNet луғати бўлиб, у Принстон университетида тайёрланган. Бундан ташқари, АБВҮҮ Lingvo луғатини ишлаб чиқувчи маҳаллий лексикографларнинг мувафакқиятларини ҳам қайд этиш лозим. Идеографик луғатлар турлича кўриниш касб этганлиги боис, В.В.Морковкин томонидан ишлаб чиқилган анъанавий таснифга кўра уч турга бўлинади:

1.Идеографик луғатлар. Ушбу луғатлар мавзуй гуруҳларга бўлиниб, уларнинг ўзаро боғлиқлигини акс эттирувчи босқичма-босқич иерархик тузилишга эга. Бундай луғатнинг ҳар бир мавзуй гуруҳи асосий тушунчага эга бўлган асос сўзга, шунингдек, ушбу тушунчага мос келадиган сўзларга эга.

Луғат ва сўз бирликлари ўртасидаги бундай кўриниш семантик алоқаларнинг иерархиясини ифода этувчи кўргазмалар қурол ҳисобланади. Ушбу луғатлардан фойдаланган ҳолда лексик-семантик тизимдаги муайян сўзларнинг ўрнини аниқлаш ва белгилаш анча осон бўлади.

Идеографик луғатнинг асосий камчилиги, луғат муаллифи томонидан сўзнинг лексик-семантик тизими берилишига кўра фойдаланувчи ўзини қизиқтирган сўзни мазкур луғатдан ҳар доим ҳам топа олмаслиги мумкин.

2.Аналогик луғат. Бу турдаги идеографик луғатлар турлича бўлиб, ундаги сўзлар луғатга алифбо тартибда жойлаштирилади. Ҳар бир асос сўз, қоидага кўра маъно жиҳатидан мос келувчи сўз ва сўз бирикмалардан ташкил топган, унча катта бўлмаган мавзуй гуруҳларни ўз ичига олади.

Баъзи аналогик луғатларга сўзларни талқин қилиш, бир хил илдишли сўзлар рўйхати, барқарор иборалар, шунингдек, экстралингвистик хусусиятларга ахборотлар киради (масалан, “мамлакат” мавзуй гуруҳ сўзи билан бир қаторда, у ерда дунёнинг барча мамлакатларини санаб ўтувчи жадвал ҳам жойлаштирилган бўлиши мумкин).

Шундай қилиб, аналогик луғатлар ўзида – идеографик, изоҳли ва ҳатто энциклопедик луғатларни бирлаштириши мумкин. Аналогик луғатларнинг идеографик луғатларга нисбатан фойдаланувчилар учун афзаллиги, унда лексик-семантик тизимнинг “бўлакли” тақдими, сўзлар алоҳида кўрсатмаса-да, уларнинг алоҳида майдон шаклида берилишидир.

1. Идеографик ўқув луғатлари. Бундай луғатлар кўп тилларда яратилган кўп сонли луғатлар билан ифодаланади. Ушбу луғатлар номидан ҳам кўриниб турганидек, хорижий тилларни ўрганишда ёрдамчи материал сифатида хизмат қилади.

Ушбу луғатдаги сўзларнинг ажми, одатда, катта эмас, камдан-кам ҳолатда 10-12 минг сўздан ошади. Чет тилидаги сўзлар уларнинг мавзуга боғлиқлиги асосида гуруҳларга ажратилади. Шунинг учун ҳам бундай луғатларни баъзан мавзуй луғатлар ҳам деб юритилади. Ҳар бир сўз билан бир қаторда тил ўрганаётган шахснинг ўз тилида таржимаси берилади.

Бундай чизмаларни деярли самарали эканлигига қарамасдан, ушбу тамойилга кўра, таълимга оид идеографик луғатларнинг бир нечаси яратилган. Чунки ўқувчига сўзнинг ишлатилиши, шунингдек, расми гапларнинг берилиши ва турғун сўз бирикмаларини ифода этувчи биргина луғат камлик қилади.

Идеографик луғатлар тилнинг лексик-семантик тизимини ифода этади, яъни ўзида лексик-семантик мўйдонни (аниқроғи, унинг қисмларини) ва мазкур майдон бошқа майдонлар билан бир бирига қандай босқичма-босқич тартибда боғланганлигини акс эттиради.

Кўриниб турибдики, бундай ҳолат барча идеографик луғатларга хос эмаслигини, балки уларнинг иккита тури – идеографик тезауруслар ва идеографик ўқув луғатларига хос эканлигини аниқлаб олиш керак. Сўнги луғатлар сўзларнинг чегараланган ҳажми билан ифодаланиб, асосан амалий мақсадлар учун қўлланилади, шу сасбаб ҳам бу ерда ҳисобга олинмайди.

Идеографик тезауруслар, қарама-қарши маънода, нафақат амалий, балки назарий аҳамият ҳам касб этади. Улар ўз ичига сўзларнинг катта ҳамини олиб, маълум тамойилларга асосланган ҳолда қурилиб, мазкур луғатлар муаллифларнинг дунёқарашига, илмий қарашларига ва маданий боғлиқлигига қараб катта фарқ мавжуд.

Қоидага кўра, бундай луғатдаги барча сўзлар бир неча катта синфларга бўлинади, бу эса ўз навбатида кичик синфлардан иборат бўлиб, у ҳам кичикроқ сўз гуруҳларига бўлиниши мумкин. Бундай даражалар луғатнинг ўлчамига қараб бир неча ўнга яқин бўлиши мумкин. Шу билан бирга, тезауруслар дарахтсимон шаклда бўлиб, унинг алоҳида белгилари иерархиядаги мавқеига қарамасдан бир-бирлари билан боғлиқ бўлишлари ҳам мумкин.

Бундай чизма синоптик тезаурус чизмаси деб номланади. Юқорида айтиб ўтилганлардан кўриниб турибдики, у тилнинг лексик-семантик тизими қурилишининг шартли ифодасидир. Шубҳасиз, луғат сўзларнинг ўзаро боғлиқлигини маълум тилда сўзлашувчиларнинг муайян ғояларига ва маълум бир маданиятга кўра, лексик бирликларнинг ҳақиқий дунёви объектлари ва ҳодисалари билан ўзаро боғлиқлиги билан белгилайди.

Бу оламнинг лисоний манзараси тушунчасига С.Г.Тер-Минасова томонидан белгилаб қўйилган лисоний воситалар билан ифодаланган инсоний фикрлаш тамойиллари ҳақидаги тушунчаларга жуда яқин.

Шу нуқтаи назардан тезаурус, оламнинг лисоний воситасининг муҳим бир қисмини, яъни аслида табиатда мавжуд бўлган тушунчаларни ифодаловчи номлаш тизимларини ва фақат инсон фантазияси ёки оқилона фикрлашнинг самараси бўлган, бироқ фикрлаш натижасида пайдо бўлган соддалаштирилган модел сифатида қараш мумкин. Шунинг учун ҳам у бу тизимда бир хил ҳуқуқга эга бўлган жойни эгаллайди.

Шундай қилиб, бундай луғатлар ўз оламнинг лисоний манзараси белгисига эгадир. Шунинг учун мазкур тилнинг тўлақонли оламнинг лисоний манзарасини акс эттирувчи луғатни тузиш қийин. Чунки бу ерда субъективизм жуда юқори бўлади. Шунга қарамай, тезаурус луғатлар оламнинг лисоний манзарасини ўрганишда яхши ёрдамчи восита сифатида хизмат қилиши мумкин.

Гарчанд улар бутунлай ва холисона акс этмасан-да, бироқ уларда статистик маълумотларга асосланган лексик-семантик тизим қурилиши ва сўзларнинг ўзаро алоқаси ҳақидаги қимматли ахборотлар сақланиб қолади. Шунингдек, субъективлик даражасини маълум даражада тушириши, бир гуруҳ олимлар томонидан аниқланган аниқ илмий концепцияларни ўзида акс эттириши мумкин.

Бу ўринда шуни ҳам таъкидлаб ўтиш лозимки, бу барча луғатларга тааллуқли эмас, балки яқинда нашр этилган ва нашрга тайёрланган луғатларга нисбатан қўлланилади. Мана шундай луғат сифатида ўз ичига яхши ишлаб чиқилган тамойиллар ва кўплаб фойдали янгиликлар, масалан, дарахтсимон диаграмма сифатида луғатнинг бўлимлари қурилишини кўрсатиб берувчи чизмалар билан бойитилган.

Бундан ташқари, бошқа луғатлардан фарқли ўлароқ, ушбу луғатда олмошлар, хизмат сўзлари ва юкламалар ифода этилган. Кўп жиҳатдан луғатларда ифодаланган сўзлар тизимини тартибга солиш ўхшашдир. Бу эса кўрғазмали мисоллардан келиб чиқилган ҳолда унинг қурилишини муҳокама қилиш имконини беради. Шундай қилиб, идеографик луғатлар оламнинг лисоний манзарасини ўрганиш билан боғлиқ назарий тушунчалар учун асос бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Шу билан бирга, луғатлар субъективизми ижобий жиҳатларга эга бўлиши ҳам мумкин. Турли луғатларни ўзаро солиштириб, оламнинг лисоний манзараси хусусиятлари ва тамойилларини ҳам ўрганиш мумкин. Мисол учун синоптик чизмалар билан таққослаш орқали инсон қиёфаси ва унинг миллий-маданий хусусиятларига, дунёқарашига боғлиқлиги ҳақида хулоса чиқариш ва бу нисбатлардаги қандайдир ўзига хосликларни топиш мумкин. Мисол тариқасида Ю.Н.Караулов ва И.М.Кобзеваларнинг илмий тадқиқот ишларини келтириш мумкин. Бундан ташқари, муайян бир халқ оламининг лисоний манзарасини турли тарихий даврларга оид луғатларни ўрганишни диахрон усулда ҳам кузатиш мумкин.

Бир вақтнинг ўзида бир нечта луғатлардан фойдаланиш тадқиқот самарадорлигини ошириши мумкин. Бунинг натижасида субъективлик даражаси камаяди ва кўриб чиқиладиган сўз ҳажми кенгаяди. Алоҳида сўзлар ва бутун лексик-семантик майдонлар ўртасидаги алоқалар янада аниқроқ кўринади. Мазкур луғатларни қуриш ўртасидаги фарқ эса назардан четда қолган муаммоларни кўриб чиқиш имконини беради.

Турли тилларга хос бўлган луғатларни бир вақтнинг ўзида қўллаш, оламнинг лисоний манзарасининг ҳар бир тилга хос бўлган хусусиятлари ҳақида, умуман олганда, инсоний фикрлаш ва алоҳида тилларнинг ўзига хослиги ҳақида хулоса чиқаришга имкон беради. Идеографик луғатларнинг бундай қўлланилиши, шубҳасиз, тилшуносликда умумийлик (универсалия)ни янги материаллар билан бойитиш ва ривожлантиришнинг янги усуллари билан таъминлайди.

Идеографиянинг фаол ривожланиши ва кўплаб идеографик луғатларнинг пайдо бўлиши билан боғлиқ равишда, улар томонидан тақдим этилган асосий хусусиятларни белгилаш зарур. Идеографик луғатларни ҳам назарий тадқиқотларда, ҳам амалий фаолиятда бемалол қўллашингиз мумкин.

Назарий фаолият билан шуғулланадиган олимлар учун луғатлар қуйидаги жиҳатларда фойдали бўлиши мумкин: Идеографик луғатлар тилшуносларга тилнинг лексик таркибини, хусусан, тизимининг хусусиятларини ва тиллардаги сўзлар ўртасидаги мавжуд бўлган уланишларни ўрганишга ёрдам беради.

Луғат тизимини ташкил қилишнинг идеографик луғатлардаги сўзлар тизими кўп жиҳатдан оламнинг лисоний манзараси тушунчаларини тартибга солишни бошқариши билан ажралиб туради. Бу эса кўрғазмали мисолларни ҳисобга олган ҳолда, уларнинг тузилишини баҳолаш учун замин яратади. Бунда кўрғазмалилик, албатта, катта аҳамиятга эга. Чунки мутахассислар томонидан яратилган аниқ ва ишончли моделга асосланиб хулоса чиқариш кўп ҳолларда уни нолдан яратишга уринишдан кўра оддий ва ишончлироқ бўлади.

Шундай қилиб, идеографик луғатлар маълумотлари оламнинг лисоний манзарасини ўрганиш билан боғлиқ назарий тушунчалар учун асос бўлиб хизмат қилиши мумкин. Бир вақтнинг ўзида бир нечта луғатларни қўллаш орқали тадқиқотлар самарадорлигини ошириш, кўриб чиқилаётган сўзлар ҳажмини кўпайтириш, алоҳида сўзлар ва бутун лексик-семантик майдонлар ўртасидаги алоқаларга янада ойдинлик киритиш имконини берса, ушбу луғатларни яратиш тамойилларидаги фарқ эса назардан четда қолган муаммоларни ҳал этиш имконини беради.

ЁШ АВЛОД ТАРБИЯСИГА АХБОРОТ ХУРУЖЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ**Ў.У. Каримов, ўқитувчи, Фаргона давлат университети, Фаргона**

Аннотация. Ушбу мақолада глобаллашув шароитида ахборотлар оқимининг кириб келиши, хусусан ахборот хуружларининг ёшлар тарбиясига таъсири ёритилган.

Калим сўзлар: ёшлар, ахборот хуружи, ОАВ, Интернет, тарбия, тарбиявий омиллар, ижтимоий ҳаёт.

Аннотация. в данной статье рассматривается проникновение информационных потоков в глобализованную среду, в частности влияние информационных атак на образование молодежи.

Ключевые слова: молодежь, информационная атака, СМИ, Интернет, образование, образовательные факторы, социальная жизнь.

Abstract. This article covers the penetration of information flow in the condition globalization, in particular the impact of information attacks on youth education.

Keywords: youth, Information attack, mass media, Internet, education, educational factors, social life.

Бугунги даврда инсон ҳаётини, айниқса ёшлар ҳаётини оммавий ахборот воситаларисиз тасаввур этиб бўлмайди. Хусусан, телевидение ХХ асрнинг буюк кашфиётларидан бири бўлиши билан бирга оммавий ахборот воситалари ичида энг фаоли, ўзининг аудиовизуал табиатига кўра энг таъсирчани ҳамдир. Телевидение ва интернет ахборот алмашинувининг, шунингдек, коммуникация жараёнининг самарали ва таъсирчан воситаси сифатида ўрин эгаллаган. Аудиовизуал воситалар бизни кун давомида таъкиб этиб, дам олишимиздан тортиб ҳаёт тарзимизни ҳам белгиламоқда, дунё воқеаларидан хабардор қилмоқда, таълим бермоқда, ва тарбияламоқда. Мазкур воситалар орқали тарқатилаётган ахборот кўлами, шакл-шамойили, ғояси ва сифати замонавий шахс тафаккури, дунёқарашининг баъзида ўзгаришига, маданий қарашларига, кадриятларга ўзгача муносабатнинг шаклланишига сабаб бўлмоқда.

Барчамизга маълумки, ёш авлод шахсининг шаклланиши қатор омиллар таъсирида рўй беради. Ушбу омилларни энг муҳимлари унинг тоза хулқли ирсияти, оиладаги намунавий тарбия, маҳаллардаги ижтимоий муҳит, мактаб ва бошқа ўқув юртларида ёшлар тарбияси масалаларига нечоғлик аҳамият берилаётганлиги билан бевосита боғлиқ бўлади.

Тарбиянинг бош мақсади – ўсиб келаётган ёш авлодни комил инсонларга хос ўсиб-улғайиб билимли, доно ва соғлом фикрловчи шахс сифатида, жамиятда ўзининг мустақкам ўрнини топишига йўл очиб беришдир.

Тарбиянинг бош вазифаси эса, ёш авлодни жамиятимизда қабул қилинган одоб-ахлоқ қоидаларига мос келадиган эътиқодини, ахлоқий малака ва кўникмаларини, эҳтиёж ва интилишларини таркиб топтиришдан иборатдир.

Абдулла Авлоний ўзининг «Туркий гулистон ёхуд ахлоқ» асарида инсон камолотида тарбиянинг ролини алоҳида таъкидлаб, шундай деган эди: Жаноби Ҳақ инсонларни асил хилқатда истеъдодли ва қобилиятли, яхши ила ёмонни, фойда ила зиённи, оқ ила қорани айирадиган қилиб яратган. Лекин, инсондаги бу қобилиятни камолга етказмоқ тарбия воситасида бўладир. Агар бола яхши тарбия топиб, бузук хулқдан сақланиб, гўзал хулқларга одатланиб катта бўлса бахтиёр инсон бўлиб чиқади. Агар тарбиясиз, ахлоқи бузилиб ўсса, насихатни қулоғига олмайдиган, ҳар хил бузук ишларни қиладиган нодон, жоҳил бир “расвои” одам бўлиб камол топади. Ушбу пурҳикмат сўзларда инсон камолотида тарбиянинг нечоғлик аҳамиятли эканлиги янада яққол кўринади.

Ҳозирги даврда ёш авлод тарбиясида оила, маҳалла, мактаб ва ўқув юртлари таъсиридан ташқари, глобаллашув жараёнлари маҳсули-турли интернет тармоқлари орқали тезлик билан ахборот узатиш ва алмашиш воситалари омилини ҳам диққат марказимида тутишимиз керак. Улар воситасида ҳар хил бузғунчи ғояларни илгари сурувчи, ёшлар онгини заҳарловчи беҳаё,

ур-йикит фильмларни ва турли бемаъни ўйинларнинг ёшларимиз ҳаётига кириб келаётганлиги ташвишланарли ҳолдир.

Яна шунга ҳам диққатни қаратиш лозимки, мамлакатимизда кўплаб оммавий нашрлар фаолият олиб бормоқда, улар орасида савияси бирмунча паст, «кўнгилочар» дея енгил-елпи ҳаёт тарзларини ифодаловчи, ахлоқий нуқтаи назардан миллий менталитетимизга мос келмайдиган материалларни ёшлар эътиборига ҳавола этаётганлари ҳам учраб турганлиги бу ҳақиқат.

Шу ўринда бугунги кунда фаолият кўрсатаётган турли радио-телеведениеларга ҳам эътиборни қаратиш лозим деб ҳисоблаймиз, бугунги кунда бир мунча камайган бўлсада, афсус эфирга ўзатилаётган айрим “ножўя” кино фильмлар ва эшиттиришлар, енгил-елпи кўшиқларнинг ҳам ёшларимиз онгига салбий таъсири тўғрисида чуқурроқ ўйлаб кўришимиз замон талаби бўлиб қолмоқда.

Энг муҳими шундаки, ҳар бир жамиятда қандай шаклда қандай мақсадда бўлмасин ҳар қандай янги ғояга, турли янги концепцияларга нисбатан ёшлар ўз муносабатини билдиради ва аҳолининг бошқа қатламига нисбатан тезроқ қабул қилади. Чунки ёшлар физиологик ва психологик жиҳатдан ҳали шакилланиш босқичида бўлгани учун уларда янгиликларни бошқаларга нисбатан тез илғаб олувчи ва бир вақтнинг ўзида уларни англаб олиш ва эътиқодига айланишига эҳтиёж катта бўлади. Шунингдек, ёшлар янгиликни тез илғаб олувчи ҳамда салбий ҳодисаларга тез берилувчанлик хусусиятлари билан ҳам ажралиб туради. Ёшлар ўзларининг ижтимоий-руҳий ва бошқа жиҳатларига кўра, жамиятда тез ўзгарувчан шароитга мослашиш қобилиятининг юқори эканлиги билан ажралиб туради. Улар жамиятнинг шундай ижтимоий гуруҳига мансубки, ушбу гуруҳ вакиллрининг онги шакилланиш жараёнида бўлиб, улар турли хил ғоялар (шу жумладан бузғунчи ғояларнинг ҳам) таъсирига тез берилувчан бўладилар. Улар шунингдек, ўткир хиссий билиш қобилиятига эга бўлиб, сўз билан амалиётнинг номуносивлиги ҳолатларини аниқроқ сезадилар.

Ахборот асрининг айнан ёшлар организмга хавфи юқорилигини тиббиётдаги кўпгина ҳолатлар билан изоҳлаш мумкин. Масалан, шифокорлар организмда бирор касаллик кечаётган даврда организм учун фойдали бўлган дармон дорилар (витами́нлар) қабул қилишни мутлақо тақиқлайди. Сабаби витаминларнинг вазифаси ҳужайралар ва бактериялар фаолиятини яхшилашдан иборат бўлиб, касаллик даврида касаллик чақирувчи бактериялар фаолиятини кучайтириб юборади. Айниқса, организмда фаол психофизиологик ўзгаришлар кечаётган ўсмирлик ва ўспиринлик даврида кучли ахборот оқимига қарши туриш учун инсон организми ожизлик қилади. Уларда руҳий иммунитетнинг пасайиши туфайли, турли ахборотлар ўсмирнинг нафақат ички кечинмаларига, ҳатто ҳарактери ўзгаришига сабаб бўлади.

Ваҳимали сюжетлар оқибатида юзага келган бир сониялик кўрқув туфайли шу вақт оралиғида миянинг қон билан таъминланишида узилиш рўй беради. Бу минглаб ҳужайраларнинг емирилиши демакдир. Бош миядаги ҳужайралар ўрнининг тўлдирилиши эса бош оғриғига олиб келади.

Телевидения орқали узатилаётган ахборот бу тўлқин ҳарактерига эга визуал энергиянинг яққол таъсиридир. Ушбу энергия дастлаб руҳий касаллик симптомларини сунъий равишда кўзгатади ва организмни доимий тобеликда ушлаб туради. Бу ҳолат гиёҳванд моддалар “қули”га айланган шахснинг аҳволидан фарқ қилмайди. Яъни инсон доимий равишда ахборотга эҳтиёж сезади ва хатти ҳаракатларини мана шу ахборотлар таъсирида амалга оширади. Бу эса, руҳий инфекция демакдир.

Телеинформация инсонни, аввало, ўз таъсирига тушириб олади, сўнгра эшитиш ва кўриш органлари ёрдамида миянинг барча қатламларини эгаллайди. Телетомошанинг 20-25 дақиқасидан кейин томошабин таҳлил қилишдан чарчайди ва бош мия ахборотни тўғридан тўғри қандай ҳажмда бўлишидан қатъий назар қабул қила бошлайди. Туни билан телевизор қаршисида ўтириш организмнинг ташқи фаоллигини сусайтиради. Тунда қабул қилинган маълумотлар тўғридан тўғри остки онгга муҳрланади. Шундай қилиб, кун давомида ақлий ва жисмоний меҳнатдан чарчаган инсон учун бу ахборотларни таҳлил қилиш ва хулоса чиқариш осон кечмайди. Бу эса унинг “депрессив” ҳолатга тушишига олиб келиши мумкин.

Оммавий ахборот воситаларининг асосий вазифаларидан бири аҳолининг ижтимоий фаоллигини оширишдан иборат. Бироқ қабул қилинаётган ахборот миқдорининг меъёрдан ортиши ўқувчи онгини маълум “қолип”да шаклланишига сабаб бўлади. Чунки катта ҳажм ва тезликдаги ахборот оқими инсонни эшитиш ва кўриш билан чекланувчи томошабинга айлантириб қўяди, унинг мулоҳаза юритиш ва хулоса чиқариш имконияти чекланади. Бу ҳолатда ахборот “ижтимоий наркотик”ка айланади.

Америкалик тадқиқотчи Марии Винн ўз изланишлари давомида зангори экран таъсирини наркотик ва алкоголь таъсири билан тенглаштиради. Унинг фикрича, телетомоша киши руҳиятига таъсир этиб, уни тинчлантириши, реал борлиқни ҳис этмаслик, вақт чегарасини билмаслик, ҳаёт ташвишларини вақтинча бўлса-да, унутишга сабаб бўлар экан.

Хулоса қилиб айтилганда, информациялар оқимидан инсон манфаатлари йўлида фойдаланиш ва унинг мақсадларига бўйсундириш имконияти ҳам йўқ эмас. Бундан унумли фойдаланиш инсоннинг ақлий салоҳияти, маънавий олами, иймон-этиқоди, куч-иродасига боғлиқ. Бугунги глобал шароитда замонавий технологик воситаларнинг таъсир имкониятлари ортиб бораётган бир паллада улардан онгли ва мақсадли равишда, яъни миллий тарбия, маърифат йўлида фойдаланиш, ватанпарварлик туйғуларини шакллантиришда оқилона қўллашимиз лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Anvar D. The Relevance of Teaching Social and Humanitarian Sciences in the Education of the Future Generation // American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 344-348.
2. Karimov U. U. Scientific and Theoretical Foundations of the Formation of the Social Environment in the Family // Oriental Journal of Social Sciences. – 2021. – С. 37-40.
3. Karimov U., Karimova G., Makhamadaliyev L. The role and significance of spiritual values in youth education // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2022. – Т. 12. – №. 2. – С. 181-185.

УЎК 808.5

ХАЛҚ ИЖОДИНИНГ ЁРҚИН КЎЗГУСИ

Ф.Қосимова, ассистент, Қарши ирригация ва агротехнологиялар институти, Қарши

Аннотация. Мақолада ўзбек фольклори, унинг қадим тарихи, миллий ва маданий меросимизда тутган ўрни ва аҳамияти хусусида сўз юритилган. Хусусан, фольклорнинг халқ турмушини акс эттириши ҳақида фикр-мулоҳазалар келтирилган.

Калим сўзлар: Фольклор, ижод, сюжет, мотив, мерос, синкретик, жанр, эпик, эпос, терма, санъат, қаҳрамонлик.

Аннотация. В статье рассматривается узбекский фольклор, его древняя история, место и значение в нашем национальном и культурном наследии. В частности, есть мнения, что фольклор отражает жизнь народа.

Ключевые слова: Фольклор, творчество, сюжет, мотив, наследие, синкретика, жанр, эпос, эпопея, народность, искусство, героизм.

Abstract. The article discusses Uzbek folklore, its ancient history, place and significance in our national and cultural heritage. In particular, there are opinions that folklore reflects the life of the people.

Key words: Folklore, creativity, plot, motif, heritage, syncretic, genre, epic, epic, nationality, art, heroism.

Ҳар бир миллатнинг ўз фольклори бор. Халқнинг фольклор санъати ва адабиёти турли даврларда ўша халқ ижодининг ёрқин кўзгуси бўлиб келган. Мамлакатлар этнографияси, адабиётшунослиги, мусиқашунослиги, антропологияси ва социологиясини ўз ичига олган фольклор замонлар ўтиб, халқ санъатини (халқ оғзаки ижоди, мусиқа фольклори, рақси, театри, цирки каби) ўрганувчи мустақил ва махсус фан сифатида ривож топган. Фольклоршуносликнинг асослари жуда қадимга бориб тақалади. Қадимги дунё сайёҳлари ва тарихчиларининг афсона ва ривоятлар, турли урф-одат ва маросимлар ҳақидаги қайдлари, ёзувчи ва бастакорларнинг фольклор тўғрисидаги дастлабки фикрлари фольклор-шунослик учун тамал тоши бўлиб хизмат қилган. Туркий халқларда фольклор материалларини ёзиб

олиш дастлаб 11 асрдан бошланган. Махмуд Кошғарийнинг «Девону луғотит турк» асаридаги фольклор материаллари, ёзувчи ва шоирлар томонидан эртақлар, мифлар, афсона ва ривоятларни қайта ишлаш жараёнини мисол қилиб айтса бўлади.

XVIII аср ва XIX аср бошларида фольклорга нисбатан илмий қизиқишнинг кучайди. Халқ оғзаки ижоди материалларини тўплаш ва нашр этиш жадал ривожланди. Бу эса уни чинакамига ўрганиш учун йўл очди. Европа ва Россия фольклоршунослигида турли йўналишлар, мактаблар юзага келди. Шундай мактаблардан бири мифологик мактаб бўлиб, фольклор жанрларининг юзага келишини қадимий афсоналарга боғлиқ деган қарашлар пайдо бўлган. Ўша давр маърифатпарварлари эса, фольклорнинг демократик ва синкретик характерини, ундаги умуминсоний ва миллий хусусиятлар бирлигини ўрганишга алоҳида эътибор бқаратганлар. XIX аср ўрталаридан бошлаб фольклорни илмий принциплар асосида тўплаш ва нашр этиш янада кучайди. Натижада фольклоршуносликда янги йўналиш - «сайёр сюжетлар» назариясини юзага келди. Мазкур назария тарафдорлари ўхшаш сюжет, мотив ва образлардаги мураккаб жараёнларни ҳисобга олмай, уларни бир халқдан иккинчи халқнинг шунчаки ўзлаштириши, деб талқин қилдилар. Яъни бир халқ эртақ ёхуд афсонасидаги воқеа-ҳодисаларнинг бошқа халқ оғзаки ижодида ҳам такрорланиши ана шундай баҳсли вазиятларни юзага келтирди. Антропологик мактаб тарафдорлари эса, халқ ижодидаги ўхшаш ҳодисаларни турли миллат ва ирқларнинг умумийлиги билан изоҳламоқчи бўлдилар. Фольклорни халқ тарихи билан боғлиқ ҳолда ўрганишда тарихий мактаб вакиллари катта ишлар қилдилар. Фольклор асарлари сюжетларининг тарихий-географик тарқалиш ареалини белгилаш, уларни таснифлаш, системага солиш ва каталоглаштиришда фин мактаби вакиллари бирмунча ютуқларга эришдилар.

Юртимизда ҳам бу борада бир қатор ишлар амалга ошириб келинмоқда. Албатта, бу жараён ўзининг тарихий илдизларига эга, албатта. Ўзбек фольклори намуналарини тўплаш ва нашр этиш ишлари XIX асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб кўзга ташлана бошлаган. Жумладан, Ҳ.Вамбери, Н.П. Остроумов тўпламлари, «Ҳикояти Гўрўғли султон», «Юсуф билан Аҳмад» каби нашрлар ана шундай сазй ҳаракатлар сирасидандир. Бироқ, фольклор намуналарини чинакамига тўплаш ва нашр этиш ишлари 1919 йилдан йўлга қўйила бошланди. Янги йўналишда шакллана бошлаган ўзбек фольклоршунослигининг дастлабки босқичи 1918-1925 йилларга тўғри келади. Ўша давр шарқшунос ва ўлкашунослари халқнинг бой маданий мероси бўлган фольклор намуналарини, бу борада эришилган ютуқларни изчиллик билан ўзлаштиришга киришдилар. Бу жараёнда ана шундай фидойилар ўз интилиш, фольклор материалларини жадал жамлаш, халқ ҳаёти ва маиший турмушининг барча томонларига кириб боришга уринишлари билан алоҳида ажралиб турдилар.

XX аср миллий уйғониш даври ўзбек адабиётининг кўзга кўринган вакилларида Ғози Олим, Ғулом Зафарий ва Элбек фаолиятлари бу борада муҳим аҳамиятга эга бўлди. Ўзбек халқи тарихида XIX асрнинг иккинчи ярми ва XX аср бошлари ўзига хос босқич бўлди. Чунки бу даврда қатор муҳим ижтимоий-сиёсий, маданий воқеалар юз берди. Айниқса, XIX асрнинг 50-йиллари ўрталарида чор Россиясининг Ўрта Осиёни босиб олиши, Кўкон хонлигининг тугатилиши, Туркистон генерал-губернаторлигининг ташкил этилиши, унинг сиёсий-маъмурий тузилиши мустамлакачилик зулмига ва ўлка халқларини миллий жиҳатдан эзишга асосланганлиги, ўлканинг Россия саноати молларини сотиш ва унга хомашё етказиб берадиган бозорга айлантирилиши ўзбек халқи тарихида асоратли из қолдирди.

Истилодан сўнг ўлкада айрим ижобий аҳамиятга эга ўзгаришлар ҳам юз берди. Яъни, ўлкада феодал тарқоқликка барҳам берилди, ўзаро урушларга, тож-тахт учун курашларга чек қўйилди. Баъзи йирик шаҳарларда саноаткор хоналари очилди. Темир йўл, почта, телеграф тармоқлари ишга тушди. Европача типдаги рус-тузем мактабларининг очилиши эски усулдаги мактаб ва мадрасалардаги ўқиш-ўқитиш тартибига ҳам ўзгартиришлар киритишга олиб келди. Босма хоналар пайдо бўлди. Шаҳарларда саноаткор хоналарининг, завод ва фабрикаларнинг очилиши туфайли ишчилар синфи шакллана бошлади. Табиийки, ўлка ҳаётида рўй берган бундай ижтимоий-сиёсий, маданий ўзгаришлар фольклор асарларида ҳам бадиий талқин этила бошланди. Фольклорнинг деярли барча жанрларида янги намуналар ижод этилди. Анъанавий

фольклор намуналарининг ижтимоий мазмуни янада теранлашди. Уларда сатирик йўналиш кучайди. Будаврда, айниқса, кўшиқ, тарихийкўшиқ, латифа, аския, терма вадостонжанрларида баракали ижод қилинди, оғзаки драманинг кўпгина намуналари яратилди.

XIX асрнинг иккинчи ярми ва XX аср бошларида халқ ҳаётида юз бераётган ижтимоий-сиёсий, маданий ўзгаришлар изсиз кетмади. Улар бахшилартомонидан асрий анъанавий мерос заминида яратилаётган қатор терма ва дostonларда ўзига хос равишда акс этди. Жумладан, Фозил Йўлдош ўғлининг «Қаҳатчилик», «Чигиртка» термалари, «Маматкарим полвон», «Жиззах кўзғолони» дostonлари, Пўлкан шоирнинг «Мардикор» дostonи, Нурмон Абдувой ўғлининг «Номоз», Ислomшоирнинг «Мингбоши», «Сўфилар», «Оллоёрбой» каби терма ва тарихий кўшиқлари шундай асарлардан саналади.

Ўзбек фольклорини ўрганиш соҳасида ўтган асрнинг 20-йиллари 2-ярмидан бошлаб янада улкан ютуқлар қўлга киритилди. Эргаш Жуманбулбул ўғли, Фозил Йўлдош ўғли, Пўлкан шоир каби атоқли дostonчилар майдонга чиқди. Улар ижро этган, халқ ҳаёти, орзуси-умидлари, қувонч ва ташвишлари акс этган дostonлар, эпик асарлар илк маротаба тўла ёзиб олина бошланди. Эътиборлиси, халқ санъаткорларига ижодкор сифатида қаралиб, улар ижодида жиддий кузатишлар олиб борилди. Натижада ўзбек фольклоршунослиги ўзининг мустақам илмий йўналишига эга бўлди, унинг асоси яратилди.

Ўтган асрнинг 30-йилларида соҳани ўрганишга Б. Каримов, Ш. Ражабов, М. Афзалов, М. Алавия, З. Ҳусайнова каби фольклоршунослар келиб қўшилдилар. Шу йилларда ўзбек халқ ижодиёти, фольклорни тўплаш ва ўрганишга, бир қанча эпик асарлар ҳамда халқ ижоди намуналарини нашр этишга алоҳида эътибор берилди, фольклор бўйича хрестоматия ва ўқув қўлланмалари яратилди. Бу даврда фольклор билан бир қаторда халқ театри, рақси ва томоша санъати (цирки)ни ўрганиш ишлари ҳам жадал бошлаб юборилди. Ғ. Зафарий, А. Қодирий, М. Гаврилов, А. Боровков, А. Троицкая каби адабиёт ва фольклор жонқуярлари бу соҳада самарали ижод қилдилар. Халқ мусиқа санъатини ўрганишда эса В. Успенский, Е. Романовская, Н. Миронов, Илёс Акбаров, Юнус Ражабий қатор изланишлар олиб боришди.

Фольклорни ўрганиш жаҳон уруши йилларида ҳам сусайгани йўқ. Бу даврда жанг майдонларидаги жангчиларни руҳлантириш, ишларни ватанпарварлик ва қаҳрамонлик руҳида тарбиялашга хизмат қилувчи фольклор асарларини яратишга катта аҳамият берилди. Буни давр фольклоршунослигининг муҳим хусусияти деса бўлади. Жумладан, В. М. Жирмунский ва Ҳ. Зарифовларнинг «Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси» китоби яратилди ва Москвада нашр этилди. Китоб 1958 йилда Германияда немис тилида ҳам босилиб чиқди. Бу эса ўзбек фольклорини нафақат юртимизда, балки хорижда ҳам ўрганиш ишларининг самарали ташкил этилганлигини кўрсатади. Фольклор санъатини ўрганиш айниқса, мустақиллик йилларида кенг қулоч ёйди.

Фольклористик ишларнинг миқёслари янада кенгайди, экспедициялар уюштириш доимий равишда йўлга қўйилди, нисбатан йирик, миқёсан кенг, фундаментал ишларни яратишга интилиш кучайди. Фольклорнинг турли жанрларига бағишланган монографияларнинг яратилиши, «Ўзбек фольклори очерклари», «Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар» номида туркум тўпламларнинг юзага келиши, «Ўзбек халқ ижоди», «Булбул тароналари», «Алпомиш» дostonининг академик нашри каби улкан нашрларнинг амалга оширилиши бунга ёрқин мисолдир. Бу ишларни амалга оширишда Ҳ. Раззоқов, Т. Ғозибоев, О. Собиров, Ж. Қобулниёзов, М. Саидов, М. Муродов, А. Қаҳҳоров, Х. Эгамов, Т. Мирзаев, К. Имомов, Ғ. Жалолов, Б. Саримсоқов, О. Сафаров, С. Рўзимбоев, М. Жўраев, А. Мусақулов каби фольклоршуносларнинг ҳиссаси ниҳоятда катта бўлди.

Бугунги кунда дунёнинг деярли барча мамлакатларидаги тегишли фольклор секторлари мавжуд. Шунингдек, турли мамлакатларда халқаро ёки муайян минтақа бўйича ҳар хил жамиятлар фаолият олиб бораёпти. Масалан, ЮНЕСКО ҳузуридаги Этнология ва фольклор халқаро жамияти, Халқ мусиқаси халқаро кенгаши, Фольклор ўртоқлик жамияти кабилар ана шундай илмий ташкилотлардир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Азадовский М. К., История русской фольклористики, т. 1—2, М., 1958— 1963;
2. Музыкальная фольклористика в Узбекистане, Т., 1963;

3. Землянова Л. М., Современная американская фольклористика, М., 1975;
 4. Ходи Зариф, Ўзбек фольклористикаси тарихидан // Ўзбек фольклори масалалари, Т., 1970;
 5. Мирзаев Т., Ходи Зариф, Т., 1967;
 6. Қодирова М., Музайяна Алавия, Т., 1968.

УЎК 372.851

БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ИЖОДКОРЛИК ҚОБИЛИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА МАТЕМАТИКАНИНГ ЎРНИ

Н.С. Матязова, доценти, Phd, Тошкент ахборот технологиялари университети Урганч филиали, Урганч

А.С. Отамурадова, магистрант, Урганч Давлат университети, Урганч

Аннотация. Мустақил фикрлайдиган ижодкор авлодни тарбиялашда бошланғич таълим муҳим роль ўйнайди. Бошланғич синф ўқувчиларида мустақил фикрлаш орқали математик тасаввурларини шакллантириш ва тафаккур бойлигини ўстиришда бошланғич математика курсининг самарали таъкил этилиши талаб этилади. Ушбу мақолада бошланғич синфларда математика фанини ўқитиш орқали ижодкорлик қобилиятларини шакллантириш масалалари кенг ёритилган.

Калим сўзлар: Ижодкорлик, фикрлаш қобилияти, ижод, тафаккур, интеллектуал ва маданий салоҳият, истеъдод, ижодий фаолият.

Аннотация. Начальное образование играет важную роль в воспитании творческого поколения с независимым мышлением. Эффективная организация курса элементарной математики необходима для формирования математического воображения и развития богатства мышления посредством самостоятельного мышления у учащихся начальных классов. В данной статье широко освещаются вопросы формирования творческих способностей через преподавание математики в начальных классах.

Ключевые слова: Творчество, мыслительная способность, креативность, мышление, интеллектуально-культурный потенциал, талант, творческая активность.

Abstract. Primary education plays an important role in growing an independent-minded creative generation. Effective organization of the primary mathematics course is required in the formation of mathematical imagination and the growth of thinking wealth in primary school students through independent thinking. This article covers a wide range of issues related to the formation of creative abilities through the teaching of mathematics in primary school.

Key words: Oeuvre, thinking ability, creativity, thinking, intellectual and cultural potential, talent, creative activity.

Ижодкорлик – бу инсоннинг борлиқни билиш ва ўзгартиришга йўналтирилган онгли, мақсадли фаолияти бўлиб, унинг натижасида янги, илгари мавжуд бўлмаган, жамиятнинг моддий ва маънавий ҳаётини яхшилашга қаратилган яратувчанлик шаклланади. Шахс ижодкорлиги, аввало, тарихий-ижтимоий ҳодиса бўлиб, у бир кунда, бир йилда эмас, балки ҳатто бир асрда ўзинининг натижасини кўрсатиши мумкин. Ижодкорликни тавсифловчи тушунча ва элементлар негизида ижод ётади.

Ижод – инсоннинг янги моддий ва маънавий неъматлар яратиш фаолиятидир. Унда инсон тафаккури, хотираси, тасаввури, диққати, иродаси фаол иштирок этиб, бутун билими, истеъдоди намоён бўлади. Ижод дастлаб, инсон тасаввурида туғилади, кейинчалик эгаллаган билимлари, изланишлари, кузатишлари, таҳлил қилишлари, мантиқий хулосалар чиқаришлари ва амалиётда қўллаш натижасида шаклланиб боради. Ҳар бир шахсда тасаввур ва фикр қилиш қобилияти мавжуддир. Дастлаб болаларда борлиқни идрок қилиш тасаввурлар орқали онгида шакллантирилади ва фикрлашга ўргатиб борилади. Бошланғич синф ўқувчиларида ижодий қобилиятларини шакллантириш аста секинлик билан босқичма босқич амалга оширилади. Бунда асосан дарс жараёнида ақлий меҳнат билан дидактик ўйинлар билан олиб борилса бола онгида фақат ўйин эмас балки, энди тасаввур қилиш, фикр юритиш ҳам пайдо бўлади. Бироқ теварак атроф ўз-ўзидан болага ўйлашни ўргатиб қўяди, деб ҳисоблаш

хато бўлади. Назарий тафаккур бўлмаса, нарсалар болаларнинг кўзидан девор билан тўсилганча қолаверади. Бола аторофдаги нарсалардан умумий тасаввурга ўта билгандагина, мавхумлаштира олгандагина табиат ақлий меҳнат мактабига айланади. 1-синфда болаларни ақлий меҳнатга жалб қилишнинг дастлабки кунлариданоқ табиат кўйнига саёхатлар қилиш ва дидактик ўйинлар орқали амалга оширилса боланинг интеллектуал қобилияти камол топади, фараз қилишга ўргатади ва ижодий имкониятлари ривожланади.

Ижод – бу инсонга табиат эхсон этган ноёб қобилият бўлибгина қолмай, балки, унинг намоён бўлиши, рўёбга чиқиши реал ҳаётини шароитга ва индивиднинг психологик ҳолатига боғлиқ. Ижодни буюк рус адиби А.Н.Толстой шундай изоҳлайди: “Одамда чексиз ижодий қувватлар мужассамки, акс ҳолда, у одам бўла олмасди. Бу қувватларни рўёбга чиқармоқ ва очмоқ лозим. Буни адолатга чақирувчи ҳамду санолар билан эмас, балки инсонга қулай ижтимоий ва моддий шарт-шароитларни яратиб бериш билан ҳал этмоқ зарур”¹.

Ижодкор – шу маънода ўз ижодий имкониятларини юзага чиқара бошлаган инсондир. Ўқувчи шахси ижодкорлигини ривожлантириш изчил равишда бири иккинчисининг ўрнини тўлдирувчи босқичлардан иборат узлуксиз жараён бўлиб, ушбу жараённинг сифати муайян педагогик-психологик шарт-шароитлар ва вазифаларга боғлиқ. Бошланғич синф ўқитувчиси олдида турган вазифа қанчалик фавкулотда муҳим бўлмасин, боланинг мияси билимларни ўзлаштириш, эслаб қолиш, хотирада сақлаш ва амалда қўллаш олиши имкониятларини инобатга олиши муҳим ҳисобланади.

Тобора ҳал этувчи кучга айланиб бораётган ёшлар таълим-тарбияси масаласи ўқитувчи-педагог зиммасига юклатилган юксак масъулиятли вазифа бўлиб, ўқувчиларда мустақиллик, креативлик, ташаббускорлик, умуммаданий кўникмаларини шакллантириш вазифаси ётади. Бунда албатта, ўқитувчидан педагогик ижодкорлик, педагогик техника билимларига эгалиги, таълим-тарбия жараёнида ўқувчилар билан ўзаро ҳамкорлик ўрната олиши, мулоқот олиб бориш тактикасининг шаклланганлиги, нутқ маданиятига эгалиги, замонавий ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда дарсларни ташкил этиши ҳамда ўз касбини ривожлантириб боришда доимо изланишда бўлишини талаб этади.

Бугунги кунда амалга ошириладиган таълим ислохотлари шуни тақозо этадики, ўз ишига ижодий ёндашувчи фан, техника, санъат ва ишлаб чиқаришнинг жадал ривожланишида юксак малакали кадрлар тайёрлашга долзарб вазифадир. Шундай экан, жамият тараққиёти талабларидан келиб чиққан ҳолда ҳар бир ўқувчини ижодкорлик руҳида тарбиялаш муҳим вазифа ҳисобланади.

Тараққиётга эришиш учун рақамли билимлар ва замонавий ахборот технологияларини эгаллашимиз шарт ва зарур. Бу бизга ривожланишнинг энг қисқа йўлидан бориш имконини беради. Чунки, интеллектуал ва маданий салоҳиятнинг қандай ноёб бойлик, нодир истеъдод эгаларини тарбиялаб камолга етказишда ҳал қилувчи аҳамиятга эга эканини унутишга ҳаққимиз йўқ².

Болаларни мустақил фикрлашга ўргатиш ижодкорликнинг дастлабки босқичларидир. Фикрлаш мустақил бўлгандагина у ижодий фикрлаш бўла олади. Машғулот жараёнида ўқувчилар учун мустақил фикрлаш ва ўта мураккаб масалаларнинг ечимини топишлари учун ҳам имконият яратиш зарурдир.

Сухомлинский В.А. – “Фикр кўргазмали образдан шу образ ҳақидаги маълумотни “ишлаш”га ўтиши учун, бола миясининг табиати, унинг ақли фикр манбаи олдида – кўргазмали образлар ичида, аввало табиат кўйнида тарбия кўришни талаб қилади. Борди-ю болаларни табиатдан ажратиб қўйилса, агар ўқишнинг биринчи кунларидан бошлаб бола фақат сўзни қабул этаверса, мия хужайралари тез чарчаб қолиб, ўқитувчи бораётган ишнинг уддасидан чиқа олмай қолади. Бу хужайралар эса камол топиши, мустақамланиши, кучга тўлиб бориши керак. Бошланғич синфларда ўқитувчилар тез-тез дуч келиб турадиган кўйидаги воқеанинг сабаби ҳам мана шунда: бола эътибор билан тинглаётгандек, кўзларингга қараб тинчгина ўтиради, лекин биронта сўзингга тушунмайди, чунки педагог тинмай гапираверади, аммо қоидаларни ўйлаш, масала ва мисолларни ечиш керак – буларнинг

хаммаси абстракция, умумлашмалар, улардан жонли образлар йўқ, мия чарчайди...”⁴ – деб изоҳлайди.

Изданишлар ва узоқ йиллик педагогик тажриба шуни кўрсатадики, таълим олувчи мустақил равишда шуғулланса ва ўз устида тинимсиз ишласагина билимларни чуқур ўзлаштириши мумкин. Уларнинг асосий билим, кўникма ва малакалари мустақил таълим жараёнидагина шаклланади, мустақил фаолият кўрсатиш қобилияти ривожланади ва уларда ижодий ишлашга қизиқиш пайдо бўлади. Бошланғич синфда ҳар бир дарс боланинг қобилиятининг учқунларини алангалата оладиган кичик ихтиродай ўтишини таъминлаш зарур. Атрофдаги олам ва ўзини англашдаги кичик ютуқлар ҳам бутун ўқув фаолиятини ғаройиб ва мафтункор бўлишини таъминлаш муҳим ҳисобланади. Болалар учун синфдошлари олдида ўзини кўрсата олиши, нималарга қодирлигини исботлай олиши ўзига бўлган ишончни ортишига сабаб бўлади ва ижодий фикр юритишга иштиёқи кучаяди. Бунинг учун уларга албатта имконият яратиш муҳим ҳисобланади.

Умумтаълим мактабларининг 1- синфларида машғулотларни ўқувчилар тасаввур ёрдамида ўзлаштиришлари учун дарс жараёнини тугамас саёҳат тарзида ташкил қилиш мумкин. Ўқувчилар мавзунини ўзлаштиришдаги дастлабки ҳаёлот тасаввурлари орқали қизиқ ҳикоялар, маематик топишмоқлар, шеър ва эртаклар юзага келади. Болалар ижодиёти ўқув жараёнига боғлиқ равишда борган сари шаклланиб, бойиб боради. Бу жараёнлар бевосита бошқа фанлар билан ҳам узвийлигини таъминлашга имконият яратади.

Абу Наср Форобий “Фозил одамлар шаҳри” асарида арифметика, геометрия, астраномия ва мусиқа фанларини педагогик, яъни тарбияловчи илмлар деб таърифлайди. У шудай дейди – “Юқорида кўрсатиб ўтилган тўрт илм шунинг учун ҳам тарбияловчи илмлар деб аталадики, улар бу илмларни ўрганувчини тарбиялайди, уни янада нафис қилади ва унга бошқа илмларни ўрганишнинг йўл-йўриқларини кўрсатади”⁵.

Шахс ривожланиши жараёнида математик тафаккур ва тушунчаларни шакллантириш бошланғич таълим тизимининг асосий пойдевор ҳисобланади. Бошланғич математика курси, бир томондан, билимларнинг бошқа соҳаларилда фойдаланилади ва болаларнинг ривожланишига ёрдам беради. Шу билан бирга бошланғич билимлар ягона мажмуасини яратади, иккинчи томондан, зарурий методологик тасаввурларни ва фикрлашнинг мантикий тузилишларини шакллантиришга йўналтирилган бўлади.

Математика сўзи грекча “mathema” сўзидан олинган бўлиб, фанларни билиш деган маънони билдиради. Математика фанининг ўрганиладиган объекти фазовий шакллар ва улар орасидаги миқдорий муносабатлардан иборат. Мактаб математика курсининг мақсади ўқувчиларга уларнинг психологик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда математик билимлар тизимини беришдан иборатдир.

Сухомлинский В.А. ўз кузатишлари натижасида шундай деб ёзади – “Бошланғич ва ўрта синфдаги қолоқ болалар математикадан биронта ҳам масалани ҳеч қачон мустақил ечмасликларига амин бўлдим. Улар гўё оқимга эргашиб борадилар, ўртоқлари босиб ўтган изагина қадам кўядилар: доскадан ёки ёнларидаги шерикларидан тайёр нарсани кўчириб оладилар-у, лекин топшириқни мустақил бажариш нима эканини аслида тасаввур ҳам қилмайдилар. Бу ёмон одатни дидактик маҳоратни такомиллаштиришнинг қандайдир йўллари топиш билан тузатиб бўлмайди. Математика дарсларидаги ақлий меҳнат – тафаккурнинг синови тоши. Ёмон одатнинг сабаби бола ўйлашни ўрганмаганлигида; теварак-атроф дунё-ю ундаги нарсалар, ходисалар, боғланишлар ва ўзаро алоқалар унинг учун тафаккур манбаи бўлиб қолмаганлигида. Агар табиат кучоғига саёҳатлар илк болалик дамларидаёқ ақлий меҳнатнинг чинакам мактабига айланса синфда математикадан ўзлаштирмовчи бола бўлмаслигини тажриба кўрсатади”⁶.

Сухамлинский В.А. дарсни ўзлаштиришга қийналган бола фикрини “қафасда ночор уринаётган қушга ва нарсалар дунёсидан, табиат ходисаларидан ажралиб қолиб, қуриб бораётган кичкина кўлга” қиёслайди. Бу кичик кўлни табиат, нарсалар, теварак дунё океанига улаб юбориш лозимлигини айтиш орқали ўқитувчи касбига моҳирона ёндашиб болани ижодкорлик оламига етаклашига урғу беради.

Бошланғич синф ўқувчиларининг ижодкорлигини шакллантиришда барча фанлардан мукамал билимга эга бўлиши учун аввало математик тасаввурларни бойитиш дастлабки қадамлардан бири ҳисобланади. Бунда албатда, ўзлаштирилиши лозим бўлган билимни кизиқарли математик ўйинлар, бошқотирмалар, муаммоли арифметик масала ва геометрик мантиқ масалаларни аторф-мухит воқеа-ходисалари билан боғлаган ҳолда олиб бориш самарали натижа беради. Шахсга таълим ва тарбия беришда нафақат таълим олувчига таълимнинг йўналтирилиши, балки ўқитувчининг педагогик фаолиятга психологик тайёрлиги муҳимдир. Бундай ҳолларда ўқитувчининг касбий компетентлик даражасига алоҳида эътибор қаратишни талаб этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.,2021, 24 - б.
2. Воронцов В.Л. Тафаккур гулшани. Т.,1981, 157-172 - б.
3. Сухомлинский В.А. Болаларга жоним фидо. Т.,1984, 31 - б, 156 - б.
4. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. Т.2016, 272 б.
5. Р.Мавлонова, Н.Раҳмонкулова. Бошланғич таълимда педагогика, инновация, интеграция. Т.2013
6. Жумаева М.Э., Таджиева З.Х. Бошланғич синфларда математика ўқитиш методикаси. Т.,2005.

УЎК 372.851

ОЛИЙ ЎҚУВ ЮРТЛАРИ ТАЛАБАЛАРИДА МУОМАЛА МАДАНИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ШАКЛЛАРИ

М.Ю.Маҳкамова, доц., Тошкент архитектура қурилиш институти, Тошкент

Аннотация. Мақолада олий ўқув юртлари талабаларида муомала маданиятини тарбиялашнинг шакллари, талабаларда муомала маданиятини ривожлантириш вазифалари, талаба муомала маданиятини ўзида тарбиялаб боришининг шартлари ҳақида фикрлар юритилган.

Калит сўзлар: касб маҳорати, муомала маданияти, педагогик фаолият, педагогик қобилият, педагогик муомала, педагогик маҳорат.

Аннотация. В статье рассматриваются формы воспитания культуры поведения у студентов высших учебных заведений, задачи формирования культуры поведения у студентов, условия формирования у студентов культуры поведения.

Ключевые слова: профессиональные качества, культура поведения, педагогическая деятельность, педагогическое умение, педагогическое поведение, педагогическое мастерство.

Abstract. The article discusses the forms of fostering a culture of behavior in students of higher education institutions, the tasks of developing a culture of behavior in students, the conditions for students to cultivate a culture of behavior.

Keywords: professional skills, behavioral culture, pedagogical activity, pedagogical ability, pedagogical behavior, pedagogical skills.

Ўзбекистоннинг келажак равнақи бугунги ёш авлод тарбиясининг қандай бўлиши ва тўлақонли шаклланишига боғлиқ. Демак, педагогнинг билим савияси, касб маҳорати, муомала маданияти, юксак бўлиши ҳаётини эҳтиёж, ҳақиқий педагог юксак маданият соҳиби, чуқур билим ва пухта малакага эга бўлиши лозим.

Талабанинг назарий ва илмий савияси, методик маҳорати ҳам талаб даражасида бўлиши лозим. Янгиликлардан хабардор, энг муҳими етарли қобилиятга, услубий маҳоратга эга бўлиши керак.

Талаба муомала маданиятини ўзида тарбиялаб бориши учун қуйидаги шартларга амал қилиши лозим :

1.Талаба ёш авлодни тарбиялашнинг давр талабларига мос қонун-қоидаларини педагогик манбаларда қайд этилган муомала маданияти асослари, халқ педагогикаси тажрибаси тўплаган ютуқларни эгаллаган ва ўз фаолиятида татбиқ эта билиш кўникмасини ҳосил қилган бўлиши лозим.

2.Талабалар маънавий дунёқарашини шакллантиришда муомала маданияти талабаларига мос муомала ўзаро муносабатга киришиши ва уни ташкил этиш учун нутқи равон ва мантиқий изчил, ихчам шакллантира олиши лозим.

3.Педагог ўз фаолияти жараёнида ибрат, намуна кўрсатиш билан талабанинг фаолигини, ҳис-туйғусини, хатти-ҳаракатини ривожлантириш ва тъсир эта олиши муҳимдир.

4.Муомала жараёнини ташкил этишда талабаларнинг руҳий, жисмоний ҳолатларини, ҳисобга олган ҳолда оддийдан мураккабга қараб бориш мазмунига риоя қилиш.

Талабалар мулоқотининг таъсирчанлиги ва тарбиявий аҳамиятини оширишда оила, оналар меҳнатидан самарали фойдалана билиши аҳамиятлидир, чунки, оила талабанинг ҳар томонлама баркамол вояга етишда асосий вазифани ўтайди.

Педагогик фаолият алоҳида тайёргарликни талаб қилиши ҳақидаги тасаввур таълим тизими тарихида анчадан бери маълум. Педагогик кадрлар тайёрлаш мазмуни ва табиатига нисбатан турли қарашлар мавжуд бўлиб, улар ўсиб келаётган ёш авлодни ривожлантириш ва тарбиялаш моҳиятини турлича тушунишга таянади. Талаба фаолиятининг таҳлили у педагогик фаолиятини бажариш жараёнида бажарадиган бир қатор вазифаларни ажратиб кўрсатиш имконини беради.

Талабада муомала маданиятини ривожлантириш вазифаси қуйидагилардан иборатдир. Олий ўқув юртлари талабаларида муомала маданиятини ривожлантириш вазифаси тажрибали педагогларнинг ишларини кузатиш, тенгдошлари тажрибасини ўрганиши, тарбиявий таъсир воситаларини англаш, зарур адабиётдан ва ахборотдан хабардор бўлиши, уни ўзлаштириши ва шу каби кўникмаларга эга бўлиши керак.

Адабиётлардан асосий йўналишларни ажрата билиш, муаммони аниқлаш, илмий адабиётни маълум нуқтаи-назардан таҳлил қилиш, тадқиқот, фарази ҳамда вазифаларни ўртага қўя билиш, педагогик жараёнда иш мазмуни, методларини аниқлаш мақсадида оддий синов тажрибалар ўтказиш, муаммоли саволлар қўйиши, асосийсини топиши, материални таҳлил қилиш, фикрни мантиқий баён қилиш ва шу каби кўникмаларни қамраб олувчи тадқиқотчилик вазифаси узвий бирикиб кетади.

Ривожлантирувчи вазифа талабага билим, кўникма ва малакаларни беришни таъминловчи ахборот вазифасида ҳам акс этади.

Бу вазифа қуйидаги бир қатор педагогик кўникмалар, ифодали нутқ воситаларидан фойдаланиш, материални аниқ, мантиқий баён қилиш ва шу каби кўникмалари қамраб олувчи тадқиқотчилик вазифаси узвий бирикиб кетади.

Ривожлантирувчи вазифа талабага билим, кўникма ва малакаларни беришни таъминловчи ахборот вазифасида ҳам акс этади. Бу вазифа қуйидаги бир қатор педагогик кўникмалар, ифодали нутқ воситаларидан фойдаланиш, материални аниқ, мантиқий баён қилиш ва тушунилишига эришиш, турли баён қилиш методлари (амалий кўргазмали, оғзаки ва бошқалар.) таълимнинг техника воситаларидан самарали фойдаланишни қўллаш, материални қисмларга ажратиш, саволлар қўйиш ва шу каби кўникмаларни талаб қилади.

Педагогик фаолиятда педагогик ташҳис кўя билиш қобилияти ҳам муҳим рол ўйнайди. Таълим тарбияни аниқ мақсадлар асосида амалга ошириш талабаларнинг ҳолати, ақли, жисмоний ривожланишни аниқлаш ва уларга амалий жиҳатдан кўмак бериш, бир қатор педагогик талабларга риоя қилади.

Ташҳис талабанинг ички ва ташқи қиёфасини аниқлаш, таълим тарбиянинг натижаларини назорат қилиш, хулқ атворини туйғуларининг дастур талабаларига мувофиқлигини аниқлаш, таълим тарбиянинг замон талабаларига мослигини эътиборга олиш, талабаларни ҳар томонлама ривожланишига таълим тарбия методларини самарасини белгилаб олиш, илғор педагогик технологияни амалга тадбиқ этиш ва бола қобилиятининг ривожланиш даражасини, меъёрларини аниқлаш имкониятини беради.

Педагогнинг талабалар билан муомаласи муваффақиятли бўлиши кўп жиҳатдан унда педагогик қобилиятининг мавжудлигига ва педагогик назоратини эгаллаганига боғлиқ бўлади.

Педагогик қобилиятлар деганда инсоннинг муайян психология хусусиятларини тушуниш қабул қилинган. Бу хусусиятлар унинг педагог вазифасида талабаларни ўқитиш ва таълим беришда юксак натижаларни қўлга киритишнинг шарти ҳисобланади.

Педагог қобилиятлар–фақат педагогик фаолият самарали бўлишининг шартигина эмас, балки кўп жиҳатдан педагогнинг муваффақиятли ишлашининг натажаси ҳамдир. Шу муносабат педагогнинг ўзида педагогик қобилиятларнинг аниқ мақсадни кўзлаб таркиб топиши ва ривожланиши катта роль ўйнайди.

Педагогдаги педагогик назокатнинг мазмуни ва унинг намоён бўлиш шакллари белгилаб берадиган айрим ижтимоий йўл-йўриқларни кўриб чиқамиз. Педагогнинг ўзи ўқувчилар билан муносабатлари диалог (мулоқот) тарзида бўлиши лозимлигини тушуниши муҳимдир. Агар педагог талабалар билан муносабатларининг ишонч асосига кўрилишига эришишга йўл-йўриқ бўлсагина, бундай мулоқот рўй беради. Тарбия тажрибасида бундай йўл-йўриқни амалга ошириш қийин ишдир, лекин, унга бутунлай эришиш мумкин. Педагог талабалар билан ўзаро ишонч ва дўстлик муносабатлари вужудга келгандагини бунга эришиш мумкин. Натижада талабалар билан маънавий муомала учун имконият вужудга келади. Бунга шунинг учун ҳам эришиш мумкинки, талабаларда катта ёшдаги дўстга эга бўлиш ва у билан муомала қилишга қатъий эҳтиёж мавжуд бўлади. Табиийки, педагог батамом аниқ ва муайян нуқтаи-назарда турган тақдирдагина унинг талабалар билан ўзаро муносабатларида ишонч вазияти вужудга келиши мумкин. Бунда гап педагогнинг ташқи ҳолати ҳақида эмас, балки жамоадаги ички ҳолати ҳақида боради. У шундан иборатки, педагог талабаларнинг катталар билан муомалада бўлишга юқорида эслатиб ўтилган эҳтиёжи асосида уларнинг муносабатлари тизимига маълум даражада кириб боришга муваффақ бўлади. Бундай ҳолда у болалар муҳитида рўй берадиган ва ташқи кузатишдан яширин бўлган жараёнларни ўрганиш имконига эга бўлади. Педагогнинг ўз ўқувчиларини: уларнинг феъл-атвори, тенгдошлари ва катталар билан муносабатларини, турли воқеаларга, муаммоларга ва ҳоказоларга муносабатларини доимо ўрганиб ва билиб беришга интилиши муҳимдир. Педагог талабаларни қанчалик яхши билиб олса, унда талабалар билан муносабатларида хушмуомалада бўлиш имкониятлари шу қадар кўпроқ бўлади. Лекин, педагог ўз ўқувчилари билан яқинроқ бўлишга ҳаракат қилар экан, баъзан тегишли дақиқаларда ўзи эшитмаслиги лозим. Бунга сабаб эшитиш одобсизлик бўлиши мумкинлиги ёки вазият ноаниқ бўлиб турганда, эшитиш дарҳол аниқлик киритиш зарурлигини тақозо қилишдир. Талабалар билан ўз муомаласини бақириқ ва майда-чуйда нарсаларга аралаштиришга айлантириб юбормаслик учун кундалик ишларда ниманидир сезмай қолишни ўрганиш муҳимдир.

Нихоят, баъзан бирон нарсани тушунмай қолиш ҳам фойдали бўлади. Буларнинг ҳаммаси педагогнинг талабалар билан бўладиган кичик ихтилофларига барҳам беради.

Талабалар билан муомала қилиш педагогнинг ўз тарбияланувчилари билан мулоқот олиб бориш маҳоратини тақозо этади. Гапиришни, мулоқот олиб боришни доимо ўрганиб бориш керак. Бу ўринда икки савол туғилади. «Нимани ўрганиш керак»? ва «қандай ўрганиш керак?».

Педагог жамоа билан, талабалар гуруҳлари айрим ўқувчилар билан гаплаша олиши керак. У дарсни самарали олиб бориш учун гапиришни билишни, суҳбат, маъруза, ҳикоя қилиш каби усуллардан фойдаланиши, умуман бутун таълим-тарбия жараёнида талабалар билан ҳамкорликни йўлга қўя олиши лозим. Талабалар билан гаплаша олиш муайян қоидаларни билишни ва бу қоидаларни амалга оширишнинг муайян усулларини эгаллашни назарда тутати. Уларни қараб чиқамиз. Талабалар жамоаси билан муомала кўпинча суҳбат, маъруза, ахборот ва ҳоказолар шаклида бўлади. Хўш, бу муомала самарали бўлиши учун нималар зарур?

Биринчи навбатда суҳбатни қандай бошлаш, қандай қилиб дарҳол ўқитувчининг гапларига талабаларнинг диққатини тортиш, уларни қизиқтириш мумкинлиги ҳақида қўйидаги фикрларни билдирамиз. Бунинг учун бир неча усуллар бор. Гапни масаланинг қўйилишидан бошлаш мумкин, бу масалада бўлажак суҳбатнинг маъноси мужассамлашган бўлади. Мавзуга диққатни тортишга уриниб кўриш ҳам мумкин, бунда гапни эркин, қизиқарли фактни маълум қилишдан бошласа бўлади, кейин уни тушунтириш ва таҳлил қилиш эса

муомаланинг мазмунини ташкил этади. Тегишли мақолани ўқиб бериш ҳам муваффақиятли бўлиб чиқиши мумкин. Бундан ташқари, дарҳол талабаларга бўлажак суҳбат, уларнинг қизиқишлари билан боғлиқ эканлигини айтиб ўтса ҳам бўлади.

Мана, суҳбатга талабаларнинг диққати жалб қилинди, ҳам дейлик, энди, унинг мавзусини анча қисқа, лекин, етарли даражада аниқ қилиб очиб бериш вазифаси туради. Буни қандай амалга ошириш мумкин. Дастлаб педагог талабалар онги ва ҳиссиётига етказмоқчи бўлган асосий фикр қисқача баён этилади. Сўнгра у очиб берилади, бунинг учун фактлар, мисоллар ва иллюстрациялар тизими баён қилинади. Бунда ёрқин таққослашлар, кутилмаган ўхшатишлардан фойдаланиш жуда фойдали бўлади. Шундан кейин хулоса чиқариш, яъни, суҳбатнинг асосий фикрини бошқача сўзлар билан такрорлаш мумкин.

Суҳбат талабаларда доимий қизиқиш уйғотиши учун, бир қатор мураккаб бўлмаган усуллардан фойдаланиш зарур, энг муҳим сўзлар ва ибораларнинг интонация билан ажратиб кўрсатиш ва аксинча, интонацияни ўзгартириш, унчалик муҳим бўлмаган материални баён қилиш керак, овоз ва нутқ оҳангини ўзгартириш фойдалидир.

Суҳбатни қандай тугаллаш ҳам муҳим аҳамият касб этади. У турлича бўлиши мумкин. Уни шеърий сатрлар билан тугалласа ҳам бўлади. Агар педагог талабаларнинг ўзлари эшитган нарсалари ҳақида фикр юритишларини хоҳласа, жавобсиз савол билан ҳам тугаллаш мумкин.

Бу қоидаларга риоя этиш педагогнинг сўзлари талабаларга зарур таъсир кўрсатиш учун шарт-шароит яратади. Чунки, педагогнинг талабалар билан ҳар қандай муомаласининг маъноси ана шундан иборатдир.

Суҳбат ҳар иккала суҳбатдош учун қизикарли бўлиши учун у мулоқот тарзида бўлиши зарур, шу мақсадда биринчи навбатда суҳбатдошнинг ҳиссий ҳолатини ҳисобга олиши ва шунга мувофиқ равишда суҳбатни бошлаши керак. Масалан, агар талаба ҳаяжонланиб турган бўлса, яхшиси у билан ўзи учун ёқимли бўлган нарса ҳақида гаплашишдан бошлаш керак. Агар, аксинча, талаба хафа кўринса, олдинга унинг диққатини унинг кайфиятини бузган нарсадан чалғитишга уриниш ва ҳатто қандайдир мароқли нарса ҳақида гап бошлаб, уни бирмунча овутишга ҳаракат қилиш муҳимдир. Лекин, ҳар қандай ҳолда ҳам талабанинг кайфияти асосан очилгандагина суҳбат мавзуини муҳокама қилишга киришган маъкул.

Шуни назарда тутиш керакки, агар педагог ҳамма вақт гапириб, сўрайверса, ўқувчи факат эшитиб, бир хилдаги жавобларни бераверса, мулоқот вужудга келмайди. Бунга турлича, талабанинг индивидуал хусусиятларига караб, барҳам бериш мумкин.

Умуман талабалар билан гуруҳ билан муомала қилганда, баъзи умумий усулларни эсда тутиш ва улардан фойдаланиш фойдалидир, улар муомалани диалогли, самарали, кам ихтилофни қилишга имкон беради. Биринчидан, педагогнинг бошқа кишилар томонидан қилинган у ёки бу мурожаатини тасаввур этиши фойдалидир. Шунда ўқувчилар билан суҳбатларда буйруқ бериш ҳуқуқини суистеъмол қилиш керак эмаслиги, яхшиси кўпроқ илтимос шаклидан фойдаланиш кераклиги маълум бўлиб қолади. Чунки, ҳар қандай кишининг буйруқдан кўра илтимосини бажариш осон ва ёқимлироқ бўлади. Шунда ўқувчилар билан суҳбатлар тез-тез «марҳамат» «рахмат» , «барака топинг» деган сўзлардан фойдаланиш, кўпинча уларга «сизнингча бундай қилсангиз яхшироқ бўлмасмикин» деб мурожаат қилиш фойдали эканлиги маълум.

Талабалар билан олиб бориладиган ишда тарбиявий самарага эришмоқ учун педагог улар билан ҳамкорлик қила олиши, талабаларни ҳамкорлик жараёнига тортиш зарурки, бу жараён улар фаолиятининг турли соҳаларида- билимда, маънавий-амалий фаолиятда, спортда, ўйинда амалга оширилади.

Хулоса қилиб қилиб айтганда, талабаларда муомала маданиятини тарбиялашнинг шакллари хилма-хилдир. Олий ўқув юртлари талабаларида муомала маданиятини тарбиялаш учун ана шу шакллардан фойдаланиш бугунги кундаги энг муҳим масалалардан биридир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

- 1.Очилов М., Очилова Н. Олий мактаб педагогикаси. -Т.: 2008.
- 2.О.У.Ҳасанбоева.Мактабгача таълим педагогикаси.-Т.:2006.
- 3.Маҳкамова М.Ю.Педагогик технологиялар.Т.2012.
- 4.Маҳкамова М.Ю.Касбий педагогика.Т.2018.

ОИЛА ИНСТИТУТИНИ МУСТАҲКАМЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ АСОСЛАРИ

Х.Т. Мирзахолов, катта ўқитувчи, Наманган муҳандислик-қурилиш институти, Наманган

Аннотация. Ушбу мақолада Ўзбекистонда оила институтини мустаҳкамлашнинг ижтимоий-фалсафий асослари таҳлил қилинган. Оиланинг мустаҳкамлигини таъминловчи омиллар тадқиқ этилган.

Калим сўзлар: Оила, жамият, шахс, қадрият, оилавий муносабатлар

Аннотация. В данной статье анализируются социально-философские основы укрепления семьи в Узбекистане. Изучены факторы, обеспечивающие стабильность семьи.

Ключевые слова: Семья, общество, личность, ценности, семейные отношения.

Abstract. This article analyzes the socio-philosophical basis for strengthening the family in Uzbekistan. Factors that ensure the stability of the family have been studied.

Keywords: Family, society, personality, values, family relationships

Оила инсон учун муқаддас маскан, кишилик жамиятининг ижтимоий пойдеворидир. Оилавий турмушнинг асосий мақсади - бу фарзанд кўриш орқали аҳолини қайта тиклаш, авлодлар билан аждодлар ворислиги ва давомийлигини ҳамда ер юзида инсоният тарихий тараққиётини таъминлашдан иборатдир. Дарҳақиқат, оила - ҳар бир шахсда илк ёшлигидан бошлаб шаклланидиган инсоний фазилатлар, эзгу-истаклар, қадриятлар такомил топадиган, минг йиллар давомида шаклланган ўзбек халқининг қадриятлари ва маънавий мероси равнагини таъминловчи тарбия масканидир. "Ҳалоллик, ростгўйлик, ор-номус, шарму-ҳаё, меҳру-оқибат, меҳнатсеварлик каби барча инсоний фазилатлар, энг аввало, оилада шаклланган". Бола шаклланишининг илк мактаби эса ота-онанинг ўзаро муносабатлари мажмуи бўлиб ҳисобланади. "Оила ҳақида сўз юритар эканмиз, аввало кўз ўнгимизда она сиймоси шаклланади... Оила муқаддаслигини таъминловчи биринчи омил - она, аҳли аёлнинг покизалиги, оқилалиги, меҳру-муруввати, садоқати ва вафодорлигидир". Ота-оналар муносабатларда намоён бўлувчи ўзаро ҳурмат, меҳр-оқибат, ҳалоллик, поклик, меҳнатсеварлик, инсонпарварлик каби олий тоифадаги қадриятлар уларнинг ўзаро муносабатларида уйғунлаша бориб, оилада ўзаро муносабатлар маромини вужудга келтиради. Оиладаги ушбу ижтимоий жараён ёш авлоднинг моддий олам, ижтимоий турмуш ҳақидаги тасаввурлари, нуқтаи назарлари, тушунчалари, дунёқарашлари ва шарқона одоб-ахлоқ қоидалари ва уларга амалиётда риоя этишнинг тўғри йўл-йўриқларини кўрсатади. Ёш авлоднинг маънавий қиёфаси, уларнинг хатти-ҳаракати, хулқ-атвори дастлаб оилавий муносабат маданиятида шаклланади). Тарихий маълумотларнинг гувоҳлик беришича, оилавий муносабатлар маданияти шарқ халқларида жуда қадимдан ривожланган ижтимоий воқелик эканлигини кўрсатади. Қадимги халқлардан қолган асори-атиқаларда, муқаддас диний манбаларда, ўзбек халқининг оғзаки ижоди дурдоналарида, шарқнинг буюк мутафаккирларининг асарларида шарқ халқлари, хусусан ўзбек халқига хос оилавий шахслараро муносабатларда намоён бўладиган одоб-ахлоқ қоидалари, меъёрлари, инсоний фазилатлар ифодаси тўғрисида қимматли маълумотларни учратиш мумкин. Манбаларда оиласиз инсоний ҳаётни тасаввур қилиб бўлмаслик, баркамол фарзанд тарбияси, ундаги эр-хотин ва ўзаро муносабатлар маданияти, бахтли ва фаровон турмуш кечириш йўллари, ҳаётий мисоллар ёрдами билан ҳикматлар ва насиҳатлар кўринишида баён этилган.

Оилавий турмуш билан жамият тараққиётининг доимий муштараклиги туфайли жамият тараққиётининг барча даврларида ҳам оилавий муаммолар унинг илғор вакиллари диққат-эътиборида бўлган. Оилавий ҳаёт жамият тараққиётида ва фарзандларнинг камолотида учун шу қадар муҳимки, худди шу боис уни бирор сония ҳам диққат-эътибордан четда қолдириб бўлмайд.

Бугунги глобал ижтимоий-иқтисодий инқироз асоратларини баргараф этишга қаратилган чора-тадбирларни ишлаб чиқишда ушбу омил етарли даражада инобатга олинмаганлиги турли даражадаги муаммоларни пайдо бўлишига олиб келди. Шу боисдан ҳам Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев “Биринчи вазифа – биз учун муқаддас бўлган оила асосларини янада мустаҳкамлаш, хонадонларда тинчлик-хотиржамлик, аҳиллик ва ўзаро ҳурмат муҳитини яратиш, маънавий-маърифий ишларни аниқ мазмун билан тўлдиришдан иборат бўлмоғи зарур. Иккинчи вазифа – аёллар ўртасида жиноятчилик, оилаларда ажралишлар кўпайгани, ёшларнинг турли диний-экстремистик оқимлар ва террористик ташкилотлар таъсирига тушиши каби халқимизга хос бўлмаган аччиқ ва нохуш масалалар билан боғлиқ”, дея алоҳида таъкидлаб ўтди.

Биз тадқиқотларимизда ўрганадиган муаммо нуқтаи назаридан қарайдиган бўлсак, Форобийнинг инсон камолоти, унинг жамиятдаги, оиладаги ўрни, ёшларнинг вояга етишига таъсири тўғрисидаги фикрлари, инсонлар жамоасидаги ўзаро ҳамжиҳатлик, ёрдам ҳақидаги ҳикматлари ҳозирги оилавий турмуш масалаларини ечишда, ундаги муносабатларни тўғри йўлга қўйишда фаровон турмуш кечириш учун дастуриламал бўлиб хизмат қилади. Ушбу муаммога оид мулоҳазалар Абу Али Ибн Синонинг (980-1037) "Донишнома", "Рисолаи ишқ", "Тиб қонунлари", "Уй хўжалиги" каби қатор асарлари Марказий Осиё халқлари ахлоқ-одоби, тарбия психологияси, фалсафа ва таъбаот оламида алоҳида ўрин тутди. Ибн Сино оилавий муносабатларнинг турли ва муҳим томонларини ёритар экан, аввало оила бошлиғи эрнинг олдидagi масъулиятли вазифаларга эътиборини қаратади. Унинг фикрича, биринчи навбатда эр оиладаги тарбиявий ишларга доир ҳам назарий, ҳам амалий маълумотларга эга бўлиши шарт. Шундагина, у ҳақиқий оила бошлиғи бўла олади. Эр-хотин муносабати тенглик ҳамжиҳатлик ва ўзаро ҳурмат асосида қурилиши ҳақида тўхталиб, "Эркак киши оила бошлиғидир, у оиланинг барча эҳтиёжларини қондирмоғи лозим, чунки бу унинг бирламчи вазифасидир. Аёл эса эркакни яхши, муносиб йўлдоши ва бола тарбияси борасида энг яхши ворис ва ёрдамчисидир" деб ёзади Ибн Сино.

Оила – кишиларнинг никоҳ ёки қонқариндошлик ришталари, умумий турмуш тарзи, ахлоқий масъулият ҳамда ўзаро ёрдамга асосланувчи кичик гуруҳи. «Жамият» ва «оила» тушунчалари бир-бири билан чамбарчас боғлиқ. Бу боғлиқлик жамиятнинг оилаларсиз мавжуд бўлмаслиги ҳамда ўз навбатида оиланинг маълум бир жамият таркибида вужудга келиши ва яшовчанлигида кўринади. Оила ҳамда жамият ўртасидаги ижтимоий муносабатлар икки томонлама алоқадорлик хусусиятига эга. Ҳар бир оила умумжамият талаблари асосида фаолият юритади. Жамият тараққиётининг ривожини эса унинг бағрида мавжуд бўлган оилаларнинг ижтимоий-иқтисодий ва маънавий қиёфасининг шаклланганлик даражасига бевосита боғлиқдир. Чунончи, ижтимоий борлиқнинг оилалар зиммасига қўядиган талаблари уларнинг манфаатларига зид бўлмаса, аксинча, оилалар фаровонлиги, тинчлигини таъминлашга ёрдам берса, оилалар томонидан ижтимоий талабларнинг қўллаб-қувватланиши, уларнинг амалдаги ижросини таъминлаш кўрсаткичи шунча юқори бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Karimbaeva S. Formation of spiritual education of students in higher education // Экономика и социум. – 2020. – №. 11. – С. 169-172.
2. Дехконова С., Абдумуталова Г. Ш. Тенденция политизации религии и формы ее проявления в современном мире // Экономика и социум. – 2017. – №. 4. – С. 491-494.
3. Akbarov B. A. Pedagogical system of formation of professional thinking in secondary school students.: Author. dis.... DeS. – 2020.
4. Akbarov B. A Японияда ўқувчиларни касб-хунарга йўналтиришнинг ўзига хос хусусиятлари // “Халқ таълими” журнали – 2021. – Т. 1(1). – С. 104-111
5. Abdurakhmonovich A. B. Factors influencing the formation. of professional thinking in pupils // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – Т. 8. – №. 2.
6. Hakimov A. Problem of gender in the philosophy // Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 11. – С. 641-643.

ЎЗБЕК ХАЛҚ МАҚОЛЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА МИФОНИМЛАРНИНГ ТАЪСИРИ

З.Р. Сафарова, ўқитувчи, Бухоро муҳандислик-технология институти, Бухоро

Аннотация. Ўтмишдан маълумки, инсоният пайдо бўлгандан бери ўзига номаълум бўлган гайриоддий кучларга ишониши, табиий офатлардан қўрқиши сабаб ўз тафаккурида мавжуд бўлмаган образларни шакллантирган. Бундай образлар салбий ва ижобий хислатларни ифодалаш орқали халқларнинг оғзаки нутқида мифонимлар атамаси вужудга келган. Мифонимлар бевосита мақолларнинг шаклланишида ҳам таъсир кўрсатиб, мифологик образлар орқали халқнинг дунёқараши ва турмуш тарзидан дарак берувчи факторлардан бири ҳисобланади. Ушбу мақолада ўзбек халқ мақолларининг шаклланишида мифонимларнинг таъсири ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: мақол, мифоним, Аямажуз, Юҳо, Ари, Кўҳи Қоф, Семург, Азройил, Хизр, Сулаймон.

Аннотация. Из прошлого известно, что вера в сверхъестественные силы, неизвестные человечеству с начала времен, страх перед стихийными бедствиями сформировали в их мышлении несуществующие образы. Термин мифонимы возник в устной речи народов через выражение таких образов, как отрицательные и положительные качества. Мифонимы также оказывают непосредственное влияние на формирование пословиц и являются одним из факторов, обозначающих мировоззрение и образ жизни народа через мифологические образы. В данной статье рассматривается влияние мифонимов на формирование узбекских народных пословиц.

Ключевые слова: пословица, миф, Аямаджуз, Юхо, Ари, Кохи Коф, Семург, Азраил, Хизр, Сулейман.

Abstract. It is known from the past that the belief in supernatural forces unknown to mankind since the beginning of time, the fear of natural disasters, has formed images that do not exist in their thinking. The term mythonyms originated in the oral discourse of nations through the expression of such images as negative and positive qualities. Mythonyms also have a direct impact on the formation of proverbs and are one of the factors that indicate the worldview and lifestyle of a people through mythological images. This article discusses the influence of mythonyms in the formation of Uzbek folk proverbs.

Keywords: proverb, myth, Ayamajuz, Yuho, Arsh, Kohi Qof, Semurg, Azrael, Hizr, Sulayman.

Маълумки, ҳар бир тилда халқнинг турмуш тажрибалари асосида шаклланган, халқнинг донолигини ўз ифодасида мужасамлаштирган қисқа, насихат характеридаги мақоллар учраб туради. Мақоллар ўз семантикасида ҳар доим кўчма маънога эга бўлиб, рамзий бўёқдорлиги жиҳатидан бошқа тил бирликларидан ажралиб туради. Айниқса, мақоллар таркибида халқнинг диний тафаккури ва дунёқараши асосида шаклланган мифонимларнинг иштирок этиши шу тилда гаплашувчи инсонларнинг қадимий урф-одатлари ва ҳаётий тажрибалари билан боғлиқ бўлади.

Мақоллар ўзбек халқи оғзаки ижодининг маҳсули сифатида ҳозирги кунда олимлар ва тадқиқотчиларнинг диққат марказида бўлиб, улар таркибида мифонимларнинг ўрганилиши тишунослик ва фольклоршунослик йўналишлари кесимидаги жараёнدير.

Ўзбек халқ мақоллари Ҳ.Бердиёров, Р.Расулов, Ш.Шомақсудов, Ш.Шораҳмедов каби олимлар томонидан атрофлича ўрганилган бўлиб, ҳозирги кунда олиб борилаётган тадқиқотларда мақоллар икки ва ундан ортиқ тиллар доирасида қиёсий томондан тадқиқ қилинмоқда. Албатта, бир тил фондидаги мақолларни ўрганиш, улар таркибидаги мифонимларнинг шаклланишини аниқлаш тадқиқотчидан машаққатли меҳнатни талаб этади. Гарчи, мифоним компонентли ўзбек мақолларига бағишланган алоҳида тадқиқот ишлари мавжуд бўлмаса-да, мақол ва маталлар такибида мифонимларнинг ўрганилиши баъзи мақолалардан ўрин олган. Масалан, М.А.Раджабова ўз илмий изланишларида ўзбек

мақолларида учрайдиган баъзи мифонимларнинг келиб чиқиш тарихига назар солади [12; 77-78]. Бошқа тадқиқот ишларида мифонимлар инглиз ва ўзбек тиллари материалида ўрганилган бўлиб, уларда мифонимларнинг адабиёт ва фольклордаги тутган ўрни, таснифи ва қиёсий таҳлиллари ўрин олган [19; 3-21]. Дунё тиллари бир-биридан қай даражада фарқ қилмасин, халқларнинг дунёқараши ва диний тушунчалари билан боғлиқ ҳолда шаклланган мифонимлар бир-биридан фарқ қилиши билан бирга уларнинг ўзаро ўхшаш жиҳатларини ҳам кузатиш мумкин.

Ўзбек адабиёти ва фольклоридида мифонимлар алоҳида бир тизимни ташкил этади. Қуйида айрим мифонимларнинг келиб чиқиш омилларини таҳлилларимизда кўриб чиқамиз. Масалан:

А) «Аямажуз-олти кун, қаҳр айласа қаттиқ кун» мақолидаги *Аямажуз* мифоними арабча «ажуз» – «кампир айёми» сўзидан келиб чиққан бўлиб, Ўрта Осиё халқлари қишни 90 кун ҳисоблаб, «тўқсон» деб атаганлар. Тўқсон ҳозирги ҳисоб бўйича 13 декабрдан 13 мартгача бўлган даврга тўғри келади. Шу тўқсон куннинг охириги олти кунда қаттиқ совуқ бўлиб, (кўп йиллик кузатишларга кўра) ер яхлайдиган одати бор (баъзи йилларда совуқ бўлмай ҳам ўтади). Ана шу 6 кунни «Шаша» деб ҳам, «Аямажуз» деб ҳам атаганлар. Абу Райҳон Беруний «Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар» асарида шубот (февраль) ойи ҳақида шундай ёзади: «Шу ой ичида «кампир кунлари» бўлиб, унинг боши йигирма олтинчи шуботдир. У кетма-кет етти кун бўлади. Йил кабисали бўлса, тўрт кун шуботдан, уч кун озор ойидан бўлади; (йил) кабисали бўлмаса, уч кун шуботдан, тўрт кун озордан (бўлади)... Қадимгилар ҳикоясича, бу кунларнинг «кампир кунлари» деб аталишининг сабаби шуки, буларни худо ўз китобида «етти кеча ва саккиз наҳс кун» (Куръони Карим, Ал-Ҳоқу сураси, 7-оят) деб баён этган. Од қавми шу кунларнинг қаттиқ совуқ шамоли, гирдоблари ва даҳшатлари билан ҳалок бўлган. Улар жумласидан бир кампир тирик қолиб, ҳалок бўлганларга марсия айтиб, йиғлаган. Шунинг учун бу кунлар «кампир кунлари» деб аталган. У (кеча-кундузларнинг) қиссалари машҳурдир... Баъзиларнинг гумонича, шу (кунларнинг «кампир кунлари») деб аталишига сабаб шуки, бир кампир (ҳавонинг) исиганини кўриб, пахталик кийимини ечиб ташлаган ва шу кунларнинг совуғида вафот этган. Баъзи араблар гумонича, «кампир кунлари»нинг бундай деб аталишига (сабаб), бу кунлар қишнинг «кампири», яъни охиридир» [18; 21-22]. Вариантлари: «Аямажуз олти кун, олти ой қишдан қаттиқ кун»; «Аҳмон-даҳмон олти кун, қаҳрига олса қаттиқ кун»; «Аҳмон музи даҳмондай бўлса ҳам кўркма, кузнинг музи кўзгудай бўлса ҳам кўрк»; «Ажум момо олти кун, сакангаса - саккиз кун, тўқангаса - тўқкиз кун». Демак, «Аямажуз» образи Шарқ халқларининг қадимги ривоят ва диний тафаккури асосида шаклланган бўлиб, ўзбек фольклоридида шу образ билан боғлиқ мақолларнинг шаклланишида асосий омиллардан бўлган.

Б) «Илон юз яшаса, аждаҳо, минг яшаса – Юҳо бўлади», «еб тўймас», «баднафс» кишиларга нисбатан ишлатиладиган мазкур мақолда **Юҳо** – одамлар ва ҳайвонларни тириклайин ютиб юборувчи афсонавий махлуқнинг номи. Айрим афсоналарда айтилишича, Юҳо ҳар хил қиёфага кириб (масалан, қиз қиёфасида), одамлар орасига келармишда, уларнинг бутун қонини сўриб, мадорини қуритармиш. Ҳаётда еб-тўймас, баднафс инсонлар шу қонхўр Юҳога ташбеҳ этилган [11; 63].

В) «Амри падар - Аршдан аъло»; ушбу мақолда келтирилган «Арш» – арабча «*тахт*» сўзидан олинган бўлиб, ақоид уламоларининг фикрига кўра, оят ва ҳадисларда келган васфларга биноан, оёқлари бор тахт бўлиб, уни фаришталар кўтариб туради. «**Арш**» худди олам устидаги куббага ўхшайди. У барча махлуқотларнинг шифтидир [1; 39].

Г) «Гап десанг қоп-қоп, пулни Кўҳи Қофдан топ» – «*очкўзлик*», «*хасислик*» маъноларида ишлатиладиган мазкур мақолда «**Кўҳи Қоф тоғи**» дастлаб қадимги Эрон афсоналарида учраб, адабиётда илк бор Фирдавсийнинг «Шоҳнома» асарида тилга олинган. Мофологик қарашларга кўра, «**Кўҳи Қоф**» оламнинг чегараси – Ҳиндистонда жойлашган тоғ [1; 82]. Ўзбек адабиётига ушбу мифоним қадимги Шарқнинг дурдона асарларидан бўлмиш Фирдавсийнинг «Шоҳнома»си орқали кириб келган.

Д) «Давлат қуши қўнса чивин бошига, Семурғ келар кунда унинг қошига» – афсонавий тушунчага кўра, қадим замонларда агар подшоҳ ўлиб, юрт подшоҳсиз қолса-ю,

унинг меросхўри, яъни фарзанди бўлмаса, «давлат қуши» деб аталмиш бир қушни бирор ердан учириб юборарканлар. Бу қуш учиб бориб кимнинг бошига қўнса (у одам бойми, камбағалми, эркакми, аёлми, каттами, кичикми, кўрми, карми, соқовми, чўлоқми ва ҳ.к. бундан қатъий назар), ўша одамни олиб келиб, юртга подшоҳ қилиб қўярканлар. Семурғ – Қоф тоғида яшовчи деб фараз қилинган афсонавий қуш. Уни «**Анқо**» деб ҳам атаганлар. Юқоридаги мақол билан мажозан: «Агар киши бирор амалга минса ё катта бир бойликка эга бўлиб қолса (у жисмоний ё ақлий тарафдан заиф бўлишидан қатъий назар), ҳамма (ҳатто, ундан жисмонан ва ақлан катта, ақлдан устун бўлганлар ҳам) унга келиб бош эгади, бўйсунди, фармонига мунтазир бўлиб туради», дейилмоқчи. Вар.: «Олти яшар отга минса, олтмиш яшар салом берар». Айрим бошқа манбаларда келтирилишича, дастлаб Семурғ улкан бургут сифатида тасаввур қилинган. Эрамиздан аввалги I минг йилликда уни гоҳ аёл кўкракли катта ҳажмли лочин, кўршапалак, шер ёки итни эслатувчи йиртқич қуш деб қабул қилишган. Семурғ шунингдек, адолат ва бахт тимсоли; у дунё ва бу дунё ўртасидаги чегарани энг юқори чўққида туриб ҳимоя қилади, деб саналган. Семурғ доимий равишда инсониятга эзгу мақсадларда хизмат қилади деган хулоса Семурғ тасвирининг кўчишига сабаб бўлган. Жумладан, Семурғ ўз даврида Сосонийлар сулоласининг рамзи ҳисобланган. Ҳиндлар Семурғни аждаҳолардан сақлайди ва йўлдан адашганларга кўмак беради, деб ҳисоблаганлар. Семурғ образи мумтоз Шарқ адабиёти дурдоналаридан муносиб жой олган. Фаридуддин Атторнинг («Мантиқ ут-тайр»), Алишер Навоий («Лисон ут-тайр») фалсафасида Семурғ ўзининг гўзал ва бетакрор талқинини топган [1; 82].

Е) «Азройил – одамнинг жонига қасд, ёмон ўғил – отанинг молига қасд» – эътиқодий тушунчага кўра, кишининг ажали етса, Азройил келиб, жонини олармиш. Ёмон ўғил отанинг мол-мулкидан, ундан қоладиган меросдан умид қилиб, ота ўлимини тилайди, унинг ўлишини кутиб ётади, ҳатто ўлдиради ҳам. Мусулмонларнинг муқаддас китоби Қуръони Каримда «**Азройил**» («Азройил») – **Малакул-маут** (ўлим фариштаси) сифатида тилга олинади. Инсоният тарихида мавжуд бўлган динларнинг мундарижасида Азройилнинг муҳим ўрни бор. Христиан динида Азройил Эсраил (охират куни осий бандаларни қийноққа солувчи ғазаб фариштаси), Эсраил, Гуру Грантх Соҳибда Азраа-иил (ўлим фариштаси), чуваш динида эса Эсрел (ўлим фариштаси) билан қиёсланади. [1; 30].

Ё) «Кўпда Хизр бор» мақолидаги «**Хизр**» – афсонавий пайғамбар. Диний қарашларга кўра, у «оби-ҳаёт» сувини ичган эмиш, шунинг учун қиёматгача ҳаёт кечирармиш; одамлар орасида кўзга кўринмай юрармиш; вақти-вақти билан эса турли қиёфаларга (оппоқ соқолли мўйсафид, отлиқ қария, оқ илон ва ҳоказолар қиёфасига) кириб, бутун жаҳонни кезиб, фалокатга йўлиққанларни ҳалокатдан қутқазармиш, деҳқонлар ҳосилига барака ато қилармиш, кимки уни учратиб қолса, бахтли ва бой бўлармиш. Шунинг учун ўтмишда эътиқодчилар «*Хизрни бир кўрсам*» деган ниятда хайр-эҳсонлар, садоқат ва ибодатлар қилиб юрардилар. Мазкур мақол гарчи ана шу эътиқодий тушунчадан келиб чиққан бўлса ҳам, унинг замирида «кўпчиликка қўшил, кўпчилик билан бирга бўл, бахтингни кўпчилик орасидан топасан», деган илғор ғоя ётади [11; 54].

Ж) «Сулаймон ўлди, девлар қутулди» – бу мақол диний афсоналарга асосланган бўлиб, унга кўра Сулаймон пайғамбар «Байтул муқаддас»ни курдирганда девларни мажбур қилиб ишлатади. У то иморат битгунига қадар ҳеч қаёққа қимирламай, ҳассасига таяниб туради. Девлар Сулаймондан кўрққанларидан ҳеч қаёққа кетмай, ноилож ишлайверади. Сулаймон пайғамбар турган жойида жон беради. Девлар буни пайқамай, ишлайверади. Ниҳоят, пайғамбарнинг жасади бир ёққа ағанаб тушгач, девлар ҳар тарафга қочиб кетадилар... Мазкур мақол мажозий маънода қўлланади: бирор юрт ё оила бошлиғи ўз юрти ё оиласини каттиққўллик билан маҳкам ушлаб, тинчитиб турган, вақти- соати етиб оламдан ўтгач, юрт ёмонлари ёхуд ноқобил фарзандлар ўз ёмонликларини қила бошласалар, одамлар уларга қарата: «Ҳа, Сулаймон ўлиб, девлар қутулибди-да», деб қўядилар [18; 314].

Юқоридаги мисоллар таҳлилидан кўриниб турибдики, ўзбек мақолларининг шаклланишида мифонимларнинг пайдо бўлиш жараёни халқнинг диний дунёқараши, оғзаки

ижоди, урф-одатлари ва атроф-муҳит ҳақидаги тафаккури билан боғлиқ бўлиб, ўзбек фольклорида улар миҳим аҳамият касб этади.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш керакки, мифонимлар нафақат халқ оғзаки ижодида, балки, илоҳиёт, фалсафа, тилшунослик соҳаларида кенг ўрганилаётган мавзулардан бири бўлиб, улар мифология ва ономастика йўналишлари кесимида халқларнинг яшаш тарзи, диний ва бадий тушунчаларини ўз ифодасида мужассамлаштирган лингвокультуремалар ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Махмараимова Ш. (2018) Ўзбек тили теоморфик метафораларининг қисқача концептуал лугати: Тошкент: Чўлпон, – 100 с.
2. Раджабова М.А. (2017) Концатуальная сущность антитезы // Достижения науки и образования. – Москва, № 5(18). – С. 43-44.
3. Раджабова М.А. (2017) Когнитивная лингвистика // Достижения науки и образования. – Москва, № 5(18). – С. 41-43.
4. Раджабова М.А. (2017) Новые подходы к изучению стилистических приемов // Достижения науки и образования. – Москва, № 5(18). – С. 44-46.
5. Safarova Zamira Rustamovna. Semantic Peculiarities of Synonyms .Asian Journal of Multidimensional Research (AJMIR) Vol 9, Issue 4, April 2020 – P.126/28.
6. Safarova Zamira Rustamovna. About the Concept of Modern Pedagogical Technology. International Engineering Journal for Research and Development (IEJRD) Vol 5. Special issue , December 2020
7. Safarova Z.R. (2021) One the concept of modern educational technology about the concept of modern pedagogical technology // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Vol. I., Issue XI., – P. 1002-1007.
8. Safarova Z.R. (2021) Internet terminologiyasining rivojlanishi va vazifasi: abreviatsiya va nominatsiya // Xorazm Ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi. – Khorazm, № 5. – B. 266-269.
9. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2001. – 448 б.
10. Urayeva D., Nazarova G. (2021). Comparative analysis of mythological names and mythologisms in the English and Uzbek literature // Philology Matters. – Tashkent, № 1. – P. 3-21.

УЎК 355.233.23

ҲАРБИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА АХЛОҚИЙ ТАРБИЯНИ ТАШКИЛ ЭТИШ УСЛУБИЯТИ МАНБАЛАРИГА ДОИР МУЛОҲАЗАЛАР

Х.Я. Сориев, катта ўқитувчи, Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Кичик мутахассисларини тайёрлаш маркази, Тошкент

Аннотация. Мақолада ҳарбий таълим муассасаларида ахлоқий тарбияни ташкил этиш услубияти манбаларига доир мулоҳазалар юритилиб, унинг асосий манбалари сифатида миллий ва умуминсоний қадриятлар, Шарқнинг буюк мутаффакирлари ва алломалари маънавий мероси, ислом таълимоти, ўзбек миллий урф-одатлари, донолар ўғити, Ўзбекистон Республикасининг давлат рамзлари: Байроқ, Герб, Мадҳияси, Конституцияси, Ўзбекистон Республикаси Президентининг маънавиятга оид барча асарлари, нутқлари, энг сўнги ахборот янгилликлари, таълим муассасаларидаги илгор тажрибалар, педагогик маҳорат ва тарбиячилик санъати эканлиги таҳлилий кўрсатиб берилган.

Калит сўзлар: Байроқ, Герб, Мадҳияси, Конституцияси, тарбия, Эркин, фаровон, инсонпарварлик.

Аннотация. В статье рассматриваются истоки методики нравственного воспитания в военно-учебных заведениях, основными источниками которых являются национальные и общечеловеческие ценности, духовное наследие великих мыслителей и ученых Востока, исламские учения, узбекские национальные традиции, учения мудрецов, государственные символы Республики Узбекистан: Герб, гимн, Конституция, все труды Президента Республики Узбекистан по духовности, речи, последние информационные новости, передовой опыт в учебных заведениях, педагогическое мастерство и искусство воспитания.

Ключевые слова: Флаг, Герб, Гимн, Конституция, Образование, Свободное, Зажиточное, Гуманное.

Abstract. *The article discusses the sources of the methodology of moral education in military educational institutions, the main sources of which are national and universal values, the spiritual heritage of great thinkers and scholars of the East, Islamic teachings, Uzbek national traditions, teachings of sages, state symbols of the Republic of Uzbekistan: The coat of arms, the anthem, the Constitution, all the works of the President of the Republic of Uzbekistan on spirituality, speeches, the latest information news, best practices in educational institutions, pedagogical skills and the art of education are analyzed.*

Keywords: *Flag, Coat of Arms, Anthem, Constitution, Education, Free, Prosperous, Humanitarian*

**Хулқ тўғри бўлса, барча халқ севади,
хулқи тўғри бўлган киши тўрға чиқади.
ЮСУФ ХОС ҲОЖИБ.**

Фанда тарбия атамаси кенг ва тор маъноларда ифодаланади. Кенг маънода, у инсон шахсини шакллантиришга, унинг ишлаб чиқариш ва ижтимоий, маданий, маърифий ҳаётда фаол иштирокини таъминлашга қаратилган барча маънавий таъсирлар, тадбирлар, ҳаракатлар, интилишлар йиғиндисини англатади. Тор маънода, миллий тарбия муайян шахснинг маънавий ривожини, дунёқараши, ахлоқий қиёфасини, эстетик дидини ўстирилишига йўналтирилган педагогик фаолиятни англатади. Юртимизда миллат мавжудлигини таъминловчи кадриятлар миллий тарбия туфайли ажодлардан янги авлодга ўтиб келмоқда. Бугун биз фақатгина таълим-тарбия масканлари деб билувчи жойлардагина эмас, балки юртимиз ҳаётининг барча жабҳаларида, адабиёт, санъат, кино, радио ва шу каби ижтимоий тармоқларда, жумладан, ҳарбий соҳада ҳам маънавий тарғибот ва тарбиявий ишларини олиб боришимиз кераклигини даврнинг ўзи кўрсатиб турибди.

Инсоннинг ахлоқий ҳаёти унинг ахлоқий тарбияси билан чамбарчас боғлиқ. Зеро, ахлоқий тарбия инсоннинг шахс бўлиб етишувини таъминлайдиган узлуксиз жараёнларидан бири. Унда индивид ахлоқий кадриятларни англаб етади, ўзида ахлоқий фазилатларни барқарор этади, ахлоқий тамойиллар ва меъёрлар асосида яшашга ўрганади. Ахлоқий тарбия инсоният тарихи мобайнида икки муҳим масалага жавоб излайди: булардан бири-қандай яшамок керак, иккинчиси – нима қилмоғ-у, нима қилмаслик лозим. Ана шу саволларга жавоб излаш жараёни ахлоқий тарбиянинг амалий кўринишидир. Тарбия она қорнидан бошланади деган гап бор. Унинг асл маъноси, аввало, ота-онанинг ўзи ахлоқий тарбия кўрган бўлиши керак дегани. Зеро қуш инида кўрганини қилади: ота-она оилада юксак ахлоқ намунасини кўрсатиши лозим.

Маълумки, Ўзбекистоннинг мустақилликка эришуви ёш авлодни миллий-маънавий руҳда тарбиялашга имкон яратди ва бу борада бир қатор муваффақиятларга эришилди. Бу ҳақда мамлакатимиз Президенти Шавкат Мирзиёев: “Мустақиллик йилларида-тарихан қисқа бир даврда ўз тақдиримизни ўзимиз ҳал этиш, жаҳон ҳамжамиятидан муносиб ўрин эгаллаш, миллий давлатчилигимизни, азалий кадрият ва урф-одатларимизни, муқаддас динимизни тиклаш, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш борасида улкан ютуқ ва марраларни қўлга киритганимизни фахр билан тилга оламиз” деб таъкидлайди [1, р. 3].

Мустақилликнинг дастлабки йилларидаёқ ёшлар тарбиясида уч манбадан фойдаланишга ҳаракат қилинди. Биринчи Президентимиз Ислам Каримовнинг “Истиқлол ва маънавият” асарида бу уч манба деб қуйидагилар кўрсатилган:

1. Умуминсоний кадриятлар
2. Ислам таълимоти
3. Ўзбек миллий урф-одатлари [2, р. 22].

Юқоридаги омиллар бир-бири билан боғлиқ бўлиб, у буюк мутаффақир Абдула Авлоний ўзининг “Туркий гулистон ёхуд ахлоқ” асарида айтганидек: “Агар инсон яхши тарбия топиб, бузуқ хулқлардан сақланиб, гўзал хулқларга одатланиб катта бўлса, ҳар ким қошида макбул бахтиёр бир инсон чиқар. Боланинг саломати ва саодати учун яхши тарбия қилмак, танини пок тутмак, ёш вақтидан маслақини тузатмак, яхши хулқларни ўргатмак, ёмон хулқлардан сақлаб

ўстурмақдир. Шариати исломияда ўз болаларини яхшилаб тарбия қилмақ оталарга фарзи айн, ўз миллатининг етим қолган болаларини тарбия қилмақ фарзи кифоядур” [3, р. 36]. Шу сабабдан, Абдулла Авлоний тарбиянинг инсон ҳаётида зарурлигини назарда тутиб, “Тарбия биз учун ё ҳаёт ё мамот, ё нажот ё ҳалокат, ё саодат ё фалокат масаласидир” деб таъкидлаган эди.

Тарбия ҳақида Шайх Муслиҳиддин Саъдий ўзининг “Гулистон” асарининг “Тарбиянинг таъсири баёнида” деб номланган еттинчи бобида тарбияшунослик илми, тарбия одобининг муҳим қонун-қоидалари қизиқарли ҳикоятлар шаклида баён этилади [4, р. 66].

Шайх Саъдий шундай деб ёзган эди:

“Кимга ёшлиқдан берилмас одоб, Улғайғач, бўлади бахтсиз, дили гаш. Хўл новда эгилар қай хилда эгсанг, Курукни тўғрилар фақат ўт-оташ.”[5].

Ҳарбий таълим муассасаларида ахлоқий тарбиянинг мазмундорлигини таъминлашда бой миллий ва умуминсоний қадриятлардан кенг фойдаланиш ва тарбиявий таъсирга эга бўлган куйидаги манбаларни ажрата билиши керак:

-таълим олувчилар жамоасининг тарбияланганлик даражасини ўрганиб, унга тарбиявий таъсир кўрсатиш маҳоратига эга бўлиши;

-тарбиявий тадбирлар учун услубларни тўғри танлаб, кўзланган мақсадга эришиш чора-тадбирларини кўра билиши;

-илғор тажрибаларни кузатиб, таҳлил қилиб, ундан ижодий фойдаланиш;

-янги илғор педагогик технологияларни жалб этиш;

-тарбиявий тадбирларни тинловчи-курсантлар руҳиятига қанчалик ижобий таъсир этганини кузатиб, уни янада ривожлантириши, такомиллаштириши;

-тарбиявий ишларнинг самарадорлигини оширишда ўз билимини бойитиб бориши лозим.

Ахлоқий тарбия ишларни ташкил этишнинг услубий-методологик асоси ўтмиш халқ оғзаки ижодиёти (Широқ, Тўмарис афсоналари, Алпомиш, Гўрўғли, Тоҳир ва Зухра достонлари ва бошқа) ва ёзма ёдгорлик (Авесто, туркий халқлар тош битиклари)лари, пандномалар деб аталган: «Калила ва Димна», «Қобуснома», «Гулистон», «Зарбулмасал» сингари мумтоз асарлар, халқ арбоблари, Марказий Осиёлик мутафаккир ва алломалар (Аҳмад Фарғоний, Муҳаммад Хоразмий, Абу Райҳон Беруний, Абу Наср Форобий, Абу Али Ибн Сино, Юсуф Хос ҳожиб, Аҳмад Югнакий, Абдулқосим Фирдавсий, Пахлавон Маҳмуд, Мирзо Улуғбек, Алишер Навоий ва бошқалар), маърифатпарвар олим, педагоглар (Исмоилбек Ғаспрати, Маҳмудхўжа Бехбудий, Абдулла Авлоний, Мунаввар Қори, Исҳоқхон тўра Ибрат, Абдурауф Фитрат, Абдулҳамид Сулаймон ўғли Чўлпон ва бошқалар)нинг бой меросидир. Жаҳонга машҳур аждодларимиз-буюк давлат арбоблари, саркарда Амир Темур, Бобур Мирзо, Мирзо Улуғбек, Жалолиддин Мангуберди нафақат ўзлари пахлавонлик, мардлик, адолатпарварлик, инсонпарварлик, илм-фан бобида ўрнак бўлганлар, балки ўз аскарлари, бўлажак эл-юрт ҳимоячилари тарбиясига ҳам алоҳида эътибор қаратганлар[6, р. 253]. Зеро, Президентимиз Шавкат Мирзиёев таъкидлаб ўтганидек: “Бизнинг ҳавас қилса арзийдиган буюк тарихимиз, улуғ аждодларимиз, бекиёс бойликларимиз бор.” [7, р. 4].

Шу билан бирга, Ислом дини ва тасаввуф оламига оид таълимотлари, Ҳадис ва ҳадисшунос олимларнинг (Имом ал-Бухорий, Имом ат-Термизий, Аҳмад Яссавий, Абулайс Самарқандий, Бурхониддин Марғиноний, Абул Муъин Насафий, Нажмиддин Кубро, Баҳовуддин Нақшбанд ва бошқалар), ғарб (масалан, Шекспир, Гёте, Пушкин, Есенин) ва шарқ шоир ва олимларининг (масалан, Умар Хайём, Жалолиддин Румий, Заҳриддин Муҳаммад Бобур, Увайсий, Нодира ва бошқалар) шеърларини ўқиш, таҳлил қилиш орқали маънавий-маърифий, ахлоқий тарбия ишларини тинловчи-курсантлар қалбига етказишнинг қонун-қоида, усул ва йўлларини билиш муҳим аҳамият касб этади. Шунингдек. 1992 йил 8 декабрда Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг XII чақириқ XI сессиясида қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Конституциясини таҳлил қилиб чиқсак, унда юқорида қайд этилган тарбия ва тарбияшунослик ҳақидаги фикрлар ўз ифодасини топганини кузатиш мумкин. Масалан, **64-модда.**

Ота-оналар ўз фарзандларини вояга етгунларига қадар боқиш ва тарбиялашга мажбурдирлар. Давлат ва жамият етим болаларни ва ота-оналарининг васийлигидан маҳрум бўлган болаларни боқиш, тарбиялаш ва ўқитишни таъминлайди, болаларга бағишланган хайрия фаолиятларни рағбатлантиради. **65-модда.**

Фарзандлар ота-оналарнинг насл-насабидан ва фуқаролик ҳолатидан қатъи назар, қонун олдида тенгдирлар. Оналик ва болалик давлат томонидан муҳофаза қилинади. **66-модда.**

Вояга етган, меҳнатга лаёқатли фарзандлар ўз ота-оналари ҳақида ғамхўрлик қилишга мажбурдирлар [8].

Айниқса, мустақил Ўзбекистонда комил инсон тарбиясига оид илмий-методик, оммавий адабиётлар, шунингдек, Республика Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг бир қатор асар(Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятнинг кундалик қонидаси бўлиши керак. Т., 2017, “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз”. Т, «Ўзбекистон» 2017, «Бугун маърифатга эътибор қаратиш ҳар қачонгидан ҳам муҳимдир» Т, «Ўзбекистон» 2016й ва бошқа)лари ёш авлодни тарбиялашга оид ғоялар тизимининг методологик асоси бўлиб хизмат қилади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, ҳарбий таълим муассасаларида ахлоқий тарбиявий ишларни ташкил этиш услубиятининг асосий манбалари деб қуйидагиларини кўрсатишимиз мумкин:

-Миллий ва умуминсоний кадриятлар.

-Шарқнинг буюк мутаффақирлари ва алломалари маънавий мероси.

-Ислом таълимоти.

-Ўзбек миллий урф-одатлари.

-Донолар ўғити.

-Ўзбекистон Республикасининг давлат рамзлари: Байроқ, Герб, Мадҳияси, Конституцияси.

-Ўзбекистон Республикаси Президентининг маънавиятга оид барча асарлари, нутқлари, энг сўнгги ахборот янгиликлари.

-Таълим муассасаларидаги илғор тажрибалар, педагогик маҳорат ва тарбиячилик санъати.

Ахлоқий тарбиянинг барча замонлар учун долзарб бўлган йўли бу – намунавийлик тамойили. Оилада, аввало, юқорида айтилганидек, ота-она болага ахлоқий намуна бўлиши керак. Таълим муассасаларида, жумладан ҳарбий олий ўқув юртида муаллимларнинг таълим бериш усулларида тортиб, то «майда-чўйда» ҳатти-ҳаракатларигача ўз шогирдлари томонидан шахсий намуна тарзида қабул қилинишини назардан қочирмаслик лозим. Устоз-шогирдлик муносабатларидаги муомала одоби, ҳалоллик, ростгўйлик ёшлар, тингловчи-курсантлар ахлоқий тарбиясининг шаклланишини таъминловчи муҳим омиллардандир.

Таълим муассасаларида тарбиявий жараёнини ташкил қилиш асосига илғор миллий, маънавий-ахлоқий кадриятлар ва мезонлар, халқ педагогикаси, маросимлар, байрамлар, ўйинлар ва бошқалар кўйилиши керак. Уларни ташкил этишда ва ўтказишда тарбия технологияларидан ёки интерфаол услублардан фойдаланилиш ўқувчида ўз юртига меҳр-муҳаббат, оилапарварлик, касбий фидоийликни шакллантиришга ёрдам беради[9, р. 6].

Хулоса қилиб айтганда, маънавий баркамол, маърифатли, жисмоний соғлом, ўзининг ҳаётдаги ўрни, бугунини англовчи инсонларни тарбиялаш умумдавлат аҳамиятидаги вазифа ҳисобланади. Президентимиз ва ҳукуратимиз томонидан маънавий ва маърифий, ёшлар тарбияси масалаларга катта эътибор берилётганлиги бежиз эмас. Юртбошимиз таъкидлаганидек: “Мамлакатимизнинг тақдири ва келажаги учун масъулиятни ўз зиммасига олишга, бу йўлда бор билим ва салоҳиятини сафарбар этишга қодир бўлган, азму шижоатли ёшларни тарбиялаб вояга етказиш биз учун муҳим масаладир” [10, р. 3].

Дарҳақиқат, миллий ва умумбашарий кадриятларга асосланган инсонпарвар демократик ҳуқуқий давлатни фақат бой маънавиятга эга бўлган, табиат ва жамият ҳамда улар ривожига ҳақидаги билимлардан хабардор, яхши тарбияланган ва эътиқодли кишиларга таянган ҳолда барпо этиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Мустақил Ўзбекистон халқи келажакка ишонч билан қарайди. (Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. Т. 2017й.)
2. Каримов И.А. Истиклол ва маънавият. Т. “Ўзбекистон”. 1993 й.
3. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 жилд. Т. “Маънавият” 1998й.
4. Сотиболдиев А., Каримжонов А. Ҳарбий педагогика. Ўқув қўлланма. Т. “Шарқ” 2005 й.
5. WWW.Ziyonet.uz (<http://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/3136-diy.html>).
6. Юсак маънавият ва қонун устиворлиги асосида яшаш, эл-юртга садоқат, адолат, ҳалоллик ва жасорат фазилятларини камол топтириш. Махсус курс учун маърузалар тўплами. Т. “Ўзбекистон” НМИУ, 2013 й.
7. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат яшаса, миллат яшайди. (Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилар вакиллари билан учрашувдаги маърузаси. Т. 2017й.)
8. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т. 2019 й.
9. Ишмуҳаммедов Р, Пардаев А. Тарбияда инновацион технологиялар. (Таълим муассасалари тарбиячи-ўқитувчиларни ва гуруҳ раҳбарлари учун амалий тавсиялар).Т.; Истеъдод, 2010 й.
10. Мирзиёев Ш.М. Жисмоний ва маънавий баркамол ёшлар бугунги ва эртанги қунимизнинг ҳал қилувчи кучидир. (Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Қамолот” ёшлар ижтимоий ҳаракатининг 2017 йил 30 июндаги IV қурултойида сўзлаган маърузаси. Т. 2017й.)

УЎК 372.881.111.1:371.321

ИНГЛИЗ ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ЭРТАК ЖАНРИНИ ЎҚИТИЛИШИ

С. Хамдамова, талаба, Қарши Давлат Университети, Қарши
Н.Маҳмудова, ўқитувчи, PhD, Қарши Давлат Университети, Қарши

Аннотация. Мақолада умумтаълим мактабларининг инглиз тили дарсларида ўқувчиларни эртақ, топшимоқ, мақол, тез айтиши каби фольклор намуналарини ўргатиши усуллари хусусида сўз боради.

Калит сўзлар: дидактик, методик шартлар, матн, эшитиб тушуниши, ўқиши, талаффуз.

Аннотация. В статье идет речь о методах обучения фольклора как сказки, загадки, пословицы, скороговорки ученикам на уроках английского языка в общеобразовательных школах

Ключевые слова: дидактические, методические условия, аудирование, чтение, произношение.

Abstract. The article discusses how to teach pupils folklore such as fairy tales, riddles, proverbs and tongue twisters in secondary school English classes.

Keywords: didactic, methodological conditions, context, listening, reading, pronunciation.

Халқ оғзаки поэзияси ўқувчиларни кўпроқ қизиқтирадиган адабиётдир. Бу поэзиядаги фантазия, уни ифодалашда айниқса муболағанинг кучли бўлиши тингловчиларни ўзига жалб этади. Халқ маданий меросини юсак баҳолаган ва қадрлаган рус ёзувчиси М.Горький: “Халқ оғзаки ижодини билмай туриб, меҳнаткаш халқнинг ҳақиқий тарихини билиш мумкин эмас” - деган эди. Инглиз тили дарсларида фонетика, грамматика, луғат, имло қоидаларини ўргатиш билан бир қаторда ўқувчиларни фольклор намуналари билан таништиришга алоҳида аҳамият қаратиш муҳим. Сабаби айнан фразеологизмларда тилнинг ҳаёт, тарих билан чамбарчас боғлиқлиги ва жамият маданияти намоён бўлади.

Халқ оғзаки ижоди асарларининг мазмунини тўла ўрганиш, бадий хусусиятларни тушуниб олиш учун, аввало, уни эшитиб тушуниш, ифодали ўқиш ва ундан кейин гапириш лозим. Инглиз тили дарсларида ўқувчиларни инглиз тилидаги эртақ, топшимоқ, мақол, тез айтиш каби фольклор намуналари ўргатиб борилади. Биз эртақ жанрини ўқитилишига чуқурроқ тўхталсак, В.Е.Гусев уни хайвонлар ҳақидаги эртақлар, сеҳрли фантастик эртақлар, баҳодирлик эртақлари, саргузашт эртақлар, тарихий ва ижтимоий – маиший эртақларга бўлиб чиқади. Эртақларнинг анъанавий муқаддимаси ўқувчиларнинг эътиборини жалб этади ва асар мазмунига қизиқишни кучайтиради. Таълим – тарбия жараёнида эртақлардан фойдаланиш учун ижодкорлик кўрсатиб, ўқитувчи бутун билим ва маҳоратини ишга солиб ҳаракат қилиши лозим. Бунинг учун турли кўргазмали қуроқлар, ёрдамида образли ифодали персонаж

товушларга тақлид қилиб ўқиш, ҳикоя қилиб бериш, янги сўзлар билан таништириш, ўз навбатида ўқувчилардан эртақни аниқ, бурро талаффуз билан ўқиб, 5-6 синфлар кичик диалогларни ролларга бўлиб айтиб беришлари, масалан:

-“Good afternoon, dear Rooster! How are you doing?”

-“Thank you, fine.”

-“Do you know? Now all the animals are friends: the wolf and the hare, the dog and the cat, the Rooster and the fox.”

-“That's nice, so now we are also friends!”

Юқори синфлар эса унинг мазмунини гапириб бериши мақсадга мувофиқдир. Эртақлар барча инсонларни дўстлик ва аҳилликка чақириш, сахий ва оққўнгил бўлиш, мард ва жасур бўлиш каби тушунчаларни ўқувчиларга сингдиради. Болалар ўзлари учун яқин ва яхши тушунарли эртақлардаги ҳар қандай ижобий образни ҳаётда мавжуд деб қабул қиладилар ва бу билан уларнинг тасаввурларида ҳайвонот ва табиат олами жонланади. Шунингдек, эртақ қахрамонлари хулқидаги ижобий ва салбий жиҳатларни тушунишларида қулай вазият вужудга келади. Шунинг учун ҳам улуғ рус ёзувчиси М.Горький: “Шахсан эътироф этиш лозимки, бувимдан ва қишлоқ эртақчиларидан эшитган эртақларим зеҳнимнинг ўсишига кучли таъсир кўрсатган”, деб эртақларни дидактик қудратига катта баҳо берган.

Биз шу ўринда ўрта синфлар учун мўлжалланган “The Fox and the Rooster” эртагини ўрганиб чиқсак, тулки хўрозни алдамоқчи бўлади, аммо ит келиб қолиб режаси амалга ошмайди. Болаларда эртақни тушунтиришда тулки, хўроз суратлари ёки шу ҳайвонлар катнашган дисклар, компьютер ва электрон доскалардан фойдаланиш, улар ҳақида суҳбат олиб бориш, эртақни ролларга бўлиниб ифодали ўқиш, уларнинг талаффузига эътибор бериш, эртақдаги янги сўзлар устида ишлаш каби усуллардан фойдаланиш яхши самара беради. Янги мавзунини бу тарзда ўтилиши ўқувчилар учун дарсларни тинглаш қизиқарли кечади ва фанга, тилга нисбатан қизиқиши ортади. Қолаверса, эртақдаги тулкининг ёлғони узоққа бормайди, бу билан “Lies have short legs” яъни «Ёлғоннинг умри қисқа» сингари халқ мақолини ўрганиб олишлари уларнинг тил бойлигининг ошишига хизмат қилади. Ҳар бир эртақ мазмунига доир мақолларни ёд олишлари эса ўқувчилар хотирасини янада мустаҳкамлайди. “The Little Lommel” эртагидаги Ломмел исмли болакай эҳтиётсизлиги туфайли бошига кулфат тушади. Эртақ сўнггидаги “Brain damage makes you smarter”, «Кулфат кишини хушёр қилади» мақоли бутун бир эртақнинг қисқа ва лўнда мазмунини ўз ичига олади. Бу каби фольклор намуналарини дарсликларда кўп учратамиз ва буларнинг барчаси болалар тарбиясида катта аҳамият касб этади. Шу ўринда фразеологизмларни инглиз тили дарсларига татбиқ қилган ҳолда ўргатишда мос дарсликлар танлаш ҳамда ўша дарсликлардаги маълум машқ ва вазифаларни ажратиб олиб текшириш ва дарс учун мақбул вариантни топиш, агар бу машқлар ўқувчилар тил даражаси ҳамда салоҳиятига мос келмаса, уларни бошқа манбалар асосида ўзгартириш масалалари ҳам алоҳида эътиборга молик ҳисобланади. Фольклор намуналарини дарс жараёнида ўрганишда турли машқ ва топшириқлар, яъни онгни ошириш машқлари, шаклга оид машқлар, маънога оид топшириқлар, матн яратиш машқлари ва ҳоказолардан унумли фойдаланиш мумкин. Матн танлашга доир методик шартлар ҳам ишлаб чиқилган ва уларни матн мазмунига ва тилига оид икки гуруҳга ажратилади. Матн танлашга доир методик шартларга қуйидаги талаблар қўйилади:

1) матннинг тарбиявий аҳамияти бўлиши керак;

2) ўқувчининг ҳаётини билимини ошириш, яъни дунёқарашини бойитишга хизмат қиладиган матнлар;

3) ўқишга тавсия этиладиган матннинг мазмуни илмий жиҳатдан сифатли, яъни ундаги маълумотлар воқеликни акс эттирадиган бўлиши;

4) танланаётган матн ўқувчи ёшига мос тушиши талаб этилади.

Ўқиладиган матн тилига мансуб талаблар ҳам қўйилади.

Биринчидан, матндаги тил материали танланган ўқув минимумига мувофиқ бўлиши керак. Лексик ва грамматик ҳодисаларнинг синфма–синф тақсимоли ҳисобга олинади. Иккинчидан, ўқувчилар ўзлаштирган тил бирликлари замида ўқишлари учун матн тавсия

килинади. Матнни ўқиш олдидан ундаги техникавий ва тилига оид қийинчиликларнинг бартараф этилиши зарурий методик тадбирдир. Учинчидан, матн тилининг услубий томонига қўйиладиган талаб ҳозирги замон адабий тили меъёрларининг сақланишидир. Юқорида биз кўриб чиққан матн мазмунига ва тилига оид методик шартлар мактабларда эртақ жанри ўқитилишига жуда мос келади.

Хулоса қилиб шуни айтмамизки, фразеологизмлар тилга ҳаёт ва ранг беради. Бусиз тил фақат ақлли алоқа воситаси бўлган бўлар эди холос[2,5.]. эртақлар ўқувчилар тафаккури ва нутқини ривожлантиради, шу орқали уларнинг нутқини, умумий талаффузини ўстиради, ҳалол, пок ва довюрак, ватанини севадиган баркамол инсон бўлиб шаклланишида катта тарбиявий рол ўйнайди.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎХАТИ:

1. Ж.Жалолов чет тил ўқитиш методикаси. Тошкент “Ўқитувчи” 1996 й.
2. Griesbach H., Uhlig G. Mit anderen Worten. Deutsche Idiomatik, Redensarten und Redeweisen. München, 1993.

S.5

3. П.Шермухамедов, Ж.Турсунов ва бошқалар. Ўзбек болалар адабиёти “Ўқитувчи” Тошкент 1976 й.
4. Ғ.Жаҳонгиров Ўзбек болалар фольклори “Ўқитувчи” Тошкент 1975 й.

УЎК 34

БОЛАЛАР ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРИНИ ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ ҚОНУНИЙ АСОСЛАРИ

А.Якубов, катта ўқитувчи, Қарши Давлат Университети, Қарши

Аннотация. Мақолада вояга етмаганлар ҳуқуқлари соҳасидаги халқаро ва миллий қонунчилик ҳамда вояга етмаганлар ҳуқуқбузарликларининг олдини олишдаги ҳуқуқий асослар баён этилган.

Калим сўзлар: Бола (болалар), васийлар, ҳомийлар, Конвенция, протокол, декларация, стратегия, процессуал, Кодекс, ратификация, профилактика, маъмурий назорат, муомала лаёқати, кафолат

Аннотация. В статье рассматривается международное и национальное законодательство о правах несовершеннолетних, а также правовые основы для предотвращения преступности среди несовершеннолетних.

Ключевые слова: Ребенок (дети), опекуны, попечители, Конвенция, протокол, декларация, стратегия, процессуальный, Кодекс, ратификация, предупреждение, административный контроль, дееспособность, гарантия.

Abstract. This article deals with the international and national legality of teenagers and protection of verditure among youngsters.

Keywords: Child (children), guardians, trustees, Convention, protocol, declaration, strategy, procedural, Code, ratification, prevention, administrative control, legal capacity, guarantee.

Ўзбекистон Республикасининг “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни 3-моддасида Бола (болалар) – ўн саккиз ёшга тўлгунга (вояга етгунга қадар бўлган шахс (шахслар), болаларнинг қонуний вакиллари – ота-оналар, фарзандликка олувчилар, васийлар, ҳомийлар эканлиги белгилаб қўйилган. Шунингдек қонунда васийлик ва ҳомийлик, етим бола, жисмоний ва (ёки) руҳий ривожланишида нуқсонлари бўлган бола, ижтимоий ҳимояга муҳтож болалар, ногирон бола, ота-онанинг ўрнини босувчи шахслар, ота-она қарамоғида бўлган бола тушунчалари ҳам ўз ифодасини топган.

Республикада вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликларни олдини олишнинг ҳуқуқий асосларини ушбу соҳага тегишли халқаро меъёрий- ҳуқуқий ҳужжатлар, Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва Қонунлари ҳамда Қонуности норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари ташкил этади.

“Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция” (1989 йил 20 ноябрь), Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенцияга Куролли можароларда иштирок этувчи болалар тўғрисидаги факультатив Протокол (2000 йил 25 май), БМТ нинг Озодликдан маҳрум этилган балоғатга етмаган болаларни ҳимоя қилишга доир Қоидалари (1986 йил 21 май), Бола ҳуқуқлари Женева Декларациясида (1924 йил), 1959 йил 20 ноябрда БМТнинг Бош Ассамблеяси томонидан қабул

қилинган “Бола ҳуқуқлари Декларацияси”да кўзда тутилган тамойиллар ва Инсон ҳуқуқларининг Умумжаҳон Декларацияси каби ҳужжатлар бола ҳуқуқлари бўйича муҳим манбалардир.

“Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция”га 193 та давлат аъзо, шу жумладан Ўзбекистон Республикаси томонидан ҳам бу ҳужжат ратификация қилинган. Конвенцияга аъзо давлатлар ҳужжатда белгиланган қоидаларнинг маъмурий қонунчилик, суд ва тегишли чоралар ёрдамида амалда қўллаш мажбуриятини ўз зиммасига олганлар. Давлатимиз ушбу Конвенцияга 1992 йилда қўшилган бўлиб унда белгиланган қоидаларни таъминлаш чоратadbирларини изчил амалга ошириб келмоқда.

Ўзбекистон Республикасида 2007 йил 23 ноябрда “Бола ҳуқуқлари қафолатлари тўғрисида”ги Қонун қабул қилинди ва 2008 йил 7 январдан кучга кирди. Қонуннинг 1-бобида умумий қоидалар, 2-бобида асосий тушунчалар ва бола ҳуқуқлари, 3-бобида ижтимоий ҳимояга муҳтож болалар ҳуқуқларини қўшимча қафолатлари, 4-бобида яқунловчи қоидалар мустаҳкамлаб қўйилган.

1991 йил 20 ноябрда “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатининг асослари тўғрисида”ги Қонун, 2016 йил 14 сентябрда “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонун янги таҳрирда қабул қилинди. Шунингдек, “Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси тўғрисида”ги, “Болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотлардан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги, “Васийлик ва ҳомийлик тўғрисида”ги Қонунлар қабул қилинди, қатор халқаро ҳужжатлар ратификация қилинди.

БМТнинг “Бола меҳнатининг оғир шакллари таъқиқлаш ва йўқ қилиш чоратadbирлари тўғрисида”ги 182-сонли ва “Ишга қабул қилиш учун энг кичик ёш тўғрисида”ги 138-сонли Конвенциялари бола ҳуқуқларига доир муҳим ҳужжатлардир. Ишга қабул қилиш учун энг кичик ёш тўғрисидаги Конвенция 1973 йилда Халқаро меҳнат ташкилоти Бош конференциясининг 58-сессиясида қабул қилинган бўлиб, унда ишга қабул қилиш учун энг кичик ёш ўсмирларнинг жисмоний ва ақлий жиҳатдан баркамол бўлиб вояга етишига мос келадиган даражада белгиланиши назарда тутилган. Мазкур ҳужжат 2008 йилда давлатимиз парламенти томонидан ратификация қилинган.

Ушбу ҳужжат қоидаларини амалда қўллаш мақсадида Ўзбекистонда қатор тегишли қонунлар қабул қилинди. Вазирлар Маҳкамасининг Қарори билан Ўзбекистон Республикаси томонидан ратификация қилинган ишга қабул қилиш учун энг кичик ёш тўғрисидаги Конвенцияни ҳамда болалар меҳнатининг оғир шакллари таъқиқлаш ва йўқ қилишга доир шошилиш чоралар тўғрисидаги Конвенцияни амалга ошириш бўйича Миллий ҳаракатлар режаси дастури тасдиқланди ва кучга киритилди.

Мамлакатимизда 2000 йилнинг “Соғлом авлод йили”, 2001 йилнинг “Оналар ва болалар йили”, 2008 йилнинг “Ёшлар йили” ва 2010 йилнинг “Баркамол авлод йили” деб эълон қилингани ва зарурий тегишли давлат дастурлари қабул қилиниб амалга жорий этилгани ҳамда Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти И.А.Каримовнинг 2014 йил 19 февралдаги ПҚ – 2133-сонли қарори билан тасдиқланган “Соғлом бола йили” Давлат дастури мазмуни ва моҳияти бу борадаги фаолиятни янги босқичга олиб чиққанлигини яхши биламиз.

2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида “Ёшларга оид давлат сиёсатини такомиллаштириш” деб номланган алоҳида банд акс этирилди.

Ёшларга оид давлат сиёсати деганда, давлат томонидан амалга ошириладиган ҳамда ёшларни ижтимоий жиҳатдан шакллантириш ва уларнинг интеллектуал, ижодий ва бошқа йўналишдаги салоҳиятни камол топтириш учун шароитлар яратилишини назарда тутадиган ижтимоий-иқтисодий, ташкилий ва ҳуқуқий чора-таadbирлар тизими тушунилади.

Ўзбекистон Республикасининг Президенти Ш.М.Мирзиёев “Инсон манфаатларини таъминлаш учун эса аввало одамлар билан, халқ билан мулоқот қилиш, уларнинг дарду ташвишлари, орзу-ниятлари, ҳаётий мумамо ва эҳтиёжларини яхши билиш керак” деб таъкидлаган фикрлари ёшларга оид давлат сиёсатини такомиллаштиришда, бу соҳадаги қонунларни янада ривожлантиришда асос сифатида хизмат қилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 45, 63, 64-моддаларида вояга етмаганларнинг ҳуқуқлари давлат ҳимоясида эканлиги, оила, жамият ва давлат муҳафазасида

бўлиш ҳуқуқига эгаллиги, ота-оналар ўз фарзандларини вояга етгунга қадар боқиш ва тарбиялашга мажбурлиги белгилаб қўйилган.

Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси II-боби, “Вояга етмаган болаларнинг шахсий номулкий ҳуқуқлари” деб номланган. Кодекснинг 65,66, 67, 68, 69, 70, 79-моддаларида боланинг оилада яшаш ва тарбияланиш ҳуқуқи, боланинг ота-онаси ва бошқа қариндошлари билан кўришиш ҳуқуқи, боланинг ҳимояга бўлган ҳуқуқи, боланинг ўз фикрини ифода этиш ҳуқуқи, боланинг исм, ота исми ва фамилия олиш ва ўзгартириш ҳуқуқи, ота-оналик ҳуқуқидан маҳрум қилиш қоидалари белгиланган.

Оила Кодексининг 14-бобида ота-она ҳамда болаларнинг алимент ҳуқуқи ва мажбуриятлари, 19-бобида ота-она қарамоғидан маҳрум бўлган болаларни аниқлаш ва жойлаштириш, 20-бобида фарзандликка олиш, 21-бобида васийлик ва ҳомийлик, 22-бобида болаларни оилага тарбияга олиш қоидалари ўз ифодасини топган.

Ўзбекистон Республикасининг “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни 7 – 23-моддалари бола ҳуқуқларининг асосий кафолатлари, 24 – 29 - моддаларида ижтимоий ҳимояга муҳтож болалар ҳуқуқларининг қўшимча кафолатлари баён этилган.

Ўзбекистон Республикасининг “Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси тўғрисида”ги Қонунда вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикасини амалга оширувчи органлар ҳамда муассасалар ва уларнинг ваколатлари, яқка тартибдаги профилактика ишини ташкил этиш, вояга етмаганни ижтимоий-ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш марказига ёки ихтисослаштирилган ўқув тарбия муассасасига жойлаштириш тартиби қайд этилган.

Қонунда васийлар ва ҳомийларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари, васийликдаги ёки ҳомийликдаги шахсларнинг ҳуқуқлари (6-боб, 31-33 моддалар), васийликдаги ёки ҳомийликдаги шахсларнинг мулкӣ ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва бу соҳадаги назорат қоидалари ёритиб берилган.

Ўзбекистон Республикасининг “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида” (2015 йил)ги Қонунда ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг асосий вазифалари, асосий принциплари, турлари белгилаб берилган.

Ўзбекистон Республикасида вояга етмаганлар ҳуқуқбузарликларини олдини олишдаги ҳуқуқий асослар, қонунчилик вояга етмаганларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилинишини таъминлайди, ҳуқуқбузарликларнинг содир этилиши сабаблари ва уларга имкон бераётган шарт-шароитларни аниқлаш, ўрганиш, баргараф этиш чора-тадбирларини кўришда амалда қонуний асос бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. “Ўзбекистон” НМИУ, 2018 йил. 45,63,64,65,66-моддалар.
2. Ўзбекистон Республикаси Олий Суди. Бола ҳуқуқларини ҳимоя қилишга оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами. “Адолат” нашриёти. 2015 йил.
3. Ўзбекистон Республикасининг Оила Кодекси. “Адолат” нашриёти. 2018 йил. II-боб. 4,65,66,66,67,68,69,70,79-моддалар.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. 2018 йил. 1-2-сон 1-модда, 2009 йил, 52-сон, 554-модда.
5. Ўзбекистон Республикасининг “Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси тўғрисида”ги Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. 2010 йил. 39-сон 341-модда, 2009 йил, 52-сон, 554-модда.
6. Ўзбекистон Республикасининг “Васийлик ва ҳомийлик тўғрисида”ги Қонуни, Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2014 йил. 1-сон 1-модда.
7. Ўзбекистон Республикасининг “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги Қонуни. “Адолат” нашриёти. Тошкент. 2015 йил.
8. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожланти-ришнинг бешта устувор йўналиши бўйича “Ҳаракатлар стратегияси”. 4-боб, 4-5-бўлим. Тошкент. 2017 йил.
9. Ортиқхўжаева Г. “Вояга етмаганлар ҳуқуқлари – Қонун ҳимоясида”. “Адолат” нашриёти. Тошкент. 2018 йил. Lex.uz.
10. Зиёдуллаев М. “Вояга етмаганлар ҳуқуқбузарликлари: уларни олдини олишнинг ҳуқуқий асослари”. ИИБ Академияси. Тошкент. 2018.
11. Асадов Л. Болаларга қандай тасвирларни кўриш тақиқланди? “Ҳуқуқ” газетаси. 2018 йил, 20 сентябр. №38. 12-бет.

УДК 664.66

ПРОДУКТЫ ПЕРЕРАБОТКИ ТОМАТОВ ПЕРСПЕКТИВНОЕ СЫРЬЕ В
ПРОИЗВОДСТВЕ РЖАНЫХ СОРТОВ ХЛЕБА

Б.Н. Аманов, преподаватель, Бухарский инженерно-технологический институт, Бухара
Л.Н.Хайдар-Заде, преподаватель, Бухарский инженерно-технологический институт, Бухара

Annotatsiya. Sharbat va pasta uchun pomidorni qayta ishlashda xom ashyoning umumiy massasining 20,0% gacha chiqindilar (rad etilgan pomidor, urug'lar, qobig'i) ulushiga to'g'ri keladi. Pomidor pomasidan tayyorlangan mahsulotlarning kimyoviy tarkibi va oziq-ovqat xavfsizligi o'rganildi. Mualliflar qoniqarli organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarni saqlab qolgan holda, to'yimlilik qiymatini oshirish uchun javdar non navlarini ishlab chiqarishda pomidorni qayta ishlash mahsulotlarini qo'llash mumkin deb hisoblaydilar.

Kalit so'zlar: pomaza, quruq pomaza kukuni, pyuresi, tozalangan javdar uni, oziqaviy qiymati, xavfsizligi.

Аннотация. При переработке томатов на сок и пасту до 20,0% от общей массы сырья приходится на долю отходов (выбракованные помидоры, семена, кожура). Исследованы химический состав и пищевая безопасность продуктов из томатных выжимок. Авторы считают возможным использование продуктов переработки томатов в производстве ржаных сортов хлеба для повышения их пищевой ценности с сохранением удовлетворительных органолептических и физико-химических показателей.

Ключевые слова: выжимки, порошок из сухих выжимок, пюре, мука ржаная обдирная, пищевая ценность, безопасность

Abstract. When processing tomatoes for juice and paste, up to 20.0% of the total mass of raw materials falls on the share of waste (rejected tomatoes, seeds, peel). The chemical composition and food safety of products from tomato pomace have been studied. The authors consider it possible to use tomato processing products in the production of rye bread varieties to increase their nutritional value while maintaining satisfactory organoleptic and physico-chemical parameters.

Key words: pomace, dry pomace powder, puree, peeled rye flour, nutritional value, safety.

Хлеб из ржаных сортов муки отличается повышенной пищевой ценностью, обусловленной содержанием в муке незаменимых аминокислот, витаминов Е и группы В, железа, магния и калия, высокомолекулярных пентозанов – слизи. Обладая высокой гидрофильностью пентозаны участвуют в формировании структурно-механических свойств ржаного теста и наряду с повышенным содержанием пищевых волокон адсорбируют и выводят из организма конечные продукты обмена веществ. Характерный вкус и запах ржаных сортов хлеба повышает их физиологическую ценность, влияя на степень усвояемости продукта. В ряде европейских стран данный вид продукции относится к группе продуктов «здорового» питания.

Однако, не смотря на высокую пищевую ценность, в связи с изменением структуры питания населения в настоящее время наблюдается тенденция снижения потребления и производства хлеба ржаных сортов. Это во многом обусловлено тем, что технологический процесс его производства отличается сложностью, продолжительностью и в полной мере может быть реализован только при непрерывном цикле производства. Однако, осуществление технологии ржаного хлеба в условиях хлебопекарных предприятий малой мощности, которые в настоящее время доминируют в качестве производителей хлеба и хлебобулочных изделий, по полному циклу, предусматривающему использование возобновляемых заквасок, представляет определённые трудности из-за дискретных режимов их работы. Немаловажным фактором является и жаркий климат в Узбекистане, в результате закваски переокисают, приобретают неприятный запах и привкус, что негативно влияет на потребительские достоинства данной продукции.

Одним из направлений реализации производства изделий из ржаной и смеси ржаной и пшеничной муки в условиях малых предприятий при прерывистом цикле работы является использование одностадийных (без заквасок) технологий путём использования разнообразных подкисляющих добавок, в частности из плодово-ягодного и овощного сырья, особенно вторичного.

Проблема поиска комплексного использования сырья и рациональная переработка отходов пищевых производств по-прежнему актуальна. Среди перспективных видов сырья для использования в производстве ржаных сортов хлеба практический интерес представляют вторичные сырьевые ресурсы консервной промышленности, на предприятиях которой ежегодно

перерабатываются десятки тысяч тонн плодов и овощей, что приводит к получению большого количества отходов в основном в виде выжимок.

